

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

MARXABO ABDULLAYEVA

**MILLIY KOLORITNI IFODALOVCHI
FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI
MUAMMOLARI
(Monografiya)**

Toshkent – 2024

UO‘K: 81’25:811.111

KBK 81.2-3

A 15

**A 15 Marxabo Abdullayeva. Milliy koloritni
ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari
(Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi», 2024, 149 b.**

ISBN 978-9910-01-232-7

Ushbu monografiya Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, Agata Kristi asarlaridagi frazeologizmlar tarjimasida milliy koloritning ifodalanishi bilan bog‘liq muammolarini ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan.

Undan ingliz tili frazeologiyasini o‘rganayotgan talaba va magistrantlar, shuningdek, ushbu sohada tadqiqotlar olib borayotgan yosh mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 81’25:811.111

KBK 81.2-3

Mas’ul muharrir:

Xayrulla Hamidov – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

Taqrizchilar:

Iroda Siddiqova – filologiya fanlari doktori, professor;

***Saodat Saidakbarova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent.***

Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2023-yil 24-fevraldagi 7-sonli qaroriga asosan nashr qilindi.

ISBN 978-9910-01-232-7

4208



© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024.

SO‘ZBOSHI

Jahon tilshunosligida frazeologizmlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar, ushbu birliklarning milliy-madaniy o‘zgachaliklarining tarjima tilida qayta yaratilishi, ularning shakliy-mazmuniy tuzilishidagi xususiyatlar, ayniqsa, frazeologik birliklarning struktur-semantik jihatlarini tadqiq etish muhim va dolzarb masalalardan bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda bu borada jahon ilmida katta ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, hali qilinadigan ishlar kam emas. Chunonchi, fanda maqol, matal va idiomatik birliklar tarjimasi bilan bog‘liq masalalarni yoritish tarjimashunoslar e‘tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda.

Abdullayeva Marxabo Rahmonqulovnaning “Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari” mavzusidagi tadqiqotida Agata Kristi asarlaridagi frazeologizmlar tarjimasida milliy koloritning ifodalanishi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjimalarida asliyatning shakl, mazmun va uslub mutanosibligida berilishi muhimligi ta’kidlanib, tarjimonlar mahorati baholangan holda tarjima jarayonida yuzaga kelgan chalkashliklarning sabablari aniqlangan. Yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish usullari asliyat va tarjima matniga muvofiq asoslab berilgan. Tarjimalarni tahlil qilish jarayonida yevropaliklarga xos madaniyat, qadriyatlar, kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi frazeologizmlarning o‘zbekcha talqini bilan bog‘liq muammolar, asliyatga xos milliylik va badiiylikning o‘zbekcha matnlarda qanchalik to‘laonli saqlanganligi dalillanib, tarjimalarning adekvatlik darajasi belgilangan.

Tadqiqotda detektiv asarlar ustasi, mashhur ingliz adibasi Agata Kristi asarlaridagi milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarning o‘zbekcha tarjimalarda berilishi, ingliz va o‘zbek xalqlari hayotidagi mushtarakliklarning bilvosita tarjimada qay darajada berilganligi o‘rganib chiqilgan. Ilmiy xulosalar mavjud nazariy qarashlarga tayanadi.

Monografiya O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarining inglizcha-o‘zbekcha tarjimachilik sohasi bilan bog‘liq fakultetlarda ingliz tilidan amaliy va nazariy dars mashg‘ulotlari o‘tkazishda, shuningdek, tarjima

amaliyoti darslari, adabiy aloqalar bo'yicha maxsus kurslar, seminarlar o'qish, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratishda manba sifatida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotning xulosa va tavsiyalaridan frazeologiya, semasiologiya, ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasidan ma'ruza matnlari yaratishda foydalanish mumkin.

*Filologiya fanlari doktori,
Xayrulla Hamidov*

KIRISH

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tillar va madaniyatlar orasidagi aloqalarni o'rganish istiqbolli yo'nalishga aylandi. So'nggi yillarda til nafaqat muloqot va dunyoni bilish vositasi, balki millat madaniyatining kaliti sifatida olimlarni qiziqтира boshladi. Tilning o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Tarjimashunoslik sohasida "milliy kolorit" bilan bog'liq tadqiqotlar ommalashgan bo'lib, ularda tarjima matnida milliy madaniyatga oid so'zlarning berilishi, madaniyatga tegishli so'zlarni saqlab qolish masalalari, lug'aviy birlikning muqobilini topish, ular bilan aloqador nuqsonlarni bartaraf etish ustida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinayotgan tarjima matniga "natija" sifatida qaralib, uning xato va kamchiliklari emas, balki badiiy matndagi so'zning ifoda ko'lamining o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida sistem-struktur yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'payib, ular tarkibida frazeologizmlarni semantik-struktur jihatdan o'rganish; etnolingvistik xarakterdagi ishlar frazeologizmlarni shakllantirgan obrazli asoslar va komponentlarning xalq turmushi bilan bog'liqligini belgilash hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, lingvomadaniy aspektdagi tadqiqotlar esa frazeologizmlarning shakli va ma'noviy asosda millat madaniyatining qanday va qay darajada aks etishini baholashga yo'naltirilgan holda amalga oshirilmoqda. Tarjima sohasida asarlardagi milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarning shakllanishi, muayyan madaniyat indentifikatori sifatida namoyon bo'lishini til va madaniyat munosabati misolida o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Milliy yuksalishning muhim shartlaridan biri davlat tilini rivojlantirish, boshqa tillarga chog'ishtirib o'rganish hamda o'zbek tilining o'ziga xos ajralib turuvchi xususiyatlarini ko'rsatib berishdan iborat. Shu munosabat bilan respublikamizda tarjima nazariyasi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha keng

qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida: “Biz O‘zbekistonda “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” degan chuqur ma’noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g‘oyat jiddiy e’tibor qaratmoqdamiz”¹, deya ta’kidlagan edi.

Tarjimashunoslikda til va madaniyat munosabati, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarning tilda namoyon bo‘lish masalalari yevropalik olimlardan S. Vлахov, S. Florin, I. Zoxar, P. Antoni, I. Gamze², rus olimlaridan I. Fedorova, Ye. Shelestyuk, S. Proskurin, V.N. Teliya, V.A. Maslova, A. Fedorov, Ya.I. Resker, G. Gachechiladze, Ye. Palastrovlar³ tomonidan hind-yevropa tillariga tegishli dalillar asosida tadqiq etilgan.

¹ Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги. 2018 йил 7 август. <https://president.uz/uz/lists/view/1926>.

² Влахов С., Флорин С. (Болгария), Непереводимые в переводе (реалии), статья, Мастерство перевода, 1969. Влахов С.И., Флорин С.П., Непереводимые в переводе, библиотека лингвиста, издание 5-е. – М.: Р.Валент, 2012. –С.408; Itamar Even-Zohar. Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory. Poetics Today, Vol. 2, No. 4, Translation Theory and Intercultural Relations (Summer - Autumn, 1981). –P. 1-7; Anthony Pym. Translation and Text Transfer. An Essay on the Principles of Intercultural Communication. Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010. – P. 211; Işıl Gamze. Cultural Transfer through Translation: Turkish Samples // The International Journal of Language Society and Culture. Issue 25, 2008. – P.82–87.

³ Федорова И.К. Кинотекст в инокультурной среде: к проблеме построения моделей культурных переносов. Российская зарубежная филология, 2011, 1(13), – С. 61–69; Шелестюк Е.В. Лингвокультурный перенос как психолингвистическая основа переводческой адаптации // Вестник Челябинского государственного университета (Серия «Филология. Искусствоведение»). Выпуск 82. № 24 (315), 2013. – С.37-47; Проскурин С. Культурные трансферы и перевод текстов. // Язык. Культура. Личность (К юбилею доктора филологических наук, профессора Л.А. Козловой), 2015. – С.79-88; Телия В.Н. Типы языковых значений: Связанное значение слова в языке. Монография, 1981; Маслова В.А., Человек — носитель национальной ментальности и языка: Лингвокультурология. – М., 2001– С.11; Федоров А.В., Основы общей теории перевода (лингвистические очерки), М., 1968; Рецкер Я.И., Теория перевода и переводческая практика. – М., 1974.– С.115; Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.,1972.– С.34; Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С.215.

O'tgan asrda O'zbekistonda tarjimashunoslik sohasi jadal rivojlana boshladi, ushbu yo'nalishda o'ziga xos ichki ixtisoslashuv yuzaga keldi⁴. O'sha davrdan bugungi kunga qadar badiiy tarjima sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi, tarjimaning madaniyatimiz tarixidagi o'rni, tarjimon mahorati masalalari jiddiy o'rganilmoqda. XX asr oxiri va XXI asrning ilk 20 yili ichida tarjimashunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan o'zbek olimlaridan G'.Salomov, M.Javburiyev, Q.Musayev, B.Yarkinova, Sh.Safarov, N.Mahmudov, Sh.Usmonova, D.Xudoyberganova, X.Hamidov, E.Ochilov, R.Shirnova, N.Dosbayeva, N.Turapova, Z.Teshaboyeva, S.Saidakbarova, N.Tuxtaxodjayeva⁵

⁴ Шарипов Ж. Русчадан ўзбекчага шеърӣ таржиманинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – Б.154; Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – Б.258; Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б.159; Эгамова Я. Асл нусхадаги қахрамонлар образини бадий таржимада қайта яратиш масаласи: Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент, 1974. – Б.202; Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. – Б.60; Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б.190;

⁵ Саломов Ғ. Адабий танқид ва бадий таржима. Тошкент: “Фан”, 1983; Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.149–150; Жавбуриев М. Воссоздание национального характера исторического колорита художественном переводе(На материале немецкого перевода романа А.Якубова “Сокровища Улугбека”): канд. филол. наук дисс. – Ташкент: 1991; Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1976. – Б.159; Яркинова Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши Филол.фан.номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2002. – Б.25; Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари.Монография. Тошкент: Наврўз, 2019. – С.57; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2011. №3. – Б.19-24; Усмонова Ш. Таржиманинг лингвомаданий аспектлари. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2015. –Б.192; Худойберганова Д. Матннинг антропоценрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.136; Ҳамидов Х. Ўзбек ва турк тиллари орасида бадий таржимада “сохта эквивалентлар” муаммоси, // Ёш таржимонлар альманахи. – Самарқанд: СамДЧИ нашри, 2012. –Б.154-158; Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. –Тошкент: ТДШИ, 2014. – Б.148; Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012.– Б.124; Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши, Фил. фан. докторлик (DSc) дисс. – Тошкент: 2017; Досбаева Н.Т. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвокультурологик таҳлили. Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент: 2021. – Б.74; Турапова Н. Национально-культурная специфика фразеологизмов японского языка (лингвокультурологический подход). Современная филология: материалы IV Междунар. науч. конф.– Уфа: Лето, 2015. – С.84-86; Тешабоева З. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. ном.дисс. автореф. – Тошкент: 2017– Б.18; Саидакбарова С. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида гастронимик фразеологизмлар (Монография).

larning tadqiqotlarini sanab o‘tish lozim. Ularning tadqiqotlarida tarjima nazariyasi, tarjimaning badiiy adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixidagi o‘rni, tarjimon mahorati masalalari jiddiy o‘rganilgan, G‘arb va Sharq tillaridan qilingan tarjimalar hamda tarjimashunoslikning turli aspektlari yuzasidan ilmiy ishlar olib borilgan.

Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” detektiv romani, “Puarro tergov qiladi” hikoyalar to‘plamidagi (tarjimon X.Teshaboyev, I. Axmedov va R. Jabborov) bilvosita o‘zbek tiliga qilingan badiiy matn tarjimasidagi milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tadqiq obyekti bo‘lgan.

– Тошкент: 2021. – Б.118; Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол.фан.фалс.д-ри. (PhD) дис. – Тошкент: 2017. – Б.14.

I BOB. MILLIY KOLORITNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tushunchasining mohiyati

Mamlakatimizda olib borilgan tarjimashunoslik tadqiqotlarida asosiy e'tibor o'girilayotgan asarning badiiy-estetik qiymatiga qaratilib, asosan ikki til vositalarining lug'aviy muvofiqligidan kelib chiqqan holda, tarjimaning saviyasiga unchalik ahamiyat qaratilmagan. So'nggi yillarda aslyatdan tarjima qilish va o'sha xalq moddiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog'liq turli omillarni o'zida aks ettiradigan lisoniy uslubiy vositalarni tarjimada ijodiy qayta yaratish masalasi sohaning maxsus tadqiqot mavzusi sifatida ilmiy jamoatchilik e'tiborini o'ziga torta boshladi.

Badiiy asarning milliy koloritini tarjimada qayta tiklash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Voqelikning milliy o'ziga xosligini o'zga tilning vositalari orqali berish borasida katta tajribalar to'plangan. Biroq bu sohaning prinsip va mezonlari ishlab chiqilgan emas⁶. Adabiyotning milliy jozibasi obrazlarning fikrlashida, fe'l-atvorida, qiliqlarida, hazil-huzulida va maqsad sari intilishida namoyon bo'ladi. Har qanday shaxs biror-bir millat vakili sifatida o'zgacha xarakter va ruhiyat, o'ziga xos hayotiy bilimga ega bo'ladi. Badiiy obrazning milliy xarakteri nutqi, surati, siyrati, his-tuyg'ulari, mavjud muhitga munosabati va boshqa holatlarda ko'rinadi. Milliy xarakter har doim milliy asosga tayangan holda yaratilib, mavjud hayotiy sharoitda shakllanadigan in'ikos hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini

⁶ Левый И. Общая и специальная теория перевода. Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – С. 32.; Абдурахмонова Н. Бадий таржима программаси. Филология масалалари, 2000 Тошкент: 1995– Б.41; Валикулов Ю. Таржима ижод кўприги. Маърифат газетаси, 2004 Тошкент: 1995– Б.3; Хўжаев. Г. Бадий таржима ва миллий колорит. Мақоллар тўплами, таржима назарияси масалалари, Тошкент: 1995– Б.38.

o'sha millatning hayot tarzini, tarixini, o'zgacha milliy madaniyatini va adabiy an'analarini bilish orqaligina his etish mumkin.

O'zbekiston tarjimachilik maktabining shakllanishida G'.Salomov, N.Komilov, J.Sharipov, Q.Musayev va boshqalarning xizmatlari beqiyos⁷. Ayniqsa G'aybulla Salomov tarjimashunoslik sohasi bo'yicha yirik ilmiy tadqiqotlar yaratgan. Anvar Hojiahmedovning "Rus klassik adabiyotidan qilingan ilk tarjimalar va ularni o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati"⁸ nomli nomzodlik ishi tarjimashunoslik bo'yicha himoya qilingan dissertatsiyalardan biri sanaladi. Ushbu tadqiqotda yarim asrdan ko'proq vaqt ichida rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalar o'rganilgan va ular haqida qimmatli ma'lumot berilgan.

Yusuf Po'latov 1963-yilda "O'zbekistonda chet el adabiyoti va Mopassan novellalarining tarjimasi"⁹ nomli nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Olim nafaqat rus tili, balki ingliz, fransuz va boshqa ko'plab tillardan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima masalasini ilmiy asoslab bergan.

O'zbekistonda tarjima sohasi ko'p ming yillik tarixga ega. Ushbu soha Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrda mavjud bo'lgan. O'zbek tarjimachiligida Muhammadrizo Ogahiyning o'rni va tarjimonlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asrda yashab ijod etgan Ogahiy tarjima sohasida faol ijod qilib, Nizomiy. Ganjaviy, Sa'diy. Sheroziy, Hisrav. Dehlaviy, Abdurahmon. Jomiy kabi klassik ijodkorlarning "Haft paykar", "Guliston", "Shoh va gado",

⁷ Саломов Г. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.– Б.8; Таржима назарияси асослари. – Тошкент: 1983.– Б.68; Комилов Н. Бу қадимий санъат//Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. Шарипов Дж.Ш. Из истории перевода в Узбекистане. – Ташкент: ФАН, 1965.– Б.68; Некоторые проблемы поэтического перевода. – Ташкент: АН УзССР, 1958; Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б.159.

⁸ Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.224.

⁹ Пулатов Ю. Ўзбекистонда чет эл адабиёти ва Ги де Мопассан новеллаларининг ўзбек тилига таржимасининг ўзига хос хусусиятлари. Филол.фан.ном. дисс. 1963. – 67 – Б.105.

“Yusuf va Zulayho”, “Bahoriston” singari shohona asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan¹⁰.

Ingliz adabiyotiga oid asarning O‘zbekistonda tanilishida tarjimaning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, tarjimada milliylikning berilishi masalasi ham shunchalik muhimdir. Shu bois obyekt sifatida tanlangan roman va hikoyalar tarjimasining ilmiy tadqiqi dolzarb hisoblanadi. Tarjimashunoslikning kam o‘rganilgan sohasi hisoblangan noqardosh tillardan vositachi til orqali badiiy tarjima, xususan, roman va hikoyalar tarjimasi bilan bog‘liq masalalar imkon doirasida ko‘rib chiqilgan mazkur tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshi ingliz adabiyotining yirik namoyandasi, qator roman, qissa va hikoyalar muallifi, detektiv qirolichasi deya e’tirof etilgan Agata Kristi zamonaviy ingliz nasrining atoqli namoyandalari orasida sanalib, nafaqat Angliyada, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ma’lum va mashhur.

Kristi asarlarining vositali til yordamida o‘zbek tiliga tarjimasiga aloqador bir qator masalalarning hal etilishi o‘zbek tarjimonlari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek xalqlari badiiy tafakkuri, hayot tajribasining umuman o‘xshamasligi, ular orasida katta farqli jihatlarning ham borligi aksariyat hollarda millatning ruhi, mentaliteti, turmush-tarzini namoyon qiluvchi milliy xos so‘zlar, frazeologik birliklarni talqin etishda muammo keltirib chiqarishi tabiiydir.

G‘.Salomov ta’biri bilan aytganda, *“tarjimani mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo‘ladi. Chunonchi, bir zaminda o‘sib turgan nihol boshqa yerga o‘tkazilganda ko‘karib, meva beradi”*. Darhaqiqat, millatlar orasida bevosita madaniy va ma’naviy aloqa quroli bo‘lgan badiiy tarjima vositasida dunyo xalqlarining ma’naviy boyliklari, insonlarning ko‘p asrlik ezgu umidlari, orzu-armonlari, g‘oya va qarashlari mujassam asarlar o‘zga til sohibi bo‘lgan xalqlarga yetkaziladi. “Dunyo adabiyoti namunalarining madaniy hayotimizga kirib kelishi va

¹⁰ Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуремаларнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – Б.132.

xalqlarining ma'naviy jihatdan yaqinlashishida badiiy tarjimaning o'rni beqiyosdir"¹¹. Bugungi kunga kelib, o'zbek tarjimachilik maktabi jahon tarjimashunoslik ilmda o'zining munosib o'rniga ega bo'lib, dunyo olimlari tomonidan tan olingan. Asrlar osha tarjimaga bo'lgan alohida amaliy qiziqish nazariy ehtiyojga aylangan bir davrda, ingliz va o'zbek xalqlari tarixi, madaniyati, hayot tarzi, urf-odatlar va an'analarida mushtarak jihatlar ko'p va ular aksar hollarda tarjima tiliga deyarli o'zgarishsiz ko'chib o'tadi. Bunday mushtaraklik bu xalq vakillarining dunyoqarashlari, hayotni tushunish falsafasida ham ko'pgina o'xshashliklarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Sh. Safarov ta'kidlaganidek, "Tarjima jarayon sifatida qaralganda ma'lum bir tildagi matnning mazmunini tushunish va uni boshqa bir tilda qayta yaratish faoliyatidir, tarjimaning mahsulot ko'rinishidagi talqinida matnning boshqa lisoniy madaniyatda hosil qiladigan aks-sadosi, taassurot uyg'otish ko'lami deb bilish kerak"¹². Tarjimaning amalga oshirishini ta'minlovchi asosiy omillar til, madaniyat va tafakkurdir. Tarjimashunoslikning asosiy maqsadlari sirasiga, birinchidan, ikki turfa lisoniy madaniyat vakillari asliyat va tarjima matnlarini qanday tushunishini aniqlash kirs; ikkinchidan, ularning idrok etish qobiliyatiga til – madaniyat – tafakkur munosabati qanday ta'sir o'tkazishi mumkinligini belgilash kiradi. Ushbu uchlik (*til – madaniyat – tafakkur*) munosabati tarjimon tanlayotgan amaliy rejalar, ya'ni tarjima jarayonidan qanday o'rin egallashini bilish bilan bog'liq"¹³. Darhaqiqat, bu yerda tarjima ham, ijodiy jarayon ham badiiy so'z san'ati ekanligiga urg'u bergan holda, bunda ikki lisoniy madaniyat to'qnash kelishi va o'zaro muloqotning natijasi o'laroq tarjima kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, til tafakkurdan ayri holda ko'rib

¹¹ Саломов Ф. Тил ва таржима, Тошкент, 1966.– Б.8; Таржима санъати, мақолалар тўплами, Тошкент, 1973.– Б.21; Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.– Б.24.

¹² Сафаров Ш. Таржима компетенциясининг таркибий қисмлари. Мақолалар тўплами. – № 3 (26), 2019. –Б . 111–129.

¹³ Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография. – Тошкент: Наврўз нашриёти, 2019. – Б.132.

chiqilmagani kabi tarjimani ham til, madaniyat va tafakkurdan ajratib ko‘rib chiqish mumkin emasligini ta’kidlagan.

Badiiy asar tarjimalarida muallif o‘z muddaosini ro‘yobga chiqarish uchun bir qator tasvir va ifoda vositalaridan foydalanadi. Tarjimon har bir hodisani o‘zicha qabul qiladi, voqelikka o‘z nazari bilan qaraydi. U asar g‘oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o‘sha tanlangan detal orqali o‘z fikrini ifodalaydi¹⁴.

Tarjima vositasida asliyatdagi milliy ruh o‘zga tilda qayta yaratiladi. Kishilarning etnik birlik asosida tashkil topgan bir til, yagona ma’naviyat va madaniyat, yagona hudud, iqtisodiy hayot va ruhiyatdagi birlik asosida vujudga kelgan jamoaga millat deyiladi. Milliylik esa u yoki bu millatning ma’naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xoslikdir. Ma’naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro‘zg‘or anjomlari, cholg‘u-asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig‘indisiga milliy kolorit deyiladi. Milliylik, davr, muayyan hududning o‘ziga xos jihatlari ifodasi badiiy asarning xarakterli xususiyatidir.

Darhaqiqat, jahon tilshunosligida frazeologiya¹⁵ sohasidagi tadqiqotlarning qiyosida “frazologizm” tushunchasining ko‘plab variantlari va uning ta’rifida ham turli qarashlarning mavjudligini ko‘rish mumkin. Binobarin, fransuz frazeologiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan A.G.Nazaryan “frazologiyada sinxroniya va diaxroniyani bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish asossiz, chunki frazeologik birlikning o‘ziga xos xususiyatini sinxronik nuqtayi nazardan o‘rgana turib ham, har doim uning genetik kelib chiqishi erkin yoki nofrazeolgik birikma sifatida uni tashkil etuvchi unsurlarning barchasi to‘liq mavhumlashishi mumkin

¹⁴ Хамидов Х. Мақол ва идиомалар таржимаси муаммолари. Тошкент: ТДШУ, 2017. – Б. 128.

¹⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳрир, 1992. – С. 379

emasligiga e'tibor qaratamiz"¹⁶, deya ta'kidlaydi. Tilning mustaqil birligi frazeologizm fonema, morfema, so'z kabi boshqa til birliklariga nisbatan murakkabroq bo'lib, leksik, grammatik va ayniqsa, semantik jihatdan o'ziga xos tuzilishga ega. Bu strukturada ko'proq ekstralingvistik omillar ishtirok etadi. Ular esa frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy xarakterni namoyon etadi¹⁷.

O.S.Axmanovanning "Lingvistik terminlar lug'ati"da kolorit – badiiy asarning o'ziga xos xususiyati, personajlarning nutq xarakteristikasi sifatida ta'riflanib, ularning nutqida biror davr tilidan yoki shevalardan olib o'zlashtirilgan tilning o'ziga xos belgilari, biror mamlakat yoki hududning xos tushunchalari (realiyalar) majmuidan iborat, deb ko'rsatiladi¹⁸. Jumladan, Sharq koloriti, Yevropa koloriti va mahalliy koloritga doir so'z va istilohlar misol tariqasida keltiriladi. Badiiy adabiyotning asosiy materiali so'z ekan, demak, badiiy tarjimada ham faqat lisoniy so'zlar bilan bog'liq kolorit o'rganilmog'i kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

Frazeologiya leksikologiyaaning bir bo'limi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan. Lingvistikada ingliz tilidagi frazeologizmlarning nazariy asoslari A.V. Kunin, o'zbek tilida A.G. Ganiyev, Sh. Raxmatullayev, Sh.R. Usmonova, B. Yo'ldoshev va Sh.T.Almamatova¹⁹ tomonidan

¹⁶ Назарян А.Г. Фраzeология современного французского языка: Учеб. - 2-е изд. перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 1987. – С.288.

¹⁷ Назарян А.Г. Идиоматические выражения французского языка: пособие для учителей фр. яз. – М.: Просвещение, 1978. – С. 159.

¹⁸ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – С.200.

¹⁹ Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту: (В свете современных теории устойчивых словосочетаний) Ташкент: Фан, 1985. –С.163; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати Тошкент: Университет, 1978. –Б.406; Ўзбек тилида феъл фразеологизмларнинг боғлашуви. – Тошкент: “Университет”, 1992. – Б.125; Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. Филол. фанлари номзоди. дисс. автореф. – Тошкент: 1998.– Б.21; Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг матндаги прагматик имкониятларини ўрганиш ҳақида. Андижон: АДУ нашриёти, 2011.– Б.70; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фразеологизмларининг компонент таҳлили: Филол. фан. ном.... дисс. автореф. – Тошкент: 2008.– Б.16.

o‘rganilgan. Sh.Balli frazeologiyani alohida bo‘lim sifatida emas, balki stilistikaning tarkibiy qismi sifatida baholashni taklif qilgan²⁰.

Xalqning til boyligi uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasi, frazeologik qatlamining boyligi bilan belgilanadi. Frazeologizmlarda *yaxshilik va yomonlik*: one’s word is one’s bond. – So‘z aytganda o‘ylab ayt, oqibatini bilib ayt; *to‘g‘ri so‘z va yolg‘onchilik*: Cards are the devil’s books. – Qimordan kelgan qimorga ketar; To pull the wool over a person’s eyes. – Qallobning bolidan saxiyning zahri yaxshi; *mehmon va mehmondo‘stlik*: Fine words dress ill deeds. – Tili bilan suyar, Dili bilan so‘yar; *mehnatsevarlik va yalqovlik*: He that is afraid of wounds must not come near a battle. – Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas, Chigirtkadan qo‘rqqan – ekin kabi insonga xos xislatlar ko‘pincha taqqoslab ko‘rsatiladi.

Masalan: *First-class smoking carriage* – *Kashandalar uchun mo‘ljallangan birinchi klass vagoni*. Poyezdning boy zodagonlar uchun ajratilgan kupesi, ya‘ni o‘sha vagonda sigaret cheksa ham bo‘ladi; *it had been bought for a honeymoon* – *u asal oyi uchun sotib olingan edi* asal oyini tarjimada chilla o‘rnida bersak va o‘sha chilla vaqti uchun sotib olingan narsalar; *looking after a swarm of children* – *bolalar ichida o‘ralashib yurish*. Bolalarga enagalik qilish yoki ko‘p bolali onaning kinoyali gapi; *I understand they know you personally* – *Adashmayotgan bo‘lsam, ular sizni yaxshi bilishadi*. Mening tushunishimcha, ular sizni shaxsan taniydi.

Bunday frazeologizmlarni tarjima qilishda o‘zbek tilidan muqobil variant topiladi yoki ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish ham mumkin (1.1-jadvalga qarang).

²⁰ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. – С.62; Язык и жизнь. М., 2003. – С.102.

Опарина Е. О. Балли. Ш. Европейские лингвисты XX в.: Сб. обзоров. – М.: 2001. – С.68.

Frazeologizmlarning soʻzma-soʻz tarjimalari va oʻzbek tilidagi muqobil variantlari

Frazeologizm	Soʻzma-soʻz tarjimasi	Oʻzbek tilidagi muqobili
Many hands make light work.	Koʻp qoʻllar yengil ishlarni bajaradi	Birgalashib koʻtarilgan yuk yengil boʻladi
Young saint, old devil	Yosh aziz, keksa shayton	Qarib quyilmagan chol
A word in season.	Mavsumdagi soʻz	Doʻstning vazifasi – vaqtida ogohlantirmoq
Goose, cookown	Gʻoz, oshpaz	Oʻz oyogʻingga oʻzing bolta urma!
To make two bites of a cherry	Gilosni ikki marta tishlash	Bir mayizni qirqqa boʻlib yebdi
You cannot sell the cow and drink the milk	Sigirni sotish va sutini ichish mumkin emas	Qaysi butaga oʻt tushsa, oʻsha buta kuyar
A penny soul never came to twopence.	Bir tiyin jon hech qachon 2 penga tushmagan	Arzon shoʻrva tatimas
Dressed up like a dog's dinner	Itning ovqatiga oʻxshab kiyingan	Abgor (kir) ahvolda kiyingan odam
Done up to the nines	----	Judayam zamonaviy kiyingan
Dressed to kill	----	Odamlar diqqatini jalb qilish uchun kiyilgan kiyim
Your glad rags on	----	Eng zoʻr koʻylaging
She looks like mutton dressed as lamb.	----	Yoshiga yarashmagan kiyimni kiygan

Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar, frazeologizmlarning ayrimlari ma'no jihatdan mos kelishi mumkin. Bunday ibora va frazeologizmlarni tarjima qilishda o'zbek tilidan muqobil varianti topib qo'yiladi yoki ularni bevosita tarjima qilish ham mumkin.

The next day passed uneventfully to all appearances – keyingi kuni go'yo hech nima bo'lmaganday, ya'ni ertasi kuni hech nima bo'lmaganday hamma narsani unutib yuborish;

I'm offering you the real article – out of the bottom genuine drawer. Men siz uchun *haqiqiy shahzodani* taklif qilaman (har qanday holat uchun ishonchli bo'lgan sodiq inson nazarda tutilgan);

All I ask is, if you're hunting down a homicidal murderer, let me be in at the death – Har qanday holatda yoningda turaman, agar sen qotil bo'lsang, izn ber sen bilan qotillik qilay (Do'sting uchun zahar yut ma'nosida).

Frazeologizmlarning eskpressiv-stilistik xususiyatlari A.Fedorov-ning tadqiqotlarida yoritilgan²¹. Uning fikricha, frazeologizmlar qandaydir yangi holatlarni atash uchun vujudga kelmaydi, balki predmetlarni, tildagi mavjud holatlarni obrazli-emotsional tahlil qilish, aniqlashtirish uchun yaratiladi.

N.S. Valgina, D.E. Rozental va M.I. Fominalar fikriga ko'ra²², frazeologizm deyilganda, ma'no munosabatiga ko'ra bo'linmaydigan iboralar tushuniladi; umumiy ma'nosining turg'unligi, komponentlari, grammatik kategoriyalarning aniqligi ularga xos xususiyatlardan biridir.

Frazeologizmlar muammosi tarjima amaliyoti uchun ham, tarjima nazariyasi uchun ham juda muhim hisoblanadi. Turli tillarda bir xil real qiymatga ega so'zlar turli semantik va stilistik funksiyalarni bajaradi²³. Aytish mumkinki, aynan tarjima jarayonida muayyan tilga oid birikmalarning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. O'rganilayotgan obyekt

²¹ Федоров А.О художественном переводе. Монография: – Ленинград, 1967. – Б.52.

²² Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С. Валгиной. Изд. 6 -е, перераб. и доп. — М.: Логос,— С.213.

²³ Балли Ш. Французская стилистика. 2-е изд., стереотипное. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 392.

va uning toifalari to'g'risida bir-biriga mos keluvchi, bir-birini to'ldiruvchi, shuningdek, bir-birini inkor etuvchi tajribalar va ta'riflar ko'p.

V.Vinogradov tomonidan taklif etilgan rus tilidagi frazeologizmli birliklarning bir vaqtning o'zida alohida mashhurlikka erishgan va keyinchalik boshqa tillarga nisbatan qo'llanilgan tasnifi erkin birikmalardan tashqari, birliklarning uch asosiy turini taqdim etadi²⁴. Komponentlar orasidagi bog'lanishning yaqinligi: frazeologizmli birliklar va shuningdek, frazeologizmli (erkin bo'lmagan, boshqa turg'un) birikmalar.

Tarjimaning boshlang'ich nazariy tushunchalarida tarjima adekvatligi pragmatik adaptatsiyaga bog'liq holda keladi. "Adekvat deganda tili me'yorlariga amal qilgan holda mazmunni o'zgarishsiz bera oladigan tarjima nazarda tutiladi"²⁵.

D.Shveyser esa bu borada quyidagicha fikrni bildiradi: "Adekvatlik real tarjima amaliyotiga tayanadi. Bunda matnning kommunikativ-funksional mazmuni doim ham to'laligicha yetkazib berilmaydi. Bu tarjimon qabul qilgan qaror kelishuvchanlik xarakteriga ega bo'lmaganligi, tarjima qurbonlik keltirishni talab qilishidan kelib chiqadi"²⁶.

A.A.Nasirovning ta'kidlashicha, har bir tilda frazeologizmlarning vazifasi iboralarning, so'z birikmalarining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini o'rganishdan iborat, ular tilni go'zal va bo'yoqdor qiladi²⁷.

A.E.Mamatov ta'kidlaganidek, jahon tilshunosligidagi kabi o'zbek tilshunosligida ham frazeologiya tor va keng ma'noda tushuniladi. Umuman, frazeologizmlarning obrazli ko'chma ma'no anglatishi va tilda

²⁴ Виноградов В.В. Лексикология в лексикография. – М., 1977. – С.37.

²⁵ Бархударов Л.С. Уровни языковой иерархии и перевода. – Тетради переводчика. Вып.6. – М.: ИМО, 1969. – С.9-12.

²⁶ Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С.96.

²⁷ Насиров А. А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги проverbsial frazeologizmlarнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. 2016. – С.32.

oldindan tayyor holda mavjud bo'lishi nuqtayi nazaridan, ularni faqat keng ma'noda tushunish lozim²⁸.

Frazeologiyani tor ma'noda tushunuvchilar *oyog'i sakkiz bo'ldi; o'pkalab qoldi; tarvuzi qo'ltig'idan tushdi; ikki o'n besh bir o'ttiz; o'g'rini qaroqchi urdi* kabi ko'chma ma'noli turg'un idiomatik birikmalarni, frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchilar esa *bola aziz odobi undan aziz; sizdan ugina, bizdan bugina; kulchali kelin suymali kelin* kabi ko'chma ma'noli maqol, matal, aforizmlarni ham frazeologik birlik tarkibida o'rganish lozim, deb hisoblaydilar.

Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchi lingvistlar frazeologiya obyekti sanalgan murakkab ma'noli turg'un iboraning eng quyi chegarasi kamida ikki komponentdan, yuqori chegarasi esa murakkab gaplardan iborat bo'lishini e'tirof etishadi. Ular frazeologik birliklar tarkibiga turg'un va ko'chma ma'noga ega birikmalardan tashqari maqol, aforizmlar tipidagi boshqa birliklarni ham kiritishadi. Sh. Rahmatullayev frazeologiyani tor ma'noda talqin etib, frazeologik ibora bilan maqol, matal, aforizmlar, hikmatli so'zlarning farqli tomonlarini ochib beradi.

Tarjima deganda, ikki tildagi matnning bir-biriga mos kelishinigina tushunmaslik lozim: tarjima qanday usulda amalga oshirilishidan qat'i nazar, o'quvchiga asliyat darajasida estetik ta'sir ko'rsata olishi kerak. Funktsional uyg'unlik tarjima aniqligini belgilashda bosh prinsip bo'lib xizmat qiladi. Tarjimonning asosiy vazifasi esa o'z ona tilidan asliyatga uslubiy va badiiy muqobil variantlarni izlab topishdan iborat. Tarjimon mahorati va uning sezgirligi bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega. "Demak, badiiy asar tarjimasi – san'at asarining o'zi"²⁹ ekan. Bundan kelib chiqadiki, bilvosita tarjima usuli ko'p holatlarda pand beradi, tarjimon aynan asliyat ustida ish olib bormaganligi uchun imkoniyatlari ham chegaralanadi.

Gap shundaki, jahon so'z san'ati durdonalarining bilvosita o'girilishining sababi tarjimonlarning aksari ingliz tilini bilmasliklaridir.

²⁸ Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари //Филол. фанл. докт.дисс. автореф.Тошкент: – 2000. – Б.18

²⁹ Фёдоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. – Л.:СП, 1983. – С.18.

Vositachi til orqali tarjima qilishga tug'ilgan ehtiyoj bora-bora ushbu tarjima usulining juda tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi. Sho'ro davrida chet mamlakatlar adabiyotidan o'girilayotgan asarlarning ko'p qismi faqat rus tili orqali amalga oshirilgan. Asliyat bilan vositachi til orqali bajarilgan tarjimada jiddiy farq bo'lib, ayrim milliy xususiyatlar yo'qotiladi. Ikki tarjima shakli orasidagi asosiy tafovut asliyat muallifi uslubi va milliy ruhiyatini qayta tiklashda ko'rinadi. Vositachi tilning yordamisiz tarjima qiluvchi asliyat ustida ter to'kkanligi tufayli badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini bevosita his qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilvosita tarjima usulidan foydalangan o'zbek tarjimoni asliyat tilidan mutlaqo ajralib, vositachi tilning ifoda shakllariga beriluvchan bo'lib qoladi. Rus tilidagi tarjima jarayonida vujudga kelgan yanglishuvlar ko'p holatlarda o'zbek tilidagi tarjima matnida ham shundayligicha o'tadi. Vositachi tilda ijod qiluvchi tarjimon asl nusxaning muayyan o'rnini ma'lum maqsadni ko'zlab tarjimada qisqartirishi yoki qo'shimcha qilishi natijasida mazmunda chalkashlik yuzaga keladi. Buning oqibatida bilvosita tarjimada asar badiiy yaxlitligini saqlab qolishga urinishda ko'pincha qator muammolarga duch kelinadi.

Asliyatdan bevosita o'girilgan tarjima qoyilmaqom bajariladi. Bu ijod mahsuli benuqson amalga oshirildi, degan xulosa ham kelib chiqmasligi kerak³⁰. Hozirga qadar asliyatdan, ya'ni bevosita o'girilgan xorijiy bir talay adabiyot namunalari matniga nazar tashlasak, ularda boshqa nuqsonlar, ya'ni o'zbek tilini yaxshi bilmaslik, uning leksik boyliklaridan yetarlicha foydalanmaslik, ba'zan hatto tilni buzish hollariga ham duch kelamiz.

Badiiy tarjimaning yuqori saviyada bajarilganligi badiiy adabiyotning o'ziga xos sifatlari bilan belgilanadi. Lekin badiiy tarjimaning asl badiiy adabiyotdan farqi unda filologik tahlil va lisoniy

³⁰ Бархударов Л.С. Уровни языковой иерархии и перевод. – Тетради переводчика. Вып. 6. – М.: ИМО, 1969. – С. 9-12. Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С.96.

uslubiy qiyosning ishtirok etishi bilan belgilanadi. Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani (axborot) egallash, saqlash va benuqson yetkazishdir, lekin o‘z prototipiga ega bo‘lmagan yangi asar yaratishdan iborat emas; tarjimaning maqsadi – har bir xalq va millat urf-odatlaridan kelib chiqqan holda asarni qayta yaratishdir. Tarjima jarayonida bir tilning materiali o‘rnini boshqa til materiali egallaydi, binobarin, tilga aloqador barcha badiiy vositalarni tarjimonning o‘zi, o‘z ona tilida milliylikka tayangan holda, yangidan yaratadi; shunday qilib, til jabhasida tarjima – chinakam asliy ijob demakdir. Barcha san’atlar ichida aktyorning mahorati tarjimaga yaqin turadi. Tarjima qayta yaratishdan iborat, tarjima jarayoni esa ijodiy jarayondir deb tasdiqlash bilan biz me’yoriy ta’riflar beramiz va tarjima qanday bo‘lishi kerakligini aniqlaymiz.

Tarjimon Levii Irji tarjima jarayoni uch bosqichdan iboratligini ta’kidlagan³¹:

1. Asl nusxani idrok etish.
2. Asl nusxa interpretatsiyasi.
3. Asl nusxani qayta ifodalash.

Yaxshi tarjimon dastavval yaxshi o‘quvchi (kitobxon) bo‘lishi lozim. Asarni o‘z tiliga o‘girish maqsadida qo‘lga olgan tarjimonning asl nusxani anglashi uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda matn so‘zma-so‘z, ya’ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro‘y berishi mumkin: noqardosh tildagi bir so‘zni xuddi shunday jaranglaydigan bo‘lak so‘z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; kontekstni noto‘g‘ri o‘zlashtirish, ayrim xos so‘zlarning ma’nosiga tushunib yetmaslik; muallifning muddaosini anglamaslik;

eat smb.'s bread – kimningdir nonini yeb yurish; tarjimon bu iborani boqimanda deb bergan;

the cat among the pigeons – kabutarlar orasidagi mushuk; tarjimada esa bu ibora hamkasblar bilan tortishuv suhbat deb tarjimada berilgan.

³¹ Левый И. Искусство перевода. – М.: Прогресс, 1974. – С. 397.

*Ikkinchi bosqich*da uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. Matnni to'g'ri o'qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham anglaydi, ya'ni kayfiyat, piching yoki fojiaiviy ma'no, ohangdorlik yoxud voqeani quruq bayon qilishga moyillik va hokazo. Haqiqiy kitobxon barcha bu sifatlarni anglab yetishi shart emas, tarjimon esa muallif qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o'qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo'lishni talab qiladi;

Uchinchi bosqich – ayrim til vositalarining uslubiy va ma'no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, muallifning g'oyaviy niyatini anglashga o'tadi. Matnni anglashning bu yo'li ancha murakkab va og'ir – muallif yaratgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lmog'i darkor. Asl nusxani to'laligicha qamrab olish, idrok etish uchun, aytaylik, rejissyordan qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo'lishi zarur.

G'.Salomovning qayd etishicha, “san'atkor-tarjimon bilan noqobil, noshud tarjimon o'rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi asl nusxa bilan tarjima masofasi orasida matn ortidagi xarakterlar, vaziyatlar, g'oyalarning ma'no-mazmunini chaqadi, ikkinchisi bo'lsa, faqat kitob matnining o'zinigina ko'r-ko'rona qabul qiladi va faqat so'zlarni o'giradi xolos”³². Yuqoridagi mushohadadan ma'lumki, tarjimon mahoratini yuksaltirish hamda badiiy iqtidorini tarbiyalash vazifasi kelib chiqadi: “Asl nusxa matnidan – tarjima matniga o'tish”dan iborat muxtasar psixologik jarayondan ancha murakkab, lekin yagona ijodiy mukammal: “Asl nusxa matnidan – tasavvur qilingan voqelik orqali – tarjima matniga o'tish”. Turgan gapki, tarjimonni muxtasar jarayon o'ziga ko'proq rom qiladi, chunki u ancha qulay: voqelikni qayta yaratish esa tarjimondan

³² Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 149–150.

keng tasavvurga ega bo'lishni hamda matn ma'nolari ustida ijodiy mehnat qilishni talab etadi.

Bu, avvalo, xorijiy adabiyotdan bilvosita o'g'irishga qo'l urgan kishilarning aksari chet tili mutaxassisi ekani, ularda badiiy ijod tajribasi, aynan u yoki bu tildan o'g'irish an'analari hali rus tilidan amalga oshirilgan tarjima amaliyoti darajasida shakllanmagani bilan izohlanishi mumkin. Ingliz adabiyotining ko'plab namunalari rus tili orqali tarjima qilinib, o'zbek kitobxonining ma'naviy mulkiga aylandi.

Bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish masalasi o'tgan asrning oltmishinchi yillarida badiiy tarjima muammolari qatorida jiddiy munozara va bahslarga sabab bo'ldi. Tarjima asarlari sifatini yaxshilash borasida olimlar bir qancha tavsiyaviy xarakterdagi takliflarni berishdi, ular orasida bevosita tarjima shaklini oqlab chiquvchilar ham bor edi. Asliyat va tarjima tilidagi birliklarning o'ziga xosliklarini qiyosiy o'rganish va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo'llari va imkoniyatlarini belgilash to'laqonli tarjimalar yaratish uchun zamin hozirlaydi. Ayniqsa, kitobxonning til bilmasligi hamda lingvoetnik bilimlari yetarli emasligiga ahamiyat qaratish lozim, sababi, tavsiya etilayotgan tarjima asarini o'qib baholay olish kitobxondan ham muayyan kompetentlikni taqozo etadi. Agarda boshqa madaniyatga xos tushunchalarni ifodalovchi tarjima asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lsa, ularning lingvoetnik bilimlari o'sishiga yordam beruvchi qo'shimcha izohlar va hatto matnga qo'shimcha ilovalar berish mumkin.

Tadqiqot jarayonida shu narsa aniqlandiki, Agata Kristi asarlari tarjimasi ustida rus va o'zbek tarjimashunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, fan oldida turgan barcha muammolar, xususan, o'zaro noqardosh til sanalgan ingliz va o'zbek tillari orasida frazeologizmlar tarjimasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda muayyan bo'shliq sezilmoqda. Bu, asosan, milliy xos so'zlar (soxta ekvivalentlar) va muallif uslubining tarjimada qayta yaratilishi va bu bilan bog'liq boshqa masalalardir.

Ma'lumki, G'arb tillarida yaratilgan badiiyati yuksak asarlarni bilvosita noqardosh tillarga tarjima qilishda, ikki xil oilaga mansub tillarda so'zlashuvchi xalqlarning bir-birlarining tiliga umuman tushunmasliklariga qaramay, hozirgi ingliz tilining ham, o'zbek tilining ham o'ziga xos qonuniyatlarida mutanosiblik mavjudligi aniqlandi, ularda urf-odatlar yoki hodisalar har xil atalsa-da, tarjimada farqli ma'no kasb etishi mumkinligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

E.Aznaurova "Tarjima san'ati" kitobida quyidagicha umumlashma xulosalar chiqargan: "tadqiqotchilarning bir guruhi mumkin qadar ko'proq tarjimalar berish talab qilingan davr o'tib, hozirgi talab esa iloji boricha yaxshiroq tarjima qilishdan iborat, badiiy tarjima uchun asos qilib olinadigan hatto eng sifatli taglama ham asarning badiiy nafosati va milliy xususiyatlarini aks ettira olmaydi, deya fikr bildiradilar. Boshqa guruh vakillari asarni bevosita asliyat yozilgan tildan o'girish, tarjima jarayonida yuzaga chiqadigan qiyinchiliklarni yengish hamda ushbu tarjima shaklini takomillashtirish uchun tarjimon til biladigan mutaxassis filolog bilan hamkorlikda ijod qilsin, degan taklifni ko'tarib chiqadi. Mana shu takliflarning amaliy isboti sifatida, o'sha paytlardayoq, bilvosita va bevosita tarjima usullari qiyoslanib, ulardan vujudga keladigan yutuq va kamchiliklar inobatga olindi"³³.

Tarjimon va jurnalist S.Siddiq adabiy tarjima masalalariga bag'ishlangan maqolalari va kitobi bilan o'zbek tarjimashunoslik ilmiga keng yo'l ochib berdi. Tarjimon A. Iminov o'sha uzilish yillaridan so'ng ilk bor bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga qator amerikalik yozuvchilarning hikoyalarini tarjima qilib, nashrdan chiqardi³⁴. Bu, fikrimizcha, asliyatdan qilingan har qanday tarjima tahlili obyektiv bo'lishiga kafolat beradi. Chunki bilvosita tildan bajarilgan tarjimada turli transformatsiyalar, ayniqsa, grammatik va stilistik transformatsiyalar amalga oshirilganda, nafaqat so'z, balki gap va unda

³³ Азнаурова Э. Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б.304.

³⁴ Коллинз В. Оқ кийинган аёл: роман / Вилки Коллинз; инглиз тилидан А. Иминов таржимаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – Б. 652.

qo'llangan tinish belgilari ham o'zgarib ketadi. Bu esa, o'z navbatida, ma'noga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Keyinchalik jahon olimlarining tarjima nazariyasi va tarjima tanqidi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari birin-ketin nashrdan chiqdi. Bu esa olimlarning ilmiy izlanishlari ravnaqini belgilab berdi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib jahon filologiya ilmida tarjimashunoslik deb nom olgan mustaqil fan shakllandi³⁵.

O'tgan asrning 80-yillarigacha asarlarning asosiy qismi rus tili orqali o'girib kelingan, o'zbek xalqi G'arb va Sharq adabiyoti namunalari bilan bilvosita tarjimalar soyasida tanishgan bo'lsa, 90-yillardan boshlab bilvosita tarjimaga ko'proq e'tibor berila boshlandi³⁶. Buning sababi o'zbekcha asarni chet tiliga o'giradigan mahalliy mutaxassislarning kamligidir. Agar buni birgina ingliz va o'zbek tillaridan amalga oshirilgan tarjimalar misolida olib qaraydigan bo'lsak, bugungacha o'zbek tiliga o'girilgan ingliz adiblari asarlari mohir tarjimonlar tomonidan amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Buni boshqa tillarga qilingan tarjimalar misolida ham aytish mumkin.

O'zbek tilshunos olimlari A. Mamatov va B. Boltayeva³⁷larning "Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi" nomli monografiyasida frazeologik birliklarning lingvomadaniy, semantik-pragmatik tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxs emotsiyasi va shaxsga xos fazilatlar va xarakterlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv hamda lingvomadaniy, milliy-madaniy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Ushbu monografiyada hozirgi o'zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi tarixiy etimologik jihatdan uch yo'l bilan shakllanishi ko'rsatilib o'tilgan:

1) o'zbek voqeligi asosida shakllangan; *off the beaten path (ili track)* – har bir ishning bir hikmati bor; Hammasi yaxshilikka;

³⁵ Каюмов О., Азизов К. Чет эл адабиёти тарихи. XVII–XX асрлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 6-12; Холбеков М. Чет эл адабиёти классиклари. Қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1993. – Б.20-22.

³⁶ Ҳамидов Х. Тил ва анъаналар. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2014 йил 10-сон.

³⁷ Маматов А., Болтаева. Б. Фразеологик birlikларнинг лингвомаданий ва прагматик тадқиқи. Монография. –Тошкент: 2018.– Б.48.

2) qarindosh va noqarindosh tillardan o‘zlashtirish; *he had accepted Haydock as the genuine article* – Xaydok mehrli insonga o‘xshaydi; *Wars bring scars* – Urush – xunrezlik;

3) kalkalash yo‘li bilan kirib kelgan frazeologizmlar farqlanishi ta’kidlangan³⁸.

Turk tilida frazeologizmlarning yuzaga kelishi, ma’no va grammatik xususiyatlarini tadqiq etgan X.Hamidov³⁹ frazeologizm hamda erkin so‘z birikmasini bir-biridan farqlab, ularni faqat genetik jihatdan o‘xshash birikmalar deb ta’kidlaydi. Har qanday frazeologizm sintaktik sathda bir so‘z birikmasi yoki gapga teng, faqat u oddiy so‘z birikmasi emas, fikrda qayta ishlangan birikmadir.

Badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati milliylik ekan, demak, badiiy tarjimada milliylikni saqlab qolish, boshqacha aytganda, uni qayta yaratish tarjima muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi, bosh omilidir⁴⁰.

O‘zbek tili adabiy aloqalari uzoq davrlarga borib taqalsa-da, bu yo‘nalishdagi keskin miqdor va sifat o‘zgarishlari XX asrdan boshlandi. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek xalq adabiyoti namunalarini bevosita tarjima qilish tobora ommalashib, keyingi yillarda bevosita o‘girishga intilish tamoyili kuchayganligi diqqatga sazovor. Lekin o‘zbek-ingliz tarjimachiligi tarixida bevosita va bilvosita tarjima yetakchi o‘rin egallashini ta’kidlash lozim. Mazkur tadqiqotda ingliz-o‘zbek tarjimalarida frazeologizmlarni qayta yaratish va shu yo‘nalishdagi tarjimachilik taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi asarlarning bilvosita tarjimasi ham ilmiy-nazariy jihatidan o‘rganib chiqilgan.

So‘nggi yillarda tobora rivojlanib borayotgan qiyosiy adabiyotshunoslik fani nuqtayi nazaridan ham tarjimashunoslikka oid ishlarning qimmatini yuqori. Xususan, adabiyotlararo ta’sir masalalarini, o‘zaro adabiy aloqalarning muayyan shakllarini tarjimaning jahon adabiyoti

³⁸ Маматов А., Болтаева. Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва прагматик тадқиқи. Монография. –Тошкент, 2018. –Б.7.

³⁹ Хамидов Х.Х. Турк тилида фразеологизмларнинг юзага келиши, маъно ва грамматик хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2018. –Б.28.

⁴⁰ Умарова М. Тарихий драмада бадий вақт: Шекспир ва Фитрат. – Тошкент, 2013. – Б.129.

doirasidagi o‘rnini belgilash va ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish hozirgi umumjahon adabiy jarayonni o‘rganish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotda xarakter yaratish juda muhim muammolardan biri hisoblanadi. Xuddi shuningdek, muayyan xalq adabiyotida yaratilgan milliy xarakterni boshqa millat tiliga tarjimada qayta tiklashning o‘ziga xos qiyinchiliklari, murakkabliklari, qonuniyatlari mavjud. Shu bois, tarjimada qayta yaratilgan milliy xarakter tarjima qiymatini, tarjimon mahoratini belgilashda asosiy mezon bo‘la oladi. Milliy xarakter tarixiy kategoriyadir. U muayyan xalq taraqqiyotida shakllanib boradi va mazkur xalq diniy e‘tiqodlari, urf-odatlar, rasm-rusumlari – turmushning barcha shart-sharoitlariga yo‘g‘rilgan aniq sifatlar majmuini o‘zida aks ettiradi⁴¹.

Tarjimada milliy xarakter in’ikosini o‘rganish tarjimaning badiiy, g‘oyaviy, uslubiy hamohangligi masalasini o‘rganish ham demakdir. Ma’lumki, ingliz-o‘zbek tarjimalari bir qancha murakkabliklarga ega. Bu murakkabliklar esa asliyatda tasvirlangan davr ruhini, o‘sha davr milliy qadriyatlari va an’analarni ifodalash bilan bog‘liq. Tarjimalar jarayonida har bir so‘zga jiddiy e‘tibor qaratgan holda tarjimalarni o‘rganishga, zarur ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qildik.

Faqat asar tili, uslub, milliy kolorit, yozuvchi konsepsiyasi, shakl va mazmun birligi kabi jihatlarning tarjimada aks ettirilishini yetakchi masalalar sifatida alohida-alohida o‘rganilishi maqsadga muvofiq emas. Buning boisi tarjima tahlilini bunday yo‘nalishda olib borish tadqiqotning yuzaki biryoqlama bo‘lishiga olib keladi. Demak, xarakter kategoriyasi badiiy asarni shu bilan birga, badiiy tarjimani tahlil etishda metodologik ahamiyatga ega. Xuddi shu fikrga tayangan holda olib boriladigan xarakterlar tahlili til, syujet, kompozitsiya tahliliga uyg‘unlashadi. Ayni paytda til va kompozitsiya tahlili xarakterlar tahlili bilan umumlashadi. Xarakterlar tahlili esa asarning umumiy mavzusi hamda g‘oyasi tahlili bilan birga kechadi. Shu nuqtayi nazardan milliy xarakterning

⁴¹ Морозов М.М. Пособие по переводу русской художественной прозы на английский язык. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1956. – С. 9-10.

tarjimadagi in'ikosi masalasini o'rganish tarjimaning asliyatga adabiy, g'oyaviy, uslubiy hamohangligi masalasini ham idrok etish demakdir⁴². Zero, "tarjima imkon qadar original asarga yaqin va to'g'ri bo'lishi kerak... Noto'g'ri tarjima noto'g'ri talqinni yuzaga keltiradi"⁴³.

Milliy xarakter ifodasining teranlik asosidagi serqirraligi uning yaxlitligini, mukammalligini ta'minlaydi. Shu bois, milliy xarakterga tegishli kichik tafsilotning yo'qolishi jiddiy zarar yetkazishi mukammallikni notugallikka aylantirishi mumkin. Milliy bo'yoq badiiy asarning butkul muayyan xususiyati bo'lib, u turli holatda – ko'proq yoki kamroq darajada ifodalanishi mumkin. Milliy bo'yoq aksar hollarda xalq hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari, moddiy ahvolini bevosita aks ettiruvchi obrazlarda yoki idiomatik rang-baranglikda o'z ifodasini topadi, deb yozadi A. Fyodorov⁴⁴.

Albatta, muayyan milliy adabiyotning namunasi sifatida har qanday badiiy asar, avvalo, keng ko'lamdagi milliylik xususiyatiga ega bo'ladi. Binobarin, mazkur xususiyat o'z teranligining kengligini tarjimada ham saqlab qolishi kerak. Asliyatning milliyliги tarjima orqali kitobxonga ham yetkazilishi zarur. Buning uchun tarjimondan asliyatga monand to'g'ri tasavvur hosil qilinadigan matn talab qilinadi. Tarjima – bir tilda yaratilgan asarning o'zga bir xalq ma'naviy ehtiyojiga xizmat qildiradigan, undan badiiy zavq olish uchun imkoniyat yaratib beradigan kommunikativ vositadir. Tarjima matni ham asliyat matniga teng bo'lib, u bilan yaxlit tasavvurni uyg'otishi lozim⁴⁵. Tasavvur badiiy matnning g'oyat muhim tarkibiy qismidir. Binobarin, har bir iste'dodli yozuvchi undan foydalanadi.

⁴² Хўжаев Г. Бадий таржима ва миллий колорит. Мақоллар тўплами, таржима назарияси масалалари. – Тошкент, 1995; Ковшова М.Л. Национально-культурная специфика фразеологических единиц (когнитивный аспект): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М.: 1996. – С.20; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Ўзбекистан Республикаси ФА "Фан" нашриёти 2007. – Б.54.

⁴³ Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. –Тошкент: Академнашр, 2020. – Б.34.

⁴⁴ Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические очерки). –М.: 1968. – Б.94

⁴⁵ Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.16.

G‘.Salomov ta’kidlaganidek, xalqlarning qanday iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitda yashayotganligi, tarixiy-etnografik takomili, madaniyatining qanday an’analar asosida rivojlanganligi – barchasi tarjimada juda katta o‘rin tutadi⁴⁶.

Shu bois, tarjimon asar muallifi mansub xalq hamda shu xalqning urf-odatleri, rasm-rusumlarini yaxshi bilmog‘i lozim. Darhaqiqat, har bir daryoning o‘z o‘zani bo‘lganidek, har bir xalqning bosib o‘tgan o‘z tarixiy yo‘li mavjud, taraqqiyotning har bir bosqichida xalq hayotiga kirib kelgan an’analar, udumlar, urf-odatlar shu xalq milliy xarakterining yangicha xususiyatlar bilan boyishi va shakllanishida ma’lum ma’noda o‘z ta’siriga ega bo‘ladi. Arzimas ko‘ringan detallar qahramon xarakterini ochish, uning milliy xususiyatlarini ko‘rsatishda muhim sanalishi mumkin.

Milliy kolorit va uning tarjima sohasida berilishi tarjimonning bir qancha muammolar to‘qnashuviga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi keltirilgan misollar hamda ushbu misollar orqali tarjimashunoslik sohasi qay tarzda yuksak soha ekanligini berib o‘tish mumkin⁴⁷. Tarjimon biror-bir asarni tarjima qilayotganda, avval asar bilan yaxshilab tanishib chiqishi darkor, so‘ng tarjima qonun-qoidalariga amal qilgan holda tarjimaga kirishishi lozim bo‘ladi. Ushbu tushunchani chuqur o‘rganish, shakllantirish tarjimonning mahoratiga bog‘liq. Tarjimon ushbu tushuncha asosida boshqa millat vakillarining milliy an’analari, urf-odatleri, qadriyatlarini o‘zlashtirishi mumkin Bu esa, o‘z navbatida, tarjimonning qobiliyatiga bog‘liq.

⁴⁶ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.384; Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.244; Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.158; Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.190

⁴⁷ Соипова М. Таржимада миллий ўзига хосликни қайта яратиш. Таржима муаммолари. 2-китоб. – Тошкент, 1991. –Б.72.

1.2-§. Agata Kristi asarlarida milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarning o‘zbekcha tarjimalarda berilishi

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish usullari (kalkalash: to‘liq kalka va yarim kalka, ekvivalent tarjima, transliteratsiya, izohli tarjima) yordamida ikki, uch, to‘rt, besh va ko‘p komponentli frazeologik birliklarning sintaktik-derivatsion xususiyatlarini aniqlashtirish taqozo etiladi.

Zamonaviy tilshunoslik tilni tizim sifatida talqin va tadqiq qiladi. Tilning tizimlilik – til va uning birliklarini o‘rganuvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Tilni idrok etishda uning birliklari, darajasi va tizimining murakkabligi, shuningdek, uning ko‘p qirraligi, muvofiqligi, variativligini ko‘rsatadi. Tilning barcha aspektlarini diskurs ifoda etadi.

Diskurs⁴⁸ (fransuzcha “discour” – “nutq”) – keng ma’noda matn tushunish uchun zarur bo‘lgan til amaliyoti va ekstralingvistik omillar (xulq, idrok qilish uchun shakllar)ni murakkab birlik sifatida kommunikatsiya ishtirokchilarini, ularning til qurilmalarini maqsadlardan kelib chiqqan holda, xabarlarini qayta ishlashni anglatadi. Diskurs an’anaviy tarzda alohida subyektning yozma yoki nutqiy axborotini tartibga keltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy tadqiqotchilar diskursga murakkab hodisa sifatida qarashadi. Ba’zi tillarda diskurs tushunchasi amaliyotga kiritilmaganligi sababli, unga til amaliyoti sifatida qaraladi. Diskurs tushunchasining keng qamrovli tadqiqi hozirda uning og‘zaki va yozma nutqdagi xususiyatining kengaygani va matn qurilishi sifatida qaralayotganini ko‘rsatmoqda. Lisoniy diskurs – tilning barqaror fonetik, fonologik komponentlarini o‘zlashtirish usulidir. Bunda lisoniy layoqat diskursning asosiy mezonini bo‘lib qoladi. Diskursni tavsiflashda ijtimoiy me’yor tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

48

<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B8%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%80%D1%81>

Tarjima – bu ikki til qiyosiy stilistikasidir⁴⁹. Milliy adabiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini tezlashtiradi; milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy g‘oyalar, rang-barang adabiy-estetik shakllarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Uning vazifasi – o‘z tilida originalning stilistik sur’atini qayta yaratishdan iborat⁵⁰.

Bevosita tarjima – bir tildagi asarning ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri asliyatdan o‘girilishi. Bu eng to‘g‘ri va maqbul yo‘l bo‘lsa-da, barcha tillardan bevosita tarjima qilish imkoniyati hamisha ham mavjud emas. Shuning uchun vositachi til xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Bilvosita tarjima – bir tildagi asarni ikkinchi tilga vositachi til orqali tarjima qilish. Masalan, mustaqillikka qadar G‘arb adabiyoti namunalari o‘zbek tiliga deyarli ularning rus tilidagi tarjimalari orqali tarjima qilib kelindi. Istiqlol davrida bu nomaqbul yo‘ldan sekin-asta voz kechilib, Sharq va G‘arb tillaridan bevosita tarjima qilish an’anasi qaror topmoqda. Buning natijasida muallifning o‘ziga xos mahorati, asarning jozibasini, ichki ruhi saqlanadi.

Mohiyatan badiiy tarjima ijodiy yondashuvni taqozo etadi. Asliyatga ijodiy munosabatda bo‘lmay turib, unga muvofiq tarjima yaratib bo‘lmaydi. Ijodiy tarjima orqali o‘quvchiga manzur bo‘ladigan so‘z san’ati durdonasi yaratiladi. Bu o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, unda asosan uch hodisa kuzatiladi:

- a) o‘zga til ishtiroki;
- b) o‘z element ishtiroki;
- d) o‘zga til elementi ishtiroki.

Birinchi hodisaning mohiyati kalkalanuvchi materialning o‘z tili emas, o‘zga tilniki ekanligidir. Ikkinchi hodisa o‘zga materialning o‘z qatlami imkoniyati asosida kalkalashdir. Uchinchi hodisa o‘zga materialning o‘zga til so‘zlari bilan berilishidir. Yarim kalka esa so‘z va iboralarning yarmini tarjima tilida yarmini asliyat tilida berilishiga

⁴⁹ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. (Ҳамидов Ҳ. қайта нашри) ТДШИ, 2015. – Б.165

⁵⁰ Фафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Тошкент: Тафаккур Бўстони, 2012. – Б.216.

aytiladi. Masalan: inglizcha Dear Tony Marston, o‘zbekchada hurmatli Toni Marston.

Tarjimon J.Sharipov “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar” kitobida quyidagi fikrlarni bergan: Ayrim arxaik so‘zlar zamonaviy ma’nodoshiga qaraganda ma’noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, yo‘qsil – kambag‘al arxaik so‘zlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, “hech narsaga ega emaslik” ma’nosi yo‘qsil leksemasida kambag‘al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so‘zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganida anglanadigan yo‘q-kam so‘zlari qiyoslansa, birinchisida ayni belgining nol darajada ekanligi seziladi. Arxaik so‘zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham uslubiy vosita sifatida ishlatiladi⁵¹.

Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida yashayotgan juda ko‘p xalqlarning tillarida yaratilayotgan badiiy asarlarni o‘z ona tilimizda o‘qish imkoniyati yuzaga keldi. Endilikda o‘zbek kitobxoni Vilyam Shekspir, Onore de Balzak, Agata Kristi, Fenimor Kuper va Vashington Irving asarlarini birday sevib o‘qimoqda⁵².

Jahon adabiyoti bilan ham o‘zbek adabiyotning aloqalari rang-barangdir. Ularning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘zbek adabiyoti ham mazmunan, ham mundarija e’tibori bilan o‘sib, yuksalib bormoqda. Adabiyotimizga yangi mavzular, yangi janrlar, yangi usul va formalar kirib keldi. O‘z-o‘zidan ravshanki, jahon adabiyotining juda ko‘p

⁵¹ Шарипов Ж. Бадий таржималар ва мохир таржимонлар. Тошкент: Фан, 1972. – Б.68

⁵² Виллиам Шекспирнинг (Stratford-upon-Avon 1564 й. – инглиз драматурги, шоир ва актёр) “Генрих VIII” (1613), “Бир қатим нур”, “Жанжалкашнинг қуйилиши”, “Лукреция” (1594), “Ромео ва Жульетта” (1595), “Йўқ жойдан чиққан ғавғо” (1598), “Ўн иккинчи кеча” (1600), “Юлий Цезарь” (1599), “Ҳамлет” (1601), “Отелло” (1604), “Қирол Лир” (1605), “Макбет” (1606), “Антоний ва Клеопатра”, “Кориолан” (1607), “Қиш эртаги” (1611) ва “Бўрон” (1612) асарлари; Фенимор Купер (1789 йили Нью-Йорк штатида туғилган, саргузашт романлар устаси, романтизм намояндаси) “Чингачгук фожеаси”, “Жун пайпок”, “Жосус” (1821), “Лоцман” (1823), “Пионерлар” (1823), “Бостон қамали” (1825), “Сўнгги Могикан” (1826), “Мард” (1831), “Гейденмауэр” (1832), “Жаллод” (1833) асарлари; Вашингтон Ирвинг (1783 йилда Нью-Йоркда туғилган. Юмористик новеллалар, очерклар муаллифи) “Рип Ван Винкль”, “Арвоҳ куёв”, “Уйку водийси ҳақида афсона” (1819 й.) “Чизгилар китоби”, “Шайтон ва Том Уокер”, “Хазина изловчилар” асарлари.

asarlarini biz bundan qirq-ellik yil muqaddam tarjima qilolmagan, basharti tarjima qilsak ham, bu san'at asarlarini, ehtimol, o'sha davr avlodi qabul qilolmas, hazm etolmasligi mumkin edi. Masalan, Agata Kristining detektiv roman va hikoyalar to'plami ilk bor 80-yillardagina bilvosita Hasanboy Teshaboyev tomonidan o'zbek tiliga o'girildi.

Katta muvaffaqiyat bilan yaratilgan mazkur detektiv asarlarning 80-yillardagi tarjimasi sidirg'asiga nasrga ko'chgan, unda ko'pgina qo'pol lug'aviy qusurlar, noto'g'ri talqin qilingan voqea-hodisalar ko'p. Albatta, bu eski tarjimani hozirgi mavjud Izzat Ahmedov tarjimasi bilan hech qanday qiyos qilib bo'lmaydi⁵³.

Agata Kristining o'zi ham "O'nta negr bolasi" asarini eng yaxshi asar deya e'tirof etgan. Adiba detektiv qissalari bilan ingliz adabiyotida klassiklar qatoridan o'rin olgan bo'lib, "Puarro tergov qiladi" (The A.B.C. Murders, 1926), "O'nta negr bolasi" (And After There Were None, 1939), "Shohida (Guvoh)" (The Witness for the Prosecution, 1925) kabi asarlar uning qalamiga mansub, ularda asosan, burjua tuzumidagi ayollar taqdiri qalamga olingan.

Faqat o'zbeklardagina emas, balki jahon tarjimachiligi tarixida ham yuksak san'at asarlarini turli tillarga o'girishda muammolar ko'p uchrab turadi. Hatto, hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlar (masalan: Angliya, Amerika, Germaniya, Fransiya)da bu batamom me'yoriy holat hisoblanadi. Noqardosh xalqlar asarlaridan muayyan bir so'zni o'zbek tilida faraz qilaylik, o'zimizning 10 ta so'zimiz bilan ma'noga xalal yetmaydigan qilib ifoda etish mumkin bo'lgan joyda chinakam tarjimon ular orasidan eng maqsadga muvofiq'ini, eng muqobilini topadi⁵⁴.

O'quvchi detektiv asarni o'qiganda, tarjima variantining mazmun-mohiyatiga nisbatan putur yetishi, ya'ni "qurbon berish" muqarrar, degan fikrga ishora qilinayotganini payqab turibdi. Xuddi shu sababli, ba'zi iste'dodli mutarjimlar ham asl nusxa (original)ni "qurbon berish"ga jur'at

⁵³ Агата Кристи. Ўнта негр боласи (Рус тилидан Иzzат Ахмедов таржимаси). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.98

⁵⁴ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш (Х.Ҳамидов қайта нашри). ТДШИ., 2015. – Б.165.

qilolmay, uning badiiy mazmunini iboralar bilan ifoda etishni afzal bilganlar.

one's pet aversion.... – hammaning o'z yo'li bor (bu iborada uy hayvonlaridan nafratlanish ma'nosi berilgan);

off the beaten path – hamma narsa bo'lishi mumkin (yo'l bo'ylab yurish);

a bit of goods (Nasty bit of goods, Mr. Ellsworthy, he remarked) – yomon xulq (bir oz yaxshi).

Har bir davrning o'z xususiyati, har bir avlodning o'z talabi, har bir ijodkorning o'z e'tiqodi bor.

“O'nta negr bolasi” asarining 80-yillardagi o'zbekcha tarjimasi betakror va asl inglizcha originaliga nisbatan, shubhasiz, katta “yo'qotish” bo'lsa, Izzat Ahmedov qalamiga mansub so'nggi detektiv adekvat tarjimasiga nisbatan ham xiyla sifatsizdir. Lekin hamma gap shundaki, buyuk ingliz dramaturgining qudratli ovozi ilk bor bizga yetkazgan birinchi vosita – tragediyaning o'sha tarjimasi bo'ldi. Bu – Agata Kristi dahosi olamiga jur'at bilan qo'yilgan birinchi dadil qadam edi. Ajab emaski, o'zbek tilidagi o'sha “ibtidosi” bo'lmaganda, hozir tilimizda yuksak she'riy nafosat bilan jaranglayotgan mazmunli tarjimasining kirib kelishi ham qiyin bo'lardi.

Yillar davomida “O'nta negr bolasi” detektiv romanining sarlavhasi bir necha marotaba o'zgartirilgan bo'lsa-da, lekin bizga yetib kelgan tarjima hali-hanuz o'sha “O'nta negr bolasi” nomi bilan kitobxonlarga yetib bormoqda. “*Ten little neggers*” – “*O'nta kichkina negrchalar*” deb emas, balki “O'nta negr bolasi” tarzida bilvosita tarjima qilindi.

Roman Agata Kristining dunyo bo'ylab eng ko'p sotilgan asari hisoblanadi. Ko'pincha u asl nomida emas, balki “Hech kim tirik qolmadi” sarlavhasi bilan chop etiladi.

2020-yilda A. Kristining “O'nta negr bolasi” romanining nomi “Ular o'n nafar edi” tarzida o'zgartirildi, chunki haqorat sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan so'zlardan foydalanish man etilib, kelajakda asar nomi butun dunyo bo'ylab o'zgartiriladi. Romanning dastlabki nomi AQSHda hech qachon ishlatilmagan, Buyuk Britaniyada 1980-yillarda

uni qabul qilishmagan. Endi biz asar nomini butun dunyo miqyosida o'zgartirmoqdamiz. Hatto bitta odam o'zini kamsitilgan hisoblasa ham, bu ortiqchalik qiladi", deya izoh bergan edi Prichard.

Livre de Poche nashriyoti bosh ijrochi direktori Beatris Dyuval RTL bergan intervyusida Fransiya hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan haqoratli deb topilgan Kristi romanini eski nomi bilan nashr etgan dunyodagi eng so'nggi mamlakatlardan biri, chunki u hali ham 1940-yillarning tarjimasini ma'qul ko'rmoqda. "Bu faqat roman nomini o'zgartirish bilan bog'liq emas, balki butun tarjimani, kitobning mazmunini yangi nomga mos ravishda o'zgartirish kerak edi", deya ta'kidlaydi Dyuval⁵⁵.

Detektiv asar sarlavhasi tarjima qilinayotganda, ikki barobar ko'proq ziyrak bo'lish, bunda birinchi navbatda asar mazmunidan kelib chiqib, undan keyin asl nomning mag'zini yaxshilab "chaqib", tarjima jarayonida kitobxonning ta'bi, zavqi va e'tiborini ham hisobga olgan holda ish tutish kerak bo'ladi. Har qanday badiiy asar shakl va mazmunning ajralmas birligidan iborat ekan, tarjimada ham bu yaxlitlikni saqlab qolish talab etiladi.

Ingliz adabiyoti, birinchi navbatda, uning "yengil kavaleriya"si bo'lmish novellachilik juda tez sur'atlarda takomillashib bordi. Chunki u yangicha, G'arb davlatlari erkin, shu bilan birga, o'ta shafqatsiz hayot tarzini aks ettirar edi. Ingliz tilida gaplashuvchi xalqlar hayotidagi yangicha, dunyoning boshqa hech qayerida uchramaydigan yangiliklar xuddi o'shanday yangicha Yevropa adabiyotining yaralishiga zamin bo'ldi.

O'zbek tilida "Puarro tergov qiladi" asarining ikki tarjimasi o'rtasida o'tgan vaqt chorak asrni tashkil etdi. Lekin, shunisi qiziqki, hozirgi mavjud tarjima chorak asr o'tgandan keyin ham "o'z kuchi"da qoladimi yoki yo'qmi?

I.Ahmedov birinchi "tarjima to'sig'i"ni bartaraf eta oldi: U – Agatani, ya'ni ijodkor – ijodkorni to'g'ri tushundi. Tarjimon tragediyani

⁵⁵ <https://yuz.uz/uz/news/agata-kristining-onta-negr-bolasi-romanining-nomi-ular-on-nafar-edi-deb-ozgartirildi>.

asliga monand tarzda qayta tikladi. Lekin H. Teshaboyev “til to‘sig‘i”ni bosib o‘tolmadi, boshqacha aytganda, asarini u asl inglizchasidan emas, balki uning rus tilida mavjud tarjimasidan o‘girdi⁵⁶.

Tarjimaning madaniy-etnografik konsepsiyasiga ko‘ra tillar emas, madaniyatlar tarjima qilinadi. Tarjima matnida til va madaniyat o‘zaro ta‘siriga xos spetsifik xususiyati “olam manzarasi”ning xilma-xilligida namoyon bo‘ladi. Badiiy tarjima muammolari nuqtayi nazaridan lingvistika va adabiyotshunoslik tarjimasini masalalari nihoyatda muhim sanaladi. Lingvistik yo‘nalishda asliyat va tarjima matnining leksik, grammatik jihatlarini tadqiq etishda ekvivalentlik mezonlari hamda tarjimaning samarali usullarini qidirib topish muhim ahamiyat kasb etadiki, bunda badiiy asar tarjimasini misolida adabiyotshunoslik yondashuvi va estetik bahosisiz lingvistik tahlilni amalga oshirib bo‘lmasligi asoslandi.

Badiiy matnning g‘oya va mazmuni real subyektiv (shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan) holatda tushunish asosida tarjimada adekvatlik me‘yoriga erishishda matn mazmun-mohiyatini ochib berishda yo‘l qo‘yiladigan xatolari ko‘p tomonlama xarakterga ega bo‘lgan tarjimaning substitutiv-transformatsion mezonini asliyat bilan muvofiq kelishga yoki uning tarjimada kommunikativ natijaga erishishini baholashga yo‘naltirilgan faoliyat turi sifatida tushunilishi nazarda tutiladi. Tarjima xatolari tasnifi tarjimonning asliyat matnini tushunish darajasiga ko‘ra yo‘l qo‘yilgan lisoniy xatolar (leksik, grammatik, stilistik daraja) va tarjima mezonini (semantik va kognitiv daraja) xatolariga bo‘linadi.

Ye.I.Belyakova tarjimadagi eng qiyin tarjima bu birikmalarni tarjima qilishdir. So‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar va gaplar tarjimasida so‘zma-so‘z tarjimini qo‘llab bo‘lmaydi, ular matnning umumiy ma‘nosini o‘zgartiradi, deb hisoblaydi⁵⁷. R.Vora esa ba‘zi frazeologizmlarni ikkinchi tilga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi,

⁵⁶ Агата Кристи. Ўнта негр боласи: роман (Рус тилидан Р. Жабборов ва И. Аҳмедов таржималари). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

⁵⁷ Белякова Е.И. Translation from English: Переводим с английского/ Материалы для семинарских и практических занятий по теории и практики перевода. – СПб.:КАРО,2003. –С.160.

ammo ba'zilarining ma'nolari so'zma-so'z tarjimada to'g'ri kelishini aytib o'tadi⁵⁸.

Tarjima nazariyasi, maktablari, yo'nalishlarining barchasi bir butun tarjima tushunchasini anglatadi. Ba'zi tilshunos olimlar "tarjima nazariyasini amaliy lingvistikaning tarkibiy qismi deb hisoblasa, boshqalar uning fanlararo bog'liqligiga urg'u beradi"⁵⁹. Tarjimashunos olimlar tarjima nazariyasini umumiy tilshunoslik stilistika, grammatika, leksikologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, germenevtika kabi yo'nalishlar bilan qiyosiy o'rganadilar⁶⁰.

"Puaro tergov qiladi" hikoyalar to'plamini «o'zbekcha sayratish» bizda hamon kun tartibidagi muammo bo'lib turibdi. (Boltiqbo'yi va Kavkazorti mamlakatlarida – latishlar, ozarbayjonlar, gruzin va armanlar bu muammoni allaqachon hal qilganlar) [PT,2016]. Umumiy tarjimachilikning bir qismi bo'lgan xorijiy adabiyotlar, jumladan, ingliz adabiyotidan o'zbekchaga tarjima qilish ishining o'ziga xos mushtarak xususiyatlari bilan birga, o'ziga xos "injiqliklari" ham bor. Chunonchi, til badiiy tarjimaning asosiy qurolidir. Ikkinchi tilni bilmay turib, umumiy ijod qilish: roman, doston, drama yozish mumkin. Ammo til bilmay turib, tarjima qilib bo'lmaydi. Aksincha, til bilgan har qanday odam ham tarjima qila olmasligi mumkin. Buning uchun tarjimon ijod qilish, ta'bir joiz bo'lsa, "tarjima qilish" qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Hozircha G'arbiy Yevropa tillarida yaratilgan badiiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish masalasi xorijiy tillardan emas, balki rus tilidan tarjima qilish ishining tarkibiy qismi bo'lib keldi. Biroq tarjima amaliyotidagi mavjud ahvol "biz xohlagan"dan ko'ra tubdan farq qilar

⁵⁸ Bopa P. Some lexical, grammatical and functional features of phraseological units in English and Albanian// International conference on linguistics, Literature and Culture. – Kolegji, 2016. –P. 346-347.

⁵⁹ Беньямин В. Учение о подоби. Медиаэстетические произведения. – М.: РГГУ, 2012. –С.88; Anthony Pym, Philosophy and Translation // A companion to translation studies, Clevedon-Buffalo-Toronto, 2007. – P.24; Автамонов Я.И. Символика растений в великорусских песнях // Журнал Министерства народного просвещения. – Спб., 1902. – Ч. 344. – Ноябрь-декабрь. – С.79 –103; Рябова М.Э. Философские основы перевода. <https://study-english.info/article033>.

⁶⁰ Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. – М.: Воениздат, 1980. – С.58–60.

ekan, bu hozirgacha milliy adabiyotlar o'rtasida badiiy asarlar ayirboshlash, boshqa xalqlarning buyuk daholari yaratgan san'at obidalaridan xalqimizni bahramand qilish, milliy madaniyatlar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish va ularning bir-biriga ta'sir etishi jarayoniga jiddiy xalal bera olgan emas.

Ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarni o'rganish o'zbek adabiyotining umumjahon adabiyoti bilan o'rnatgan aloqasining umumiy zanjiridagi bir halqadir. Bu tarjimalarning tarixini o'rganish esa o'zbek adabiyoti tarixining butun bir davri va katta bir sohani yoritish demakdir⁶¹.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davr ingliz adabiyoti namoyandalari va ular yaratgan asarlarning nomlari bilan o'zbek kitobxonlari ilk bor 1947-yillardan tanisha boshlaydilar. 1960-yili "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 3-sonida "G'arb adabiyotining taqdiri" deb nomlangan maqola e'lon qilinadi. Unda muallif Agata Kristi haqida ancha keng ma'lumot beradi va ba'zi asarlarining nomlarini keltiradi. 1975-yili tarjimon va tarjimashunoslarning Moris Torez nomidagi Moskva chet tillar institutida "Tarjima nazariyasi va tarjimonlar tayyorlashning ilmiy asoslari" nomi bilan o'tkazilgan konferensiyasida M.L. Gasparov o'zining "So'zma-so'z tarjima va to'laqonlilik darajasi"⁶² deb atalgan ma'ruzasida amaliy faoliyatning ayni turini puch va samarasiz deb baholab, uning badiiy yodgorlik shakl va mazmunining dialektik birligi va butunligini qayta yaratib berishga o'z ekanligini amaliy dalillar zaminida ilmiy asoslab berdi.

2009-yilda bir qancha yevropalik yozuvchilarning hikoyalari bilvosita ingliz tilidan o'zbekchaga o'girildi. Bu A.Kristining "O'rmondagi sirli qotillik" hikoyasi bilan nomlangan to'plamidir. Hikoyalarni ingliz tilidan bilvosita Rustam Jabborov, Izzat Ahmedovlar tarjima qilganlar, to'plamga adibaning yettita hikoyasi kirgan.

⁶¹ Хамроев Н. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадий таржима. Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Тошкент. 1982. – Б.158.

⁶² Гаспаров М.Л. Подстрочники меры точности. Теория перевода и научные основы подготовки переводчиков. – М., 1975. – Б.68.

Shunday qilib, ingliz va o'zbek adabiyoti aloqalarining uchinchi davrida badiiy tarjimalar ko'lami benihoya kengaydi. Tarjimonlar asarning yuksak jozibasini saqlashda o'zbek tilining katta leksik-stilistik imkoniyatlaridan unumli foydalana boshlashdi. Endi tarjimada obrazlar xarakterini to'g'ri berish va obrazlilikka alohida e'tibor beriladigan bo'ldi. Eng muhimi, asta-sekin ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar paydo bo'la boshladi.

80-yillar ichida o'zbek ziyolilari Agata Kristi asarlarining nomlari bilan tanishsa, 90-yillarga kelib uning jahon adabiyotiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan detektiv asarlarini o'z ona tilida o'qishga musharraf bo'ldilar. 1994-yilda «Kaminlar siri» tragediyasi o'zbek tilida bosilib chiqadi. Asar rus tilidan bilvosita tarjima qilingan bo'lib, nasriy yo'lga o'tkazilgan edi.

Tragediyaning ilk o'zbekcha tarjimasiga uning 1994-yili Hasanboy Teshaboyev tomonidan qilingan ruscha nasriy o'girmasi asos qilib olingan edi. Lekin tarjima qizg'in munozalarga sabab bo'ldi. O'zbek adabiyotshunoslari tomonidan jiddiy tanqidga uchraydi. Shunday bo'lsa-da, hamma jiddiy va juz'iy kamchilik va nuqsonlaridan qat'i nazar "O'nta negr bolasi" romanining 1980-yilgi bilvosita tarjimasi o'zbek xalqiga ulug' ingliz detektiv qirolichasi Agata Kristini yetkazgan qudratli vosita bo'ldi.

Asarning g'oyasi, badiiy jilolari, obrazlar xususiyati, milliy o'ziga xoslik bu tarjimalarida ancha to'liq berilgan. To'g'ri, ularda ishlatilgan ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek tilining faol lug'atidan chiqib ketgan. Masalan, "respublika" ma'nosini ifodalovchi "jumhuriyat" so'zi hozir eskirgan. "Ofitser"ning "to'ra" deb ishlatilishi ham maqsadga muvofiq emas. Umuman, ingliz adabiyotidan qilingan barcha tarjimalar orasida "O'nta negr bolasi" romanining tarjimasi 90-yillar sharoitida ancha mukammal sanalgan.

Agata Kristi juda ko'p detektiv romanlar muallifidir, yozuvchi Angliyadagi mavjud illatlardan nafratlanadi, "Kaminlar siri", "O'nta negr bolasi", "Puarro tergov qiladi" kabi badiiy va g'oyaviy yuksak asarlar ham ana shu talantli yozuvchining qalamiga mansub. A. Kristining "O'nta

negr bolasi” detektiv romani birinchi to‘liq kitob tarzida 1939-yil 6-noyabr Londondagi “Kolins Kraim klab” (Colins Crime Club) nashriyotida avvaliga “O‘n kichkina negrlar (Ten little niggers)” nomida nashr etildi ⁶³.

Ingliz-o‘zbek adabiy aloqalari tarixida 80-yillar tarjimachiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu davrda ingliz va Yevropa adabiyoti namunalari, yuqorida ko‘rilganidek, qardosh tillardan emas, balki noqardosh tillardan tarjima qilinadigan bo‘ldi. Askariyat hollarda asarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilish mayli sezilib turadi. O‘sha davr adabiy hayotida e‘tiborga loyiq jihatlardan biri sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, endi tarjimalarni tahlil qiladigan, ularning yuqori sifatli bo‘lishini talab etadigan maxsus adabiy-tanqidiy maqolalar yuzaga keldi (A‘zam Ayyub, Hasanboy Teshaboyev, Izzat Ahmedov, Sotti Xusayn, Nazr To‘raqulov va b.). Tarjimashunoslik sohasida dastlabki nazariy tadqiqotlar yaratildi (G‘.Salomov, J.Sharipov, N.Komilov, Q.Musayev va b.). Lekin bu davrda ham hali ruscha mukammal lug‘atlar yaratilmagan va bu holat tarjimalarning sifatiga yomon ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Garchi muayyan kitob uning qaysi yilgi ruscha nashridan tarjima qilinganligi hali ham ko‘rsatilmasa-da, endi asarlarda tarjimonning nomi qayd etiladigan bo‘ldi.

“Puarro tergov qiladi” hikoyalar to‘plami va “O‘nta negr bolasi” detektiv romanining tarjimalari maydonga kelishi bilan ingliz-o‘zbek adabiy tarjimachiligida uchinchi davr boshlandi. 2013-yili “Puarro tergov qiladi” va “O‘nta negr bolasi” ikkinchi marta Izzat Ahmedov va Rustam Jabborovlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi⁶⁴. Tarjimaning tur va xillari ko‘p. Ular orasida badiiy tarjima o‘zining qiyinligi, talablarining murakkabligi bilan alohida ajralib turadi. Badiiy tarjimada mutarjim muallif bilan huquq talashar darajada maqomga ega bo‘ladi. Ma’lum bo‘ladiki, shakl va mazmun birligi badiiylikning zaruriy sharti, badiiy asar yaxlitligi, mukammalligining qat’iy talabidir. Chunki fikr o‘z qolipi

⁶³ Review of Ten Little Niggers. The Observer. 5 November 1939. – P.268

⁶⁴ Кристи Агата. Ўнта негр боласи; Булбул ошёни. . (Иzzат Ахмедов, Рустам Жабборов таржимаси). –Тошкент: «Янги аср авлоди», –2016. – Б.168.

bilan fikr. Qolip o‘zgarishi natijasida fikrda ham ozmi-ko‘pmi o‘zgarish yuz berishi tabiiy.

Bu davrda Agata Kristining bir qancha asarlari “Nilli ko‘zaning siri”, “O‘g‘irlangan million dollar”, “Bulbul oshyoni”, “Sharqiy ekspressdagi qotillik”, bilvosita o‘zbek tiliga o‘girildi.

O‘tkir Hoshimov “O‘nta negr bolasi” romani haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Dunyoda yomon odamlar bor. Ammo bu – butun insoniyat yomon degan gap emas. Insoniyat orol emas, qit’a bo‘lib yashashi kerak. Agar dengiz qit’aning bir bo‘lagini o‘pirib olsa, narigi bo‘lagiga ham zil ketadi. Negaki, bir bo‘lagidan judo bo‘lganini biladi. Birovning to‘yi boshqa birovning to‘yi, birovning azasi – boshqa birovning ham azasi bo‘ladi”⁶⁵.

Ingliz-o‘zbek tarjimachiligining uchinchi davrida “Puarro tergov qiladi” o‘zbek tilida nashr qilindi. Undan tashqari, A.Kristining “O‘g‘irlangan million dollar”, “Shohida”, “Ibodatxonadagi qotillik” asari va boshqa kichik adabiy janrda yozilgan bir qancha asarlar o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilindi. “O‘g‘irlangan million dollar” asari tarjimasi uch marta nashr etildi⁶⁶.

“O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyalar to‘plamidagi bilvosita tarjimalarda yo‘l qo‘yilgan nuqsonlar Q. Mirmuhamedov, I. Ahmedov, R. Jabborovlar tomonidan kitobning 2016-yilgi nashrida tuzatildi. Bu tuzatishlar aksariyat tilimiz lug‘atida shu o‘tgan davr ichida yuz bergan sifat o‘zgarishlari hamda tarjima muammosiga qarashning birmuncha o‘zgarganligi bilan ham izohlanadi.

Xalqimiz ingliz tilidagi adabiyot namunalari bilan tanisha boshlaganiga 130 yil to‘ldi, ammo tarjimachilik asosan 1945-1960-yillardan boshlab jadal rivojlandi. Mamlakatimizda tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidiga doir ko‘plab maqola, monografiya va darsliklar bosilib chiqdi. Tarjima nazariyasi va amaliyotida o‘zbek, rus va boshqa mamlakat tadqiqotchilarining bilim va tajribalari umumlashtirilib, olib

⁶⁵ Хошимов Ў. “Ўнта негр боласи” (тақриз) ёхуд инсонийликсиз инсон..., 2019.– Б.9

⁶⁶ Кристи Агата.Ўғирланган миллион доллар, Изкувар Пуаро, Ўрмондаги сирли қотиллик. (Издат Аҳмедов, Рустам Жабборов таржимаси)–Тошкент: «Янги асп авлоди», –2017. – Б.54

borilayotgan ilmiy ishlarda yangi qarashlar bayon qilinmoqda. Ammo tarjimachilikda hali yetarli darajada o'rganilmagan, yutuq va kamchiliklari obyektiv tarzda ochib berilmagan, davr taqozosi bilan turli munozaralarga sabab bo'lgan bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga dadil o'tish masalasi borasida ilmiy jihatdan to'ldirilishi lozim bo'lgan joylar talaygina ekanligi ko'rinib turibdi⁶⁷.

O'tgan davr tarjimachiligida rus tili asosiy vosita bo'lgan edi shu bois bir jahon adabiyotining sara durdonalari bilan o'z vaqtida tanishish imkoniyatiga ega bo'lgandik. Bular hisobga olinsa, bilvosita tarjima ham o'z vaqtida yaxshi xizmat qilganini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

E.Dolye XVI asrdayoq tarjimon asliyat matnidagi so'zlarni emas, balki matnni tushunish asosida tarjima qilishi kerakligini ta'kidlab, tarjima nazariyasida bahsli masalani ko'taradi va tarjimada so'zma-so'zlikdan voz kechish an'anasini taklif etadi. Muqaddas kitoblarning matnlarini tarjima qilishda tarjimonga so'zma-so'z tarjima qilishga ruxsat berilgan, biroq qo'shimchalar kiritish gunoh sanalgan. Shuning uchun ham diniy xarakterdagi matnlarning tarjimasida tarjima me'yori va an'anasi keskin farq qiladi. Zero, tashqi ta'sir ichki tuzilishga mos kelganda, o'zaro faollashib ijobiy ta'sirni kuchaytiradi, ya'ni insonda yangicha dunyoqarashni voqelantiruvchi sinergetik ta'sirni yuzaga chiqaradi. Tarjimaning sinergetik o'ziga xosligi matndagi axborot ta'sirida va matndan tashqari implitsit axborotning ta'sirida o'z-o'zini rivojlantirishi va tashkil etishi bilan bog'liq⁶⁸. Bu jarayon tarjima maydonining barcha jabhalarini qamrab oladi. Frazеologizmlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish g'oyasi V.N. Teliyaga tegishli⁶⁹. V.N.Teliya maktabi rus va xorij tilshunosligida frazeologizmlarni

⁶⁷ Маматов А.Э. Провербал фразеологизмларнинг француз тилидан ўзбек тилига таржима қилиниш усуллари. Таржиманинг лингвокогнитив, коммуникатив-прагматик ва лингвокультурологик аспекти. Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. –Б.9–12.

⁶⁸ Кушнина Л.В. Зарубежная филология// Вестник Пермского университета, 2011. – С.3.

⁶⁹ Телия В.Н. Русская Фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. –С. 288.

lingvomadaniy tahlil qilish bilan tanilgan. Shuningdek, “frazeologizmda aynan madaniy semantika (madaniy konnotatsiya)ning mavjudligi iboraning jonli tilda uzoq yashashi”ni ta’minlashini ta’kidlaydi⁷⁰.

F.F. Usmanov talqinicha, til to’lig’icha subyektiv antroposentrik xarakterga ega, zamonaviy tilshunoslikda insonga til hamda madaniyat subyekti sifatida qaraladi. Olamning kognitiv, lisoniy hamda milliy lisoniy manzarasini tavsiflashda lingvomadaniyatshunoslikning o’rni ahamiyatli⁷¹.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri til birliklarining madaniy konnotatsiyasidir. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko’rsatkichini ifodalaydi. Milliy-madaniy konnotatsiyaning tilda ifodalanishini “xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbai bo’lgan frazeologizmlar” vositasida o’rganish mumkin⁷².

V.A. Maslova ta’biri bilan aytganda, “frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan bo’ladi”⁷³. Olima frazeologizmlar tadqiqidagi quyidagi muhim jihatlarni qayd etadi: “Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo’lgan milliy madaniyatning “izi” mavjud. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarining obrazli tasavvuri bo’lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo’yoq beradi. Madaniy-milliy o’ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir”.

Yutuq kamchiliksiz mavjud bo’lmaganidek, vositali tarjimaning ham qator noqulayliklarni keltirib chiqarishi tabiiy hol. Ingliz va Yevropa adabiyotidan o’girilayotgan asarlarning aksariyat qismi faqat rus tili orqali amalga oshirila boshlangani sabab, asliyat yozilgan tildan bevosita

⁷⁰ Телия В.Н. Русская Фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: 1996. –С. 294.

⁷¹ Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвomadаний тадқиқи: Филол. фан. ном. дисс.автореф. – Тошкент, 2020. –Б.11.

⁷² Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. –Toshkent, TDO‘TAU, 2019. –B. 43-90.

⁷³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 82.

o‘zbekchaga ag‘darish masalasiga jiddiy yondashilmadi. Bu holat esa tarjima jarayonida vositachi til ta’sirida vujudga keladigan nuqsonlarning ko‘payishiga olib keldi.

Boshqa millat adabiyotlariga nisbatan Yevropa adabiyotining birmuncha “yosh”ligi, dastlab inglizlarga taqlidan yaratilganini, ammo shunga qaramay, bora-bora o‘zining mustaqil noan’anaviy usullariga ega bo‘lganini, yevropalik yozuvchilar ijodida milliy o‘ziga xos chizgilarni yaratish muhim ahamiyat kasb etishi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, tarjimonning bu boradagi mas’uliyati yanada oshadi. Demak, adabiy an’analardagi o‘zgarishlar ham tarjimon nazaridan chetda qolmasligi darkor.

Asarning g‘oyaviy badiiy asosini tashkil etuvchi matnlarning asoslarini ifoda etuvchi ba’zi so‘zlarning tarjimada tushirib qoldirilishi asliyat mazmuniga zarar yetkazadi. Badiiy asarni tarjima qilishda asar muallifining g‘oyasi, maqsadini talqin etishda yozuvchi uslubini o‘rganish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Yozuvchi uslubini o‘rganish uchun uning tarjimai holi qiziqishlari, jamiyatdagi mavqeini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar qahramonlarining qarashlari, intilishlari yozuvchi va tarjimon uslubi uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi.

II BOB. INGLIZCHADAN O‘ZBEKCHAGA TARJIMALARDAGI MILLIY KOLORITNI IFODALOVCHI FRAZELOGIZMLAR TAHLILI

2.1-§. Inglizchadan o‘zbekchaga badiiy tarjima jarayonida muqobil variantlarni tanlash yo‘llari

Tarjima nazariyasida frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlarini semantik xususiyatlari bilan uzviylikda tahlil qilish muhim hisoblanadi. Chunki frazeologizmlarni tarjima qilishni o‘rgatishda ularning har ikki tildagi so‘z tuzilishini inobatga olish zarur.

Frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlarini rus va ingliz tillaridagi frazeologizmlar Ye.F. Arsentyeva (2006)⁷⁴, frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari M.R.Ramazanova (2000)⁷⁵, rus va nemis tillarida frazeologizmlar Ye.P. Kuznetsovalar (2002)⁷⁶ tomonidan o‘rganilgan.

Asliyat uslubini tarjimada to‘la-to‘kis saqlash undagi miliy ruhni aks ettirish masalasiga borib taqaladi. Chunki tarjima qusurlarining aksariyati milliylikni tarjimada bekam-u ko‘st ifodalanmay qolishi tufayli vujudga keladi. Adabiyotning milliyligini bir qancha belgi-xususiyatlariga ko‘ra farqlash mumkin. Bulardan eng muhimlari – badiiy adabiyotda aks etgan xalq psixologiyasi, milliy turmush tarzi, maishiy va madaniy hayoti, milliy an‘ana, urf - odatlar kabi omillardir. Mazkur belgilar bir butun holda asar milliy koloritini yuzaga keliradi. Milliy bo‘yoqdorlik esa badiiy asarlarda tabiiy shakllar: obraz, xarakter, syujet, kompozitsiya, til va uslub tarkibida namoyon bo‘ladi.

Turli xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlar tarjimasi asarning milliy o‘ziga xosligini belgilaydigan omillar qatorida bo‘lib,

⁷⁴ Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеогрфия в сопоставительном аспекте (на материале русского и английского языков) Монография. – Казань., 2006. – С.171

⁷⁵ Рамазанова Р.М. Структура и семантика фразеологических единиц лакского языка: Дисс. канд. филол. наук. – Махачкала, 2000. – С.18

⁷⁶ Кузнецова Е.П. Фразеологические единицы со структурой предложения в русском и немецком языках: Дисс.канд. филол. наук. – Майкоп., 2002. – С.9

mutarjimdan ularga ziyraklik bilan yondashish talab etiladi. Bundan tashqari, tarjima tili milliy ruhiyatini asliyatniki bilan beixtiyor almashtirib qo‘ymaslik uchun nozik usullar qo‘llanishini taqozo etadi.

Inglizcha asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, asosan XX asrning 30-yillaridan amalga oshirila boshladi. Qisqa vaqt ichida bu sohada anchagina yutuqlarga erishildi. Shundan keyin o‘tgan 80-90 yil ichida jamiyatimizda adabiy muhitda muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lib, bu o‘zgarishlar tarjima taraqqiyoti va yo‘nalishiga ham ta’sir etmay qolmadi. Tarjimalarda shu o‘zgarishlar e’tiborga olinib, ingliz va amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga detektiv asarlarning tarjimalari amalga oshirilgan. Badiiy asar tarjimoni oldida hamisha asliyatdagi milliy o‘ziga xoslikni me’yor doirasida berish masalasi ko‘ndalang turadi. Chunki har qanday asar o‘sha xalqning milliy hayoti bilan bog‘liq voqelikni aks ettiradi. Shunday yozuvchilar borki, ularning asarlarida yorqin milliy chizgilar tiniq ajralib turadi⁷⁷.

Frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlari bo‘yicha turli tillar materiallari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, hali ularning strukturaviy xususiyatlari tahlili mavjud emas.

Milliy bo‘yoqdorlik – ma’lum adabiy asarning o‘ziga xos uzviy jihati bo‘lib, u tilda o‘z aksini topadi. U ko‘proq xalqning maishiy va ijtimoiy ahvolini ifoda etuvchi obrazlarda yoki yorqin idiomatikasida namoyon bo‘ladi. “Asarga o‘ymakorlik, jimjimadorlik kiritavergan bilan milliy ruh tug‘dirib bo‘lmaydi”. Umumiy til vositalaridan tashqari, har bir ijodkorning o‘ziga xos individual uslubidan kelib chiqadigan, ta’bir joiz bo‘lsa, “tarkibiy milliylik”, “uslubiy milliylik”, “individual milliylik”, “davriy milliylik”, “nutqiy milliylik”ni aniqlash va buni tarjimada qanday aks ettirish yo‘llarini izlab topish faqat tashqi milliy-etnografik belgilar, milliylik komponentlarini berish yo‘llarini aniqlashga qaraganda murakkab va muhim⁷⁸.

⁷⁷ Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.149–150.

⁷⁸ Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1983. – С. 278.

Janubiy Afrika adabiyotidan Piter Abraxamsning “Chaqmoqli yo‘llar”, “Qabrdagi gulchambar” romanlari va boshqa ko‘pgina asarlar tarjima qilinib, keng o‘zbek kitobxonlariga armug‘on etildi.

Ammo ingliz tilidan o‘zbekchaga bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassis tarjimonlarning yo‘qligi sababli ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o‘zbek tiliga hamon rus tili orqali o‘girilmoqda. Bu esa tarjima jarayonida muqarrar yo‘l qo‘yiladigan nuqsonlar miqdorining ikki baravar oshib ketishiga olib kelmoqda. Biroq ko‘pchilik mohir tarjimonlarimiz asarlar ruhiga chuqurroq kirib borish va bu ruhiyatni o‘zbek tiliga yuqori mahorat bilan talqin etish vositasida tarjimaviy qusurlar oldiga muayyan darajada parda tutib kelmoqdalar.

Roman yoki qissaning milliy ruhiyatini berishda tarjimon u qadar qiyinchiliklarga duch keladi deb bo‘lmaydi, chunki katta hajmli asarlarda milliy bo‘yoqdorlikni tashkil qiluvchi komponentlar yetarlicha topilib, tarjimon milliy muhitni yaratishda keng imkoniyatlarga ega hamda ijod faoliyatida sezilarli darajada erkinlikni qo‘lga kiritadi.

Katta asarlar tarjimasi haqida fikrlaydigan bo‘lsak, undagi maydon, xarakter chiziqlarining kengligi, peyzaj, turmush tasviridagi batafsillik va boshqalar tarjimonga ijod uchun qulay sharoitlar yaratadi. Hikoyada esa masala boshqacharoq qo‘yiladi, chunki bitta siqiq voqea, birgina epizod, personaj xarakterining biror jihatini ko‘rsatilishi, detal, peyzaj, intonatsiyani kichik hajmli hikoyada sezib olish, yagona milliy ohang yaratish va uni o‘z o‘rnida qayta tiklash murakkab jarayondir va bu tarjimondan katta mahoratni talab qiladi⁷⁹.

Kichik hajmli asar tarjimasida mutarjim ham voqealar rivojini, ham obrazlar tasvirini, tugun, yechimni jo qila olishi, yana bular fonida o‘sha millatning milliy o‘ziga xosliklarini ham yetkazib bera olishi lozim. Tabiiyki, tarjimada milliy koloritni tashkil qiluvchi har bir komponentga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, unga o‘z tilidan xos va mos talqin topish, ekvivalent mavjud bo‘lmagan holatda ham o‘sha leksik birlikni matndan chiqarib tashlamaslik talab qilinadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, yozuvchi aynan hikoyachilik janrida ilk sinovlardan o‘tadi, uning yozgan

⁷⁹ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б.83.

hikoyalarda ilk bora ijodiy uslubining turli qirralari namoyon bo‘ladi. Tarjimada asliyat badiiyligini saqlab qolish original asarning milliy o‘ziga xosligini aks ettirish muammosiga borib taqaladi.

G.Gachechiladzening milliylikni aks ettirish borasidagi qarashlariga ko‘ra, tarjimada yangi lisoniy vositalar orqali qayta yaratiladigan badiiy shakl emas, til o‘zgaradi⁸⁰. Ilk qarashda, tarjima yangi “milliy” shaklning yaratilishiga o‘xshaydi, chunki asarning mazmuni yangi lisoniy matoga burkanadi. Biroq bu dastlabki qarash. Asarni tarjima qilish asliyat mazmunini yangi milliy shaklda berish degani emas. Bunday tushuncha zahirida shaklning mazmundan ajralib qolishi yotadi va metodologik xato sifatida badiiy asar to‘qimasining buzilishiga olib keladi⁸¹.

Tarjima – asliyatning mazmun va shakl birligini saqlagan holda yangi lisoniy materialda berish bo‘lib, bu asliyat badiiy voqeligini bir butunlikda aks etishi demakdir; shu sababdan, unda lisoniy elementlarda ifodalangan tarjimon ijodining milliy o‘ziga xosligi ham namoyon bo‘ladi. Tarjimonning individualligini uning milliy xususiyatlarisiz ko‘rish mumkinmi? Axir u o‘z xalqining farzandi va aynan xalqi uchun tarjima yaratadi. Qolaversa, milliy o‘ziga xoslik faqat tilda bilinmaydi. Zero, tarjima bir lisoniy shaklni boshqasi bilan almashtirishdangina iborat emas. Binobarin, “tarjimon individualligi” tushunchasi tarkibiga “milliy o‘ziga xoslik” tushunchasi ham kiradi⁸².

Har bir millat tili tarkibida shunday so‘zlar uchraydiki, asliyatda alohida belgilar bilan farqlanmasa-da, har doim ham ularni boshqa tilga muqim bo‘lib qolgan tarjima qoidalari asosida o‘girib bo‘lmaydi. Muayyan xalqqa mansub buyum, tushuncha va hodisalarni ifodalaydigan so‘zlar asar muallifiga tasvirlanayotgan qahramonlar moddiy-ma’naviy hayotini haqqoniy, milliy shaklda dalillash jarayonida dastak vazifasini

⁸⁰Гачечиладзе Г. Введение в теорию художественного перевода. – Тб.: Изд-во Тбилисского университета, 1970. – С.83

⁸¹Гачечиладзе Г. Проблема реалистического перевода. Дисс.док. филол. наук. – Тбилиси, 1961. – С.23

⁸² Гачечиладе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.: СП, 1972. – С.146-147.

o‘taydi. Tarjimondan esa o‘z tilida muqobil talqini mavjud bo‘lmagan xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan bunday so‘zlar ma’nosini to‘la-to‘kis yetkazib berish va bu bilan bog‘liq qator murakkab vazifalarni yechish talab qilinadi. Realizmalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlarni tarjimada muqobil qayta tiklash evaziga original asarning milliy to‘qimasini o‘zga tilda beshikast qayta yaratishdek yechimi shart bo‘lgan tarjima muammosini ma’lum ma’noda hal etish mumkin.

Bu o‘rinda, xos so‘zlar va termin tushunchalarini bir-biridan farqlash lozimligini ham aytib o‘tish kerak.

Masalan: *Queen King* – qiroli (podshoh); *Eletabeth* – Qirolicha nomi bilan bog‘liq; *Church, temple* – masjid; *Monarch* – imom, domla; *First lady* – xonim, *Gentlemen* – janob; *Double decker bus* – ikki qavatli avtobus; *Pound Sterling (GBP)* – pul birligi; *Temza* – daryosi; *Steak* – olovda pishgan go‘sht;

Terminlar – ilmiy leksikaning asosi; ularning ishlatilish doirasi – maxsus ilmiy adabiyotlardir. Xos so‘zlar esa aksar badiiy adabiyotga daxldor bo‘lib, ular mahalliy, tarixiy, milliy bo‘yoqdorlikning komponentlari hisoblanadi. Terminlar jahondagi barcha xalqlarning umumiy mulki bo‘lsa, xos so‘zlar faqatgina o‘zi vujudga kelgan xalq tiliga tegishlidir. Ularning boshqa tilga qanchalik mahorat bilan olib o‘tilishiga qarab, qabul qilgan tilining boyiganini, yo majoziy ma’noda keraksiz yuk bilan “og‘ir tortib” qolganini aytish mumkin.

Realizmalarni tarjimada adekvat talqin qilish asar badiiy uslubini tarjimada saqlashga kirishgan har bir ijodkorning yuzma-yuz keladigan doimiy masalalaridan biridir. Shu o‘rinda aytish kerakki, bu muammoga nazariy tomondan yondashgan birorta ham olim haligacha realizmalarni tarjima qilishning yagona qoidasini ishlab chiqqani yo‘q, chunki tarjima ijodiy jarayon bo‘lib, bunday fikrning yuzaga kelishi ham kutilmaydi. Biz ham bu mavzuda o‘zimizning ilmiy-tanqidiy mulohaza va xulosalarimizni bayon qilish orqali xos so‘zlar tarjimasi borasida amaliyotda

yuz berishi mumkin bo'lgan turli tasodifiy to'siqlarni muayyan ma'noda bartaraf etish usullarini taklif qilmoqchimiz.

Xos so'zlarni tarjima tilida qayta tiklash uchun, nazarimizda, quyidagilarni hisobga olish kerak:

- asarning janri;
- xos so'zning matndagi vazifasi;
- asliyat tili va tarjima tilidagi xos so'zlarning munosabati;
- asliyat va tarjima tillarining o'ziga xosliklari, ularning so'z yasash imkoniyati, adabiy an'analari;
- tarjima tiliga kiritilgan xos so'zning o'quvchiga tushunarlilik darajasi.

Realialarni kontekstga qarab, faqatgina majoziy emas, balki moddiy ma'nolarida kelganda ham, turli usullar yordamida o'girish va ularning ayni xususiyatlarini hisobga olish obyektiv xulosalarga kelish imkonini beradi. Realialarni o'girish jarayonida, avvalo, ularning muayyan matnda o'tab kelayotgan uslubiy vazifalarini aniqlash, shundan keyin ularga har jihatdan mos, ayni paytda, shu til me'yori va madaniyati qabul qila oladigan darajada bo'lgan ifodalarni tanlash darkor.

Tarjimon asar muallifining milliy uslubiga teran nigoh bilan yondashmog'i kerak. Xos so'zlarni badiiy asar asosida tadqiq qilish o'sha asar muallifining o'z xalqi milliy madaniyati va tarixini qay darajada bilishi va yetkazib bera olishini aniqlashda katta ahamiyatga ega. O'quvchi uchun nafaqat asar fabulasi, balki qahramonlari yashab, faoliyat ko'rsatgan zamon, muhit, maishiy turmush sharoitlari ham birdek qiziq bo'ladi. Xos so'zlarni asarda qo'llashiga qarab muallifning "dunyoga milliycha qarashi"ni belgilash mumkin.

Tarjimada eng to'g'ri usulni tanlay olish uchun asliyat matnidagi notanish xos so'zlarning ma'nosini to'g'ri anglash muhim. Notanish realiya – asliyat matniga chetdan kiritilgan realiyadir. Muallif uni asosan kitobxonga notanish bo'lgan muhit, xalq hayotidan ma'lum bir lavhani tasvirlash maqsadida kiritadi. Ushbu tushunchalar kitobxon tarjima asarini o'qish jarayonida ularni qiynalmasdan qabul qilishi va shu bilan birga, notanish milliy ruhiyatni his etib turadigan qilib kiritilishi kerak.

Muallif ularni berishda sal xatoga yo‘l qo‘ydimi, o‘quvchi bu so‘zlarni atayin qo‘llanilgan ekzotika sifatida qabul qiladi. “Asl nusxadagi tarixiy va milliy o‘ziga xoslikning barcha unsurlarini saqlab bo‘lmaydi, lekin ularning orasidan shundaylarini ushlab qolmoq kerakki, natijada o‘quvchida tarixiy va milliy muhit tasavvuri paydo bo‘lsin”⁸³.

Har bir millat kishisining o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlash badiiy asarga milliylik tusini beradi. Tarjimada milliy o‘ziga xoslikni aks ettirishda u yoki bu xalq vakiliga xos psixologik harakatlar, odat, qiyofa, muomala me‘yorlari, xulq-atvor va marosimlarini bera bilish tarjimonlik mahoratini belgilaydi. Agata Kristi hikoyalarining milliy o‘ziga xosliklaridan biri shundaki, muallif asarlarida muayyan badiiy maqsadni ko‘zlagan holda diniy va afsonaviy realiyalardan ko‘plab foydalanadi. Ushbu realiyalar hikoyada o‘z badiiy funksiyasiga ega bo‘lganligi uchun tarjimon ularni o‘g‘irishda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Ijodkor o‘zbek kitobxoni o‘zga din tarixi, obrazlari, o‘ziga xos tushunchalaridan qay darajada xabardor ekanligidan kelib chiqqan holda ish ko‘rishi lozim.

“Detektiv qirolichasi” bo‘lmish ingliz yozuvchisi Agata Kristining asarlarida tarjimon bu borada qanchalik muvaffaqiyatga erishganini yoki qanday xatolarga yo‘l qo‘yganligini amalda ko‘rib chiqsak. “O‘nta negr bolasi” detektiv romani birinchi to‘liq kitob tarzida 1939-yil 6-noyabr Londondagi “Colin’s Crime Club” nashriyotida avvaliga “O‘n kichkina negrlar (Ten little Neggers)” nomida nashr etildi. Vaqt sayin ba’zi bir irqiy tanqidlar sabab kitobning sarlavhasi ham o‘zgara boshladi. Avvaliga “O‘nta kichkina hindular” keyinroq, “*Va keyin u yerda hech kim yo‘q edi (And Then There Were None)*” deb ham nomlandi.

Kitob eng ko‘p sotilgan detektiv asar bo‘lib, o‘n milliondan ortiq nusxada chop etilgani bu davrdagi eng ko‘p sotilgan kitoblardan biri ekanligidan darak beradi. “International Publications” xalqaro-norasmiy tashkiloti esa uni tarixda eng ko‘p sotilgan 21 ta kitob ro‘yxatida 6-o‘ringa munosib ko‘rdi. Agata Kristining bu asariga zamondoshlari “U yozgan kitoblarning eng sirli va eng dahshatlisi” deb ta’rif berishgan.

⁸³ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.104.

Roman bir necha marta teatr va kinoteatrlar yuzini ko‘rdi. Birinchi film 1945- yilda Rene Kler tomonidan suratga olingan “Va hech kim qolmagan (And Then There Were None)” filmi edi.

“O‘nta negr bolasi” detektiv romanidan bir misol: Frazologizmlar bilvosita tarjimada Rustam Jabborov tomonidan: “*Definitely, Indian Island was news!*” bilvosita tarjimada esa “*Darhaqiqat, Zanjilar oroli gazeta sahifalaridan tushmas edi*” deb berilgan bo‘lsa-da [O‘N,12], so‘zma-so‘z tarjimada bu jumla quyidagicha ma‘noni anglatadi “*Albatta, Hind oroli yangilik edi!*” tarjimada “Zanjilar oroli” – asirlar va zanjirbandlar oroli ma‘nosini ifodalaydi (zanji-negr, bandi-zanjirband, muallif o‘nta negr bolasiga ishora qilib “zanjilar oroli” degan), 1922-yildagi tarjimada aslyatdan biroz chekingan holda “*Indian Island*” nomi batamom o‘zgartirib berilgan.

“*If anything illegal is proposed, you will, of course, be at perfect liberty to withdraw*” romandagi bilvosita tarjimada “Agar sizga noqonuniy nimadir taklif qilishsa, rad qilishga to‘liq haqqingiz bor, albatta” bevosita tarjimada esa “Agar biror noqonuniy narsa taklif qilinsa, siz albatta, rad etish uchun to‘liq erkinlikka egasiz”. Bu siz kim bilan gaplashayotganingizga yoki nima haqida gaplashayotganingizga bog‘liq, lekin odatda buni kundalik suhbatda ishlatish murakkab hisoblanadi. Sababi, Yevropa davlatlarida o‘zingizga ma‘qul kelmagan biror taklifni rad etish bu odatiy holdir.

“*Dear Miss Brent,*

I do hope you remember me? We were together at Bellhaven Guest House in August some years ago, and we seemed to have so much in common”

“*Hurmatli miss Brent!,*

Umid qilamanki, meni eslaysizmi?

Biz bir necha yil oldin avgust oyida Bellhaven mehmonxonasida birga edik va bizda juda ko‘p umumiylik bordek tuyulgandi”⁸⁴ jumlasida

84

<https://studyenglishwords.com/book/%D0%94%D0%B5%D1%81%D1%8F%D1%82%D1%8C-%D0%BD%D0%B5%D0%B3%D1%80%D0%B8%D1%82%D1%8F%D1%82/312?page=5>

tarjimada yuzaga keladi. Bu esa Yevropa davlatidagi xalqlar uchun ikki jins vakilining mehmonxonaning bir xonasida birga tunashini doimgi holat sifatida ifodalaydi [O'N, 9].

Tarjimon Rustam Jabborov esa buni bilvosita tarjimalarda kitobxonlarning fikrini chalg'itmaslik va milliylikka tayangan holda, u jummalarning bir-birini o'rnini bosuvchi turg'un iboralar bilan bilvosita tarjimada: *"Qadrli miss Brent! Meni haliyam unutmagansiz degan umiddaman. Bir necha yil oldin avgustda Bilxevin pansionida bir necha marotaba ko'rishgandik. O'rtamizda umumiy jihatlar juda ko'pdek tuyulgandi menga o'shanda"*,⁸⁵ deya bu holatni biroz soddaroq tarzda beradi [O'N, 9]. Aslida esa so'zma-so'z tarjimada: "Bizni juda ko'p umumiy tomonlarimiz borgan o'xshaydi" deya bir yil oldingi xotiralarni yodga olgan.

Demak, romandagi ushbu satrlarni asl holida o'qigan kitobxongina muallifning nimani ta'kidlamoqchi bo'lganini kengroq tushunib yetadi. Ushbu jumlada ruscha matnga tayanib ish ko'rgan tarjimon realiyani so'zma-so'z o'giradi. Tarjima hamma vaqt shakl va mazmunni bir butun holda tiklashdek ijodiy jarayon hisoblanadi va u tarjimondan individual holda asliyatning mazmun va g'oyaviy birligini qayta yaratishni talab qiladi. Bu jarayonda, albatta, faqat asliyatga tayanib ishlash uning xossalarini yaqinroq his qilish imkonini beradi deb ta'kidlaydi, ingliz olimi J.Ketford⁸⁶.

Rus tarjimoni o'z xalqining diniy e'tiqodidan kelib chiqib, tushuntirishlarga berilib o'tirmasdan asliyatdagi bor narsani tarjimaga olib o'tgan, ammo bilvosita tarjima egasi o'zbek kitobxonining o'zga din tushunchalari to'g'risidagi bilimini hisobga olmay, matnning ushbu qismida tushunarsizlikka yo'l qo'ygan. Agar tarjimon qisqa shaklda Zanjilar orolidagi "O'nta haykalcha" voqeasini roman boshida izohlab ketganda, tarjima tili o'quvchilarining bu borada tasavvuri shakllanib, asarni anglab yetishi oson kechardi. Oradan yillar o'tib, ushbu asarni

⁸⁵ Кристи Агата. Ўнта негр боласи: роман(Рус тилидан Р.Жабборов ва И.Ахмедов таржималари). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – С.83

⁸⁶ Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. –М.: ЧеРо, 2000. – С. 19.

ingliz tilidan belvosita o'giran yosh tarjimon R. Jabborov "O'nta negr bolasi" deb ushbu romanga dunyodan ajrab qolgan bo'm-bo'sh orol, ko'p xonali, zimiston yo'lakli katta sirli uy va Zanjilar orolining sohibi taklifiga ko'ra uyga kelgan 10 nafar mutlaqo notanish, bir-biriga o'xshamagan o'nta odam. Bu yerda ularni qulay shart-sharoitlar, mazali taom va shinam yotoqxonalar kutib turibdi. Lekin havas qilgudek mehmondo'stlik tez orada sarobga aylanib, mehmonlar savdoyi qotil qurgan tuzoqqa tushib qolgani ma'lum bo'ladi. Ular orolning toshloq zaminiga qadam qo'ygan zahoti tuzoq yopilgan. Orolidan qochishning iloji yo'q. Barchani shubha-gumon chulg'ab olgan. Chehralarda ajal soyasi. Qo'rquv va dahshat. Faqatgina bolalar sanoq she'ri va mitti negr bolalari tugashi bilan bu dahshatli o'yinga ham xotima yasaladi. Biroq nega?

Ularni birin-ketin eng g'ayrioddiy yo'llar bilan o'ldirish kimga kerak? Nima uchun sodir bo'layotgan voqealarning bari quvnoq bolalar she'ri bilan chambarchas bog'liq? Nahotki bu jumboqning yechimi topilmasa, nahotki hammasi o'limga mahkum bo'lsa? Lekin nima uchun? Ular rostdan ham aybdormi? deya bu holatga qisqa ta'rif berib biroz aniqlik kirita olgan.

Ma'lumki, har qanday badiiy asarda milliy o'zgachalikni namoyon etuvchi unsurlar talaygina va ularni tarjimada berish ko'pincha bir qator muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ularni bartaraf etish esa tarjimondan muallifga teng qobiliyat va iste'dod talab qilganligi bois bunga erishish yo'li oson kechmaydi. Buni, asosan, milliylikni o'zida mujassam etgan, xalqning moddiy va ijtimoiy turmushi, urf-odat va an'analari, dunyoqarashini aks ettiruvchi frazeologik birliklar tarjimasi misolida ko'rish mumkin.

Yana romandan parcha keltirsak: *"The amount of cars crawling about the roads is frightful.*

Always something blocking your way. And they will drive in the middle of the road! Pretty hopeless driving in England, anyway... Not like France where you really could let out...."

Ruscha tarjimasi: *«Количество машин, ползающих по дорогам, ужасает. Всегда что-то блокирует ваш путь.*

И поедут посреди дороги! Во всяком случае, вождение в Англии довольно безнадежно... Не то, что во Франции, где действительно можно выпустить...» [DN.13]

Rus tilidan tarjima: *“Yo‘llar bo‘ylab tirbandlikda sekin yurgan mashinalar soni juda ko‘p. Har doim nimadir sizning yo‘lingizni to‘sib qo‘yadi va mashinalar yo‘lning o‘rtasida qolib ketadi!*

Angliyada mashina haydash juda murakkab jarayon bo‘lib qoldi, Fransiya o‘xshamaydi, bu yerda katta tirbandliklardan chiqish siz uchun haqiqatan ham katta imkoniyatdir”.

Muallif ushbu o‘xshatishni hikoyadagi vaziyatga hajviy ruh berish va mubolag‘a qilish maqsadida qo‘llagan. So‘zma-so‘z tarjimasi:

“Yo‘llar bo‘ylab sudralib yurgan mashinalar soni qo‘rqinchlidir, nimadir sizni yo‘l o‘rtasida qoldiradi, Angliyada mashinalar umidsiz harakatlanadi... Fransiya bemalol mashina haydasa bo‘ladi”, demakki, bunda urg‘u qahramonlarning qayerda qanday holatdaligi, kim ekanligiga emas, aynan ish-harakat va erishilgan natijaga berilmoqda.

Asar voqealari kechadigan serviqor qoyalardan iborat orolcha haqiqatda mavjud bo‘lib, Janubiy Britaniyadagi Burg oroli edi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, tarjimon frazeologizmlarni tarjima matnida shundayligicha yetkazib berganda, ham milliy ruh, ham muallif ko‘zlagan maqsad saqlanib qolgan bo‘lardi. Ammo tarjimon ruscha matnga izma-iz ergashib, asardagi yozuvchi “tabassum”ini ilg‘amay qolgan, natijada parchaning “shira”si yo‘qolgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Agata Kristi hikoyalarida afsonaviy, umuman olganda, o‘z xalqi tarixiga mansub realiyalarni ko‘plab ishlatadi. Ayniqsa, bu holat personajlar nutqi tasvirida tez-tez ko‘zga chalinadi. Shu sababdan, Agata Kristi asarlari tarjimasida bu jihatga jiddiy e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Bu masalani tarjimon qay tariqa hal etganini ko‘rib chiqish uchun quyidagi ikki misolga e’tibor qaratish kerak: *“Lucky that he'd managed to pull himself together in time after that business ten – no, fifteen years ago.*

–*It had been a near thing, that!*

–*He'd been going to pieces. The shock had pulled him together.*

–*He'd cut out drink altogether. By Jove, it had been a near thing though...*

With a devastating car-splitting blast on the horn an enormous Super Sports Dalmain car rushed past him at eighty miles an hour. –Dr. Armstrong nearly went into the hedge. That had been a near shave, too.

Damned young fool!” [ACh,10]⁸⁷

Tarjimasi: “*Baxtiga, o‘sha voqeadan so‘ng, qachon bo‘lgandi o‘zi – o‘n, yo‘q-yo‘q, allaqachon o‘n besh yil bo‘ldi, o‘zini qo‘lga ola bildi.*

Chinakam mo‘jiza tufayli qutulib qoldi. Ha, o‘shanda birdan cho‘kib qolgandi. Biroq ruhiy iztirob irodasini namoyon qilishga majbur qildi. Ertasi kuniyoq ichishni tashladi. O‘shanda qutulib qolgani rostdan ham mo‘jiza bo‘lgandi...”

Quloqni qomatga keltiruvchi avtomobil gudogidan seskanib tushdi. Yonidan soatiga kamida bir yuz o‘ttiz kilometr tezlikda bahaybat “Super sport dalmeyn” g‘izillab o‘tib ketdi. Doktor Armstrong to‘siqqa urilib ketay dedi. “Yo‘lda o‘pkasini qo‘ltiqlab yuradigan kallavaram” yoshlardan biri bo‘lsa kerak. Shunchalik joniga tegib ketishdi. Axir mo‘jiza tufayli omon qoldi – bu gal ham.

“Jin ursin, o‘sha galvarsni!”⁸⁸ [O‘N, 2016.–13].

Muqobil shaklini beradigan bo‘lsak: “Omadliki, u o‘n – yo‘q, o‘n besh yil oldin bu biznesdan keyin o‘z vaqtida o‘zini o‘nglab olishga muvaffaq bo‘ldi.

Bu xuddi yaqinda sodir bo‘lgan hodisa edi!

Go‘yoki uning tanasi parchalanib, uning o‘zi esa karaxt holatda edi.

U ichimlikni butunlay tashladi. Yupiter haqqi qasam ichamanki, bu yaqinda bo‘lgan hodisa edi.

Super Spors Dalmain mashinasi uning yonidan soatiga sakson mil tezlikda o‘tib ketdi. – Dr. Armstrong sal qoldi to‘siq ichiga kirib ketishiga.

⁸⁷ Christie A. And Then There Were None. (1943). – P.10-12.

⁸⁸ Кристи А. Ўнта негр боласи: роман / (Рус тилидан Р.Жабборов таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.13.

O'sha vaqtda uning taqdiri qil ustida qolgandi.

La'nati ahmoq yoshlar!"

M. Makarovning lug'atida: *"That had been a near shave"* frazeologizmi asl ma'nosi *"xavfdan zo'rg'a qochgan, taqdiri qil ustida, xavfli holat, zo'rg'a chetlab o'tilgan xavf"*, kabi ifodalar bilan berilgan⁸⁹.

Asliyatda: *Smelly sort of rock covered with gulls - stood about a mile from the coast. It had got its name from its resemblance to a man's head - an American Indian profile. Funny idea to go and build a house on it!*

*Awful in bad weather!*⁹⁰.

Yuqoridagi parcha rus tilida shunday berilgan: «Вонючая скала, кишащая чайками, стояла примерно в миле от берега. Он получил свое название из-за сходства с головой человека – профиль американского индейца.

Забавная идея пойти и построить на нем дом!

Ужас в плохую погоду!

Но миллионеры были полны капризов!

Agar rus tilidagi tarjima o'zbekchaga o'girilsa, quyidagicha ko'rinish oladi:

"Hali bola paytida u yerga borishgandi. Sohildan ikki chaqirim naridagi badbo'y qoya. Baliqchi qushlar axlatxonasi. Tashqi ko'rinishi labi do'rdaygan odamni eslatib yuborgani uchun orolni shunday deb atashgan.

*Yomon ob-havoda u yerda umuman yashab bo'lmaydi. Qolaversa, millionerlarda qanaqa tantiqliklar bo'lmaydi deysiz!"*⁹¹

Bunda "Zanjilar oroli" hamda "Galvars" tushunchalari eslatib o'tilgan bo'lib, muallif o'z odatiga ko'ra, ulardan birini Markaziy Osiyo mifologiyasidan (kimsasiz orol), ikkinchisini Angliya tarixidan olgan hamda ular orqali insonning tarbiyasizligini ifodalagan. Bevosita

⁸⁹ <https://translate.academic.ru/a%20near%20shave/en/ru/>,
https://www.studmed.ru/makarov-m-volovich-m-i-dr-sost-anglo-russkiy-slovar-v-pomosch-hristianskomu-perevodchiku_40db4edcb19.html

⁹¹ Christie A. And Then There Were None. (1943). – P.12.

tarjimada ma'no umuman boshqacha aks etadi, bilvosita tarjimada tarjimon romanni milliy ruh bilan boyitish uchun ba'zi bir iboralarni qo'shib bezak bergan. *Smelly sort of rock covered with gulls – stood about a mile from the coast* – qirg'oqdan taxminan bir mil⁹² uzoqlikda.

O'zbek tarjimoni bilvosita tarjimaga tayanib, realiyani yana shunday shaklda tarjima matnida bergan. O'zbek tilidagi tarjima o'quvchisi, tabiiyki, birinchi navbatda, e'tiborini asar qahramonining ayanchli ahvoliga emas, voqea-hodisaning qanday bo'lganligini aniqlashga qaratadi. Axir tarjimada notanish joy nomlari va atamalar berilgan, bu haqida hatto kontekstdan qo'shimcha ma'lumot olish imkoni yo'q. Agar sahifa ostida "o'shanda birdan cho'kib qolgandi – insoniyatga nisbatan cho'kib qolish – tushkunlikka tushib qolish va ruhiy iztirobdan keyingi holatni anglatadi". Yuqoridagi misollarda vaziyat yaxshilangan, chunki noqardosh tillardagi talqinda satrosti izohi mavjud bo'lmasa-da, o'zbek tarjimoni ularni berib, ayrim so'z va iboralarning ma'nosini milliylikka tayangan holda oydinlashtirgan.

Holbuki, "har bir tarjima asarini o'sha tarjima yaratilgan davr bilan bog'liq holda tarixiylik prinsipi asosida o'rganish lozim. Bunday qoidaga amal qilmaslik tarjima asarlari sifatini, tarjimonning xizmatini va har bir davr tarjimachiligining asosiy tendensiyalarini baholashda jiddiy xatoga yoki biryoqlamalikka olib kelishi mumkin"⁹³.

Binobarin, Agata Kristi asarlari bilvosita tarjimalariga shunchaki axborot beruvchi sifatida qarash mumkin, chunki muallif ularda voqea-hodisalar mazmunini o'zbek tilida bayon qilish bilan chegaralangan. Bu esa asar badiiy saviyasini pasaytirib, undagi o'ziga xos asosiy epizodlarning e'tibordan chetda qolib ketishiga sabab bo'lgan. Tarjimon milliy xususiyatlar va tarix bilan hisoblashmas ekan, u hech qachon

⁹² Mil bu masofa o'lchovi bo'lib, uning necha metrغا to'g'ri kelishi borasida ham turli qarashlar bor. Ba'zi shar'iy manbalarimizda bir mil 4000 gaz (ziro') deyiladi. Ziro' bu barmoqlar uchidan tirsakkacha bo'lgan masofa hisoblanadi. Ba'zilar uni barmoqlar uchidan yelkagacha bo'lgan joy deydilar. Bu ikki xil fikrdan birortasiga to'xtalganda ham gaz deyilayotgan narsa aynan necha santimetrغا to'g'ri kelishi joylarga qarab har xil bo'lishi mumkin.

⁹³ Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода – М.: Московский Лицей, 1996. – С.207.

asliyatda ko‘zda tutilgan maqsadni o‘z o‘quvchisiga yetkazolmaydi. To‘plamdagi “O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyalar to‘plami tarjimasida ham uning ikkinchi tarjima variantiga nisbatan anchagina mukammal.

“O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyalar to‘plami 2016-yil “Yangi asr avlodi” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan o‘zbek tilida chop etilgan.

Ko‘rinib turibdiki, noqardosh tillardan so‘zlarni tarjima qilganda, bir-biriga mantiqan bog‘lab bo‘lmaydi va bu hol ma’no buzilishiga olib keladi. Hikoyalarda berilgan so‘zlarning muqobilini tarjima tilida topish va ma’noni to‘la ifodalash mumkin edi.

A.V. Fyodorov aytganidek⁹⁴, “Asl nusxadagi so‘zga muvofiq keladigan biror-bir so‘zning topilmasligi g‘oyatda kam uchraydigan hodisadir. Shu mantiqdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, “O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyasidagi so‘zlarining ekvivalentlari tarjima tilida ham mavjudligi *“The Mysterious Affair at Styles”* to‘plamidagi tarjimada yorqin ifodalangan. Biroq to‘plamlardagi tarjimalarda ham qator kamchiliklarni ko‘rish mumkin. Masalan, menimcha, bu jinoyat zamonaviyga o‘xshaydi, – dedi miss Marpl va har ikkala to‘plam tarjimalarida miss Marplning nutqi har xil berilgan. Jumladan, “O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyalar to‘plamida Raymondning nutqi o‘zbekcha tarjimalarda qo‘pol bo‘lib qolgan. Raymond: “Qayerga imzo chekishim kerak” istar-istamas birdan qayrilib, imzosi qat’iy ekanligini sezib o‘z imzosini chekdi [O‘Q, 2016].

Hikoyaning ikki tarjima varianti mavjud va ikkinchi variantda Raymondga shunday munosabatda bo‘ladi. Biroq “O‘rmondagi sirli qotillik” hikoyalar to‘plamida advokat munosabati o‘zbek tilidagi variantda xushmuomalalik bilan berilgan. Bu asarni o‘qigan kitobxon uchun bu holat ko‘plab chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

V.N. Krupnov fikriga ko‘ra: “Tarjimondan talab qilinadigan narsa frazeologizmlarni tarjima qilishda ularning ma’nolari va obrazlilik xususiyatlarini yetkazib berishdir. Ingliz tiliga to‘g‘ri keladigan gapni va

⁹⁴ Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода (Лингвистический очерк). Издание 3-е, “Высшая школа”. – М., 1968. – С.155-157.

bunda frazeologizmlarning stilistik xususiyatlarini yo‘qotmagan holda to‘g‘ri keladigan obrazni topa olmasa, tarjimon yaqinroq obrazni izlashiga to‘g‘ri keladi”⁹⁵.

2.2-§. Frazelogizmlarning o‘zbekcha muqobil variantlari va funksional xususiyatlari

XX asrning 30-yillarida tarjimashunoslik sohasidagi diqqatga sazovor ishlardan yana biri ingliz tilidan amalga oshirilishi edi. 1933-1934-yillarda Sanjar Siddiq ingliz tilidan asarlarini bilvosita o‘zbek tiliga o‘girdi. Ammo zabardast tarjimon va tarjimashunos qatag‘on qilinib, tarjima asarlari burchak-burchaklarda qolib ketganligi tufayli, keng kitobxonlar ommasi ulardan bebahra qoldi⁹⁶. Bu xildagi rang-baranglik va o‘ziga xoslikni 30 - yillar davrida ham ingliz tilidan bevosita tarjima va ilmiy umumlashmalarga ega bo‘lmagan o‘zbek tiliga o‘girish juda og‘ir, o‘ta mas‘uliyatli, katta ahamiyatga molik ish edi. Zukko tarjimon, olim Sanjar Siddiq bu ishni o‘z bo‘yniga oldi va vijdonan bajardi. Asl nusxada *“I made motor for the Woolworth building”* tarjimasida *“osmon payvand imoratlarning somonin qordim”*.

So‘zma-so‘z tarjima: *“Men bulvar imorati uchun loy qordim”*. Bu satrda ham tarjimon umumlashtirish vositasidan unumli foydalangan, ya’ni o‘zbek kitobxonlari uchun *“Bulvar imoratini”* keng ma’noli osmon payvand imoratlar bilan almashtirgan⁹⁷.

Make the worst of both worlds tarjimasida *“Yomon bilan talashsang, qadring ketar”* tarzida ibora shaklida berilgan, so‘zma-so‘z tarjimasida *“ikki dunyo uchun ham eng yomoni”* ma’nolari ifodalanadi.

Bilvosita tarjima jarayonida ana shu kabi to‘plamlardan foydalanish tarjimada ba’zi noaniqliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Personajlar

⁹⁵ Крупнов В.Н. Практикум по переводу с английского языка на русский: Учеб.пособие для вузов. –М.: Высшая школа, 2005. –С.279.

⁹⁶ Сиддик С. Адабий таржима санъати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1936. –Б.72.

⁹⁷ Жавбуриев М. Воссоздание национального характера исторического колорита художественном переводе(На материале немецкого перевода романа А.Якубова «Сокровища Улугбека»): Дисс.канд. филол. наук. – Ташкент: 1991. – С.202.

nutqi ifodasining stilistik qayta tiklanishi tarjima amaliyotining ham, nazariyasining ham o'ta murakkab, ayni kezda muhim sohalaridan biri bo'lib, muallif maqsadining asliyat tilidan xabardor bo'lmagan kitobxonga to'la-to'kis yetib borishi har qaysi personajning tarjimada "o'z tilida gapirishiga, o'z dunyoqarashi doirasida o'ylashiga, fikr-mulohaza yuritishiga, o'ziga xos harakatlar qilishiga bog'liqdir!"⁹⁸

Roman va hikoyalar tarjimalarida milliylik ulug'langan va tarjimonning yuqorida eslatilgan frazeologizmlari, undagi xususiyat – yaxshilik istagida yumshoqroq ohangda tarjimada berilgan. Ma'lum bir millat an'analari, urf-odatlarining tarjimalarda aks etishida badiiy davr voqea-hodisalarini tasvirlash muhim o'rin tutadi⁹⁹.

Xullas, ingliz tilidan o'zbek tiliga bilvosita tarjimasida milliylikning ifoda etilishi noqardosh xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotining o'zbek kitobxonlariga benuqson yetkazilishiga xizmat qiladi. Tarjimonlar tomonidan juda katta mashaqqat bilan o'girilgan "O'nta negr bolasi", "Puaro tergov qiladi" va "O'rmondagi sirli qotillik" kabi roman va hikoyalarning qiyosiy-tipologik tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjimada ularning mazmun-mohiyati saqlangani holda milliy xususiyatlarning ba'zilar tarjimon nazaridan chetda qolib ketgan va bu noqardosh xalq hikoyalarining ommalashishiga sabab bo'lgan holatlarni keltirib chiqargan.

A.V.Kunin tomonidan ishlab chiqilgan tasnif asosida frazeologizmlarni tahlil qilishga kirishamiz:

Ikki, uch, to'rt va besh komponentli so'z birikmalari, idiomalar – ular umuman bo'linmaydigan, ajralmaydigan turg'un birikmalar, ularning umumiy ma'nosi tarkibidagi so'zlariga bog'liq emas. Romanda keltirilgan komponentlarga murojaat qilamiz:

The sweat was rolling down his face[WN,79] – *Uning yuzidan ter oqardi*; aslida so'zma-so'z tarjimada esa "uning yuzi terlab ketgan edi" deya bersa ham bo'lardi, "uning yuzidan duvillab ter yoki marjon-marjon

⁹⁸ Хамидов Х. Ўзбек касса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: 2022. – С.132.

⁹⁹ Таржима санъати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 3-китоб. –Б.223.

ter oqardi” bu o‘zbekchilikka xos bo‘lgan milliy kolorit bilan ko‘chma ma’noda berilgan tarjimadir.

But there was no sign of sleeping draughts[WN,89] – Ammo u hushsiz yotardi; bevosita tarjimada – uyqusirash belgilari yo‘q edi;

Rogers helped by pulling out the drawers of the dressing-table - Rogers stolning tortmasini tortib, yordam berdi; bevosita tarjima – kiyinish stolining javonini ichkariga surib qo‘ydi, agar o‘tish yo‘lagiga xalal bergan bo‘lsa, sal nariroqqa surib qo‘yish;

came out of the drawing-room window to meet them – ularni kelishini derazadan poylab turgandi; bevosita so‘zma-so‘z tarjimada – ularni(mehmon) kutib olish uchun mehmonxona derazasidan kuzatib turdi; izohi shundan iboratki, biror o‘zbek xonadoni, oilasi yo‘qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan, xullas, har doim ham kelavermaydigan noyob mehmonlarni o‘zgacharoq bir izzat bilan kutib olish kerak bo‘ladi. Ziyofat so‘ngida mehmonni eshikdan tashqariga kuzatib chiqish, uning tashrifidan benihoya xursand bo‘lganligini izhor qilish va yana tashrif buyurishini so‘rab qolish ham mehmonnavozlik qonun-qoidolari sirasiga kiradi.

The meat is delicious. Its done to a turn – so‘zma-so‘z tarjimasida “go‘sh t mazali, bu burilish” ma’nosini bersa-da, asardagi frazeologizmlar tarjimasiga tayanib “go‘sh tning mazali pishgani davramizga ajoyib ko‘tarinki kayfiyat berdi”;

He has no table manner – he eats like a pig – eats very greedily and unpleasantly (disapproving) so‘zma-so‘z tarjimasida “U tarbiyasiz. Xuddi cho‘chqaga o‘xshab ko‘p ovqat yeydi”; asardagi umumiy tarjimada “U o‘zini tutish odobiga rioya qilmagan holda ko‘p va beo‘xshov ovqatlanadi” tarzida berilgan bo‘lib, cho‘chqa so‘zi tushirib qoldirilgan. Ma’lumki, cho‘chqa sof diniy nuqtayi nazardan musulmon xalqlarida harom sanaladi va uning go‘sh tni yeyish taqiqlanadi. Turkiy xalqlarning an’analari da cho‘chqa salbiy mazmun kasb etadi va uning go‘sh ti azaldan yeyilmay kelinadi. Aytilganlar bilan birga, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlarning lingvomadaniyatlarida cho‘chqa so‘zi haqoratni bildiradi. Ruslarda cho‘chqa a) ifloslik, b)

nonko‘rlik, d) tarbiyasizlik; inglizlarda pig – ochofatlik; vietnamlarda cho‘chqa ahmoqlik ramzi bo‘lib keladi.

She’s quite thin, even though she eats like a horse – “u ozg‘in bo‘lishiga qaramasdan, otday ko‘p ovqat yeydi” bu frazeologizmda insonning ko‘p va betartib ovqatlanishi ifodalangan.

Don’t decide now – sleep on it and see how you feel in the morning – so‘zma-so‘z tarjimasida “hozir muhokamani to‘xtataylik, ertaga yana davom ettiramiz”, asarda esa “tong otsin ertaga bir nimani o‘ylab toparmiz”, ya’ni muammoni o‘ylamaslik haqida fikrlar ilgari surilgan.

He went out like a light as soon as he went to bed – “U yotog‘iga yotishi bilan chiroq kabi o‘chadi”, boshi yostiqqa tegsa bo‘ldi kabi.

It was just a silly argument – I wouldn’t lose any sleep over it. – “Bu ahmoqona tortishuvdan ko‘ra uxlaganim yaxshi edi (agar xafa bo‘lmasang)”; asarda esa qisqacha “yaxshisi birozgina dam olaylik, kayfiyatni tushirmay” tarzida.

The bottom has dropped/fallen out of the housing market – “xaridorlar narsalar sotib olishni to‘xtatishdi”, aslida esa “odamlar gavjumligidan do‘konning tomi bosib qoladi” deb o‘ylab do‘konga kirmaslik.

Oil prices shot sky – high last month – “neftning narxi o‘tgan oyda osmonga qarab ko‘tarildi” tarzida berilgan.

O‘.K.Yusupov fikriga ko‘ra, avval ekvivalentga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan frazeologik birliklar aniqlab olinadi. Taniqli olim ularning semantikasi, obrazlilik (metaforik); qayta tushunib yetganlik; komponentlarning soniga ko‘ra; komponentlarning joylashish tartibiga ko‘ra; komponentlarning morfologik yasalishiga ko‘ra; valentlik; variativlik; qiyoslanayotgan frazeologik birliklarni boshqa birliklar bilan sinonimik va antonimik aloqalariga ko‘ra turlarga ajratgan¹⁰⁰.

Ingliz tilidan rus tiliga, so‘ngra rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan adabiy namunalar “ko‘p bosqichli”, “pog‘onador” tarjimalar hisoblanadi. Bunday tarjimalar G‘.Salomov ta’rifi bilan aytganda,

¹⁰⁰ Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.66-67.

“in’ikosning in’ikosi”ga aylanadi¹⁰¹. Chunki ularda bayon etilgan hodisa yana qayta aks ettiriladi. Bunda, tabiiyki, asliyatdan bir emas, ikki bor uzoqlashish yuz beradi. Natijada, asarda aks etgan milliy o‘ziga xoslik qashshoqlashadi. Tasvirlangan voqealarni til boyligiga moslashtirish hollari yuz beradi. Hatto, ba’zan ayrim o‘ziga xos milliy birliklar anglab bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketadi. Bunday holat bevosita tarjimalarda emas, balki asosan vositali tarjimalarda kuzatiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida sanalgan hikoyalar asliyat asosida tarjima qilinmagan, ularning ba’zilarida nimalarnidir qo‘shish yoki ayrim epizodlarni tushirib qoldirish hollari juda ko‘p uchraydi.

Haqqoniylik – ekvivalentlikning asosiy xossasi hisoblanadi, ya’ni tarjima matni asliyatniki kabi haqqoniy bo‘lsa, ekvivalentlik ham mukammal bo‘ladi. Bu yerda gap asliyat matnining obyektiv voqelikka nisbatan haqqoniyligi haqida emas, har qanday matn insonni o‘rab turgan voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash usuli ekanligi haqida bormoqda. Matn har qanday moddiy obyekt singari o‘zining moddiy obyektivligi bilan haqqoniydir. Aynan ana shu haqqoniylik tarjima ekvivalentligini baholashda e’tiborga olinmog‘i kerak¹⁰².

Semantik xususiyatlariga ko‘ra, “O‘nta negr bolasi” romani va “Puaro tergov qiladi” detektiv hikoyasidagi frazeologizmlar quyidagi guruhlariga ajratildi: inson hayotining turmush tajribalariga ko‘ra; axloqiy xususiyatlariga ko‘ra; tashqi ko‘rinishiga ko‘ra; mehnat faoliyatiga ko‘ra. Mazkur frazeologik birliklar ichki xususiyatiga ko‘ra yana kichik guruhlariga tasniflandi:

1. Mehnat faoliyatiga ko‘ra:

No bees, no honey; no work, no money – Mashaqqatsiz baxt kelmas, mehnatsiz taxt kelmas; Asalarisiz asal bo‘lmaydi, mehnatsiz pul bo‘lmaydi.

The early birds catches the worm – Kim erta tursa, unga Xudo rizq beradi; Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat.

¹⁰¹ Саломов Ф. Ўзбекистонда таржимачилик. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.227.

¹⁰² Гарбовский Н.К. Теория перевода. – Ташкент: Издательство Московского университета, 2007. –С. 342.

An old dogs barks not in vain – Qari it bekorga akkilamaydi. Qari bilanni pari bilmaydi – ekvalenti bilan tarjimada berilsa ham bo‘lardi.

An oak is not felled with one stroke – Musulmonchilik – astachilik (maqol).

If two men ride on a horse, one must sit behind – Har bir ishni o‘z ustasi bajarishi kerak.

A cat in gloves catches no mice – Mehnatsiz rohat bo‘lmas, savobsiz jannat; Mehnatsiz ish bitmas; Mehnat qilmay rohat ko‘rmas, urug‘ sepmay ekin o‘rmas.

Raise in the world.... – Dunyo ko‘rmay, dunyo kishisi bo‘lmas.

1. Inson hayoti, turmush tajribalariga ko‘ra:

To send owls to Athens – O‘rmonga o‘tin olib bormoq; Daryo bo‘yida quduq qazimoq. So‘zma-so‘z tarjimasida “boyqushlarni Afinaga yuborish” ma’nosi Yevropa xalqi uchun odatiy ishlatiladigan frazeologizm (ibora) hisoblanadi. Azaldan ma’lumki, boyqush daraxtzor o‘rmonda yashaydi uni Afinaga yuborish bu ahmoqona fikrdir. Ekvivalent variantida o‘zbekcha iboraga tayanib, o‘rmon joyda o‘tib ko‘p bo‘lsa, unga o‘tin ko‘tarib borish – mantiqsizlik ekanini bildiradi. Romanda bu frazeologizm orolga ketayotgan Rojersning nutqidan olingan:

To count one’s chickens before they are hatched¹⁰³ – Jo‘jani kuzda sanaydilar; Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq; Olinmagan buzoqqa qoziq qoqma.

Wait for the cat to jump – Vaziyatga qarab o‘zgarmoq (mustaqil fikrga ega emaslik).

Curses like chickens come home to roost – O‘zi qazigan chohga o‘zi tushmoq; o‘zining nayrangiga o‘zi tushmoq; Birovga choh qazima, o‘zing unga tusharsan.

Little stroke fell great aoks – Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitar, besabrlar o‘z oyog‘idan yitar.

Wait and see – Sabr qilmoq, toqat qilmoq; Hayot ko‘rsatadi, tirik bo‘lsak ko‘rarmiz.

¹⁰³ <https://idioms.thefreedictionary.com/count+one%27s+chickens+before+they+hatch>

A hard nut to crack – Tishi o‘tmaydi, kuchi yetmaydi, qo‘lidan kelmaydi.

When pigs ply – Tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yoqqanda, hech qachon; kelasi qovun pishig‘ida.

He killed two birds with one stone – Bir o‘q bilan ikki quyonni o‘ldirmoq.

2. Axloqiy xususiyatlarga ko‘ra:

The bull must be taken by the horns – Fursatni qo‘ldan bermay, dadillik bilan ishga kirishmoq; asosiy masalani hal qilishga o‘tmoq, shijoat bilan katta, og‘ir ishni boshlab yubormoq.

Gather your rosebuds while you may – Temirni qizig‘ida bos.

The highest tree has the greatest fall – Baland dorga osilma.

All lay loads on a willing horse – Hamma ishni astoydil ishlaydigan odamga tashlab qo‘ymoq.

What can you expect from a hog but a grunt? – Tarbiyasiz, qo‘pol odamdan hech narsa kutib bo‘lmaydi.

3. Tashqi ko‘rinishiga ko‘ra:

There is no rose without a thorn – Gul tikansiz bo‘lmas, dur sadafsiz.

As like as two peas – Ikki tomchi suvdek o‘xshash; Bir olmaning ikki pallasiday.

Look like a million dollars/bucks – Ajoyib ko‘rinmoq, yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lmoq, juda go‘zal.

A rose between two thorns – ikki erkak o‘rtasida o‘tirgan go‘zal ayol (ikki tikan o‘rtasidagi gul).

Frazeologizmlar alohida shakllanganini va komponentlar ko‘p jihatdan oddiy so‘zlardan unchalik farq qilmasligini inobatga olib, tarjimon ularni erkin birikmalar sifatida qabul qiladi va bu ularni so‘z sifatida tarjima qilishga olib keladi. Iboraning mazmunan noto‘g‘ri qabul qilinishi matnning buzilishiga sabab bo‘ladi. Matnda har qanday moslashuv frazeologik shaklga kirishi kerak yoki juda bo‘lmasa, stilistik jihatdan ekspressiv, asl nusxasiga yaqinlashtirilgan holda ifodalanishi kerak.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, frazeologizmlarning tarjimasida ularning ma'nosini har doim frazeologizm bilan berishga harakat qilish va bunda ularning obrazlilik xususiyatlarini, albatta, hisobga olish kerak bo'ladi.

Tarjima qilinayotgan asar tili me'yorlariga qat'iy amal qilingan holda asosiy mazmunni berish ekvivalent tarjima hisoblanadi. Masalan, "Rain is spreading from the west" ("*yomg'ir G'arbdan tarqaladi*") jumlasini ibora shaklida "*G'arb tomondan yomg'ir yog'ib boshladi*" deb o'girish to'g'ri bo'ladi, lekin Sharq davlatlarida dunyo tomonlari nomlari bilan ishlatilmaydi va bu birikma o'zimizga tanish tomonlarni ko'rsatgan holda "*u tarafda yomg'ir yog'yapti*" iborasi bilan beriladi, bu yerda gapning asosiy ma'nosini berish orqali ekvivalentlikka erishilgan. Demak, asliyat matni parchasi ustida ishlash jarayonida tarjimaning bir necha variantlaridan eng muqobilini tanlay olishi lozim. Bunda tarjimon matnning alohida elementlaridan muhimlik darajasiga ko'ra grammatik va semantik jihatdan eng maqbulini tanlashi lozim.

Ijod jarayonida tarjimon so'z ma'nosini anglashda faqat uning semantik tuzilishini bilishdan tashqari, asliyat tilida so'zlashuvchi kishilarning badiiy tafakkuri, fikrlash tarzi va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishi lozim. Chunki, mazkur vazifalarni sof lingvistik tahlilga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiati, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun uni ongda "tahlil qilib", o'z tilida kitobxonga bekam-u ko'st uzatish masalasini kun tartibiga qo'yadi¹⁰⁴. Bundan tashqari, muallif asar yaratar ekan, asarning kompozitsiyasi, syujet chizig'i, uslub xususiyatlari haqida bosh qotirmaydi. Muallifning maqsadi voqelikni badiiy aks ettirishdangina iborat bo'lib, u beixtiyor, o'z uslubini kashf etadi. Asar tarjima qilinar ekan, tarjimonlar har bir hodisa, vaziyat, umuman, voqelikka teran nigohi bilan nazar solib, asar g'oyasidan kelib chiqib mos detallar tanlaydi va asar mazmuni doirasida o'z fikrini ifodalaydi. Tarjimonning vazifasi esa

¹⁰⁴Сдобников В.В. Адекватность и эквивалентность как критерии оценки качества перевода // Информационно-коммуникативные аспекты перевода: Сб. науч. трудов. – Ч.І. – Н.Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 1997. – С.109–124.

asar uslubi, yozuvchining iste'dodi qirralarini tarjima tilida qayta yaratishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Badiiy asar kabi barkamol tarjimaning ham yagona, imkoniyatlarga boy bo'lgan vositasi – umumxalq tilidir. Chunki har qanday tarjima asari alohida guruh kishilari yoki mutaxassis uchun emas, keng kitobxon ommasi uchun mo'ljallanadi. Muallif so'zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olgan tarjimongina so'zni shunchalik ishonchli qayta ifodalay oladi¹⁰⁵.

Realistik tarjimaning asosiy talablaridan biri – tarjimonning asar bosh xususiyatini chuqur tahlil natijasida aniqlab olib, buni o'zbek tilida nihoyatda tabiiy shaklda qaytadan yarata bilishidadir. Tarjima tilining turli leksik qatlamlariga murojaat qilish, asliyat milliy ruhiga mos tushadigan iboralarni, ya'ni ma'nolarni saqlab qolgan holda ishlatish asar tarjimasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Agata Kristi roman va detektiv hikoyalaridagi iboralarni o'g'irishda tarjimon erishgan muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilish asnosida yuqorida aytib o'tilgan fikrning isbotini ko'rish mumkin: *"This Indian Island now, he'd be interested to see it. A lot of gossip flying about"*. Bu so'zma-so'z tarjimada quyidagicha berilgan: *"U hozir Hind orolida, bu orol haqida ko'p g'iybatlar uchib yuribdi"*. Tarjimon R.Jabborov inglizcha jumlani bilvosita tarjimada qisqagina qilib, kundalik so'zlashuvga oid so'zlardan foydalangan holda *"Bexosiyat orol haqida ko'p noxush gaplar qulog'imga chalingan"*, deb bergan¹⁰⁶.

Asliyatga murojaat qilinsa, epigraf sifatida keltirilgan to'rt qator she'r keltirilgan. Bu ixchamgina she'r yozuvchining ijodiy niyatini, butun asar ruhini aks ettiradi. H.Teshaboyev tarjimasida bu to'rtlik qayta tiklangan (2.1-jadvalga qarang).

¹⁰⁵ Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент.: 1966. – Б.70-71.

¹⁰⁶ Кристи Агата. Ўнта негр боласи (Р. Жабборов таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

2.1- jadval

She'ning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi variantlari

Asliyat (inglizcha)	Tarjima (ruscha)	Tarjima (o'zbekcha)
Ten little soldier boys went out to dine; One choked his little self and then there were Nine. Nine little soldier boys sat up very late; One overslept himself and then there were Eight. Eight little soldier boys travelling in Devon; One said he'd stay there and then there were Seven.	Десять негрят отправились обедать, Один поперхнулся, их осталось девять. Девять негрят, поев, клевали носом, Один не смог проснуться, их осталось восемь. Восемь негрят в Девон ушли потом, Один не возвратился, остались всемером.	O'nta negr bolasi, bordi tushlik qilgali, Biri tiqilib o'ldi, to'qqiz qoldilar bari. To'qqiz negr bolasi miriqib qildu tushlik, Biri uyg'ona olmay, sakkiz qoldilar sho'rlik. Sakkiz negr bolasi yurdilar Devon tomon, Biri ortga qaytmadi, Qoldilar-ku yettovlon.

Tarjimadan ko'rinib turibdiki, badiiy tarjima nusxa ko'chirish emas, balki interpretatsiyadir. Bunday qaraganda, tarjimon hal qilib bo'lmaydigan muammolar qarshisida turadi. Vositachi til yordamida tarjima qilingan asarda ma'nolar ham biroz o'zgaradi. "O'nta negr bolasi" romanidagi o'sha mashhur she'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

"Ten little soldier boys went out to dine;

One choked his little self and then there were Nine."

O'zbek tilidagi tarjimasida *O'n nafar kichik askar bolachalar kechki ovqatlanishga chiqishdi; Ular to'qqizta qoldi biri tiqilib o'ldi.*

Dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanishayotganida, ovqat tiqilib nafasi qaytib o'lib qoldi ma'nosida berilgan.

“One said he’d stay there and then there were Seven.” Bevosita tarjimada *“Biri u yerda qolishini aytdi, keyin yetti kishi qoldi”* ma’nosi chiqsa-da, – bilvosita tarjimasida esa *“Biri ortga qaytmadi, qoldilar-ku yettovlon”* deb keltirgan bo’lsa-da, bu tarjima asliyatga ancha yaqin ma’nolar bilan berilgan.

Angliyalik olim P.Nyumark o‘zining *“Approaches to translation”*¹⁰⁷ kitobida tarjimaning ikki umumiy metodini ajratib ko‘rsatadi: komunikativ va semantik. Komunikativ tarjima to‘laligicha o‘quvchi uchun mo‘ljallangan bo‘ladi, yetkazilayotgan ma’lumot tarjima tili me’yorlariga moslashtirilgan holda sodda va tushunarli bo‘lishi kerak. Semantik tarjima esa, aksincha, asliyat tili me’yorlari chegarasidan chiqmaydi, u murakkabroq shaklda fikrning barcha nozikliklari, muallif uslubining barcha o‘ziga xosliklarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotchi uchun asosiysi – asliyatga sodiqlik va shu yo‘lda u hatto hijjalab tarjima qilish usulini himoya qilib, uni eng yaxshi tarjima deb hisoblaydi¹⁰⁸.

So‘zma - so‘z tarjimada tarjimon bu yerda to‘rtlik shaklini o‘zgartirib o‘giran bo‘lsa-da, ma’nosini to‘liq ifodalab bera olgan:

“Biri u yerda qolishini aytgandi, keyin esa yetti kishi qoldi”.

Bu – haqiqatan ham g‘ayrioddiy tarixga ega roman. Asl sarlavhaning soxta tabiati haqidagi shikoyatlar uning Angliya nashri uchun asl qofiyaning oxirgi qatori *“And then There Were None”* bilan qayta nomlanishiga olib keldi. Orol Askarlar oroliga aylandi. *“Ten little indians”* sifatida nashr etilgan versiyada bizda Hindiston oroli mavjud, ammo bizgacha yetib kelgan versiyasida *“Zanjilar oroli”* deb yuritilgan [O‘N, 16]. Asardagi 3-bo‘limda berilgan quyidagi suhbat:

The judge stood thoughtfully again.

“I think your conclusion is completely reasonable,” he said.

Miss Brent's letter had a silent signature instead of a last name, but her name was clearly written

– So, both letters have the same name:

¹⁰⁷ Newmark P. *Approaches to translation*.-Oxford: 1981. –P.301.

¹⁰⁸ Комиссаров В.Н. *Общая теория перевода*.–М.:ЧеРо, 2000.– С.22.

“Alek Norman Onim- Anna Nancy Onim”, every page.

– A. N. Onim. If we use imagination, the word anonymous is formed!

"Oh my God, that's nonsense!" Sent Vera.

The judge nodded kindly.

"You're right," he said.

– I have no doubt that we were invited to the island by a madman. I think he's crazy. [WN,1939.-72]

Tarjimon Rustam Jabborov bilvosita tarjimasida shu jummlalar quyidagicha berilgan: *Sudya yana o‘ychan turib qoldi.*

Xulosangiz menga mutlaqo asosidek tuyulyapti, – dedi u,

Alek Norman Onim! Miss Brent xatida familiya o‘rnida jimjimador imzo turibdi, lekin ism-sharifi aniq yozilgan.

Anna Nensi demak, ikkala xatda ham bir xil ism-sharif uchraydi:

Anna Nensi Onim, ya’ni har gal A. N. Onim. Agar tasavvurni ishga solsak, anonim degan so‘z hosil bo‘ladi!

Ey xudoyim, axir bu bema’nilik! – deb yubordi Vera.

Sudya xayrixoh bosh silkidi.

Siz haqsiz, – dedi u.

Bizni orolga telba odam taklif qilganiga zarracha shubha qilmayman. Menimcha, u xavfli savdoyi.

Tergovchi nutqi ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham juda yaxshi tiklangan, muallifning muddaosi kitobxonga to‘g‘ri yetib borgan. *Fingering his small moustache, Captain Lombard said: – “You understand I can't undertake anything - illegal?”* jumlasida Kapitan Lombard kichkina mo‘ylovini silab:

“Men qonunga qarshi hech narsa qila olmasligimni tushundingizmi?” dedi.

Tarjimonlar ishida “mo‘ylovini silab” iborasi milliylikka xos tarzda o‘girilgan “*Sudya yana o‘ychan turib qoldi*” bilan berilgan. “*Mo‘ylovini silab o‘tirardi*” frazeologizmi ko‘pincha adabiyotlarda kinoya va mensimaslik ma’nolarida qo‘llanilgan.

“I think he's crazy” jumlasida so‘zma-so‘z tarjimada “mening o‘ylashimcha, u jinni» deb berilsa, tarjimon esa buni “*mening*

o‘ylashimcha, u aqldan ozgan” deb bergan, sababki “jinni” so‘zi aqliy nosog‘lom odamga nisbatan aytiladi.

Ingliz adabiyotidan o‘zbek tiliga qilinadigan, o‘ziga xos butun bir adabiyotni tashkil qiluvchi sertarmoq tarjimalarda mualliflarning turli uslub jilolarini qayta ifodalash bobida jafokash tarjimonlar oldida har gal maxsus tahlil va tahsilni, har safar o‘zgacha bir chora-yu tadbirni talab etadigan muammolar ko‘ndalang bo‘lishi aniq.

G‘.Salomov ta’kidlagandek, tarjima qilinayotgan muallifning dunyoqarashi-yu sinfiy mavqeyidan tortib, mavzu, g‘oya, material, davr taqozosi bilan uning qanday, ne yo‘sinda qalam tebratganini inobatga olgan holda, tarjimon turli-tuman uslub jilvalarini aks ettirishga majbur.

Agata Kristi: *“They came up over a steep hill and down a zigzag track to Sticklehaven – a mere cluster of cottages with a fishing boat or two drawn up on the beach. Illuminated by the setting sun, they had their first glimpse of Soldier Island jutting up out of the sea to the south”* [WN, 34].

Ruscha tarjimasi: «Преодолев крутой холм, они спустились петляющей проселочной дорогой к Стиклхевну-прибрежной деревушке в несколько домишек, неподалеку от которых виднелись одна-две рыбацкие лодки. Лучи закатного солнца осветили скалу, встававшую на юге из моря» [DN,15].

Rus tilidan qilingan tarjimaning mazmuni quyidagicha: *“Ular katta tepalikni ortda qoldirib, aylanma so‘qmoq yo‘llar orqali Stiklxevnaga yetib kelishdi. Sohil bo‘yidagi bu qishloqcha bir nechta uylardan iborat bo‘lib, ularning yaqinida bir-ikkita baliqchilar qayig‘i ham ko‘zga tashlanardi. Botayotgan quyosh nurlari dengizdan janubda qad rostlagan qoyani yoritdi”* [O‘N, 21].

Ingliz tilidan bevosita tarjimasi: *“Tik tepalikdan o‘tib, ular Sticklehaven tomon aylanma yo‘l bo‘ylab pastga tushishdi, ular qishloqdagi bir nechta uylarni ko‘rishdi, ularning yaqinida bir-ikkita baliqchilar qayig‘i ham ko‘zga tashlanardi. Botayotgan quyosh nurlari janubda dengizdan ko‘tarilgan qoyani yoritib turardi”.*

I.Ahmedov vositachi til orqali qilinganligi uchun hijjalab o‘girmagan, chunki rus tilidagisida erkin tarjima yo‘lidan borilgan.

R.Jabborov tarjimasida biz keltirgan parcha esa qariyb so‘zma-so‘z o‘girilgan. Shu asnoda tarjima nazariyasidagi “Asliyatdagi alohida unurning rolini aniqlash, uning o‘zgartirishsiz tiklanishi, shuningdek, uni tashlab ketish shaklning bir yoki boshqasi bilan almashtirish ehtimoli mazmun va butunlikdagi o‘zaro munosabatidan ma’lum bo‘ladi»¹⁰⁹, degan fikrga murojaat qilamiz. Xo‘sh, bu holatda bir insonning fojiasini hikoya qiluvchi, dillarda tug‘yon uyg‘otuvchi aynan mana shu parchani o‘quvchi ongiga yanada ta’sirliroq etib singdirish uchun qaysi yo‘lni tanlagan ma’qul?

Bizningcha, I.Ahmedovning aslidan olgan “*Tik tepalikdan o‘tib*”, “*Botayotgan quyosh nurlari*”, “*janubda qad roslagan qoyani yoritdi*” kabi iboralari o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi.

Tarjimon bu yerda atrof-muhitdagi, dengiz atrofidagi jozibador tabiatni turli ranglarda tasvirlagan.

Ingliz tanqidchisi M. Arnoldning aytishicha, “Tarjimada tilimizga xos bo‘lmagan har bir iborani saqlab qolishimiz kerakki, bundan asarning o‘zga tafakkur tomonidan yaratilgani, o‘zga material asosida bunyod etilgani yanada kuchliroq his qilinsin”¹¹⁰.

“Tarjimon ishga kirishishdan avval o‘zi uchun o‘sha yozuvchining uslubini, obrazlar sistemasini, asar ritmikasini belgilab olmog‘i lozim”¹¹¹. Quyidagi misolda tarjimonlardan biri ritmikani ilg‘ay olgani uchun asliyatda muallif tomonidan qo‘llangan usulni tarjimada ham saqlab qolgan:

A.Kristi: “*She had pictured it differently, close to shore, crowned with a beautiful white house. But there was no house visible, only the boldly silhouetted rock with its faint resemblance to a giant head. There was something sinister about it. She shivered faintly*” [WN, 34].

¹⁰⁹ Федоров А.В. Основы общей теории перевода. –М.: Высшая школа, 1968 –С.46-147.

¹¹⁰ Чуковский К. Высокое искусство. –М.: СП, 1968. – С.185-186.

¹¹¹ Чуковский К. Там же. – С .170.

Ruscha tarjimasi: *«Она представляла остров совсем иначе-небольшой островок у берега, на нем красивый белый дом. Но никакого дома не было видно, из моря круто вздымалась скала, чьи очертания отдаленно напоминали гигантскую голову негра. В ней было что-то жутковатое. Вера вздрогнула»* [DN, 16].

Rus tilidan tarjima: *“U orolni butunlay boshqacha tasavvur qilgandi – sohil bo‘yidagi mitti orolcha, unda chiroyli oq uy. Biroq hech qanday uy ko‘rinmasdi. Dengizdan ko‘tarilib chiqqan tik qoya olisdan qaraganda bahaybat zangi boshini eslatib yuborardi. Uning nimasidir vahima uyg‘otardi. Vera beixtiyor seskanib tushdi”* [O‘N,22].

Ingliz tilidan tarjima: *“U buni butunlay boshqacha, qirg‘oqdan uncha uzoq bo‘lmagan joyda, go‘zal oq uy borligini tasavvur qildi. Ammo uy ko‘rinmasdi, faqat bahaybat boshga o‘xshagan tiniq siluyetli qoya bor edi. Unda qandaydir dahshatli narsa bor edi. U xiyol titrab ketdi”*.

Bu holatda adib qahramonlar taassurotlarini izohlab, ularni shu taassurotlar olamida yashashga intilishga undaydi. Bu ma’noda u inson tasavvurini emas, aksincha, o‘sha orol atrofidagi tabiatni milliy ruhda ko‘rsatib bermoqchi bo‘ldi.

Ko‘rsatganimizdek, muallif bevosita tarjimada bu parchani *“U biroz titrab ketdi”* jumlasini atayin biroz deb bergan bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada *“U xiyol titrab ketdi”*, ya’ni to‘satdan titrab, esankirab qolishni ifoda etgan, muallif bu fikri orqali insonda bo‘ladigan kuchli holat irodasiga urg‘u bermoqchi bo‘lgan. Rus tili orqali bilvosita tarjimada mana shu ritmika saqlanib qolgani uchun muallif uslubiga ham putur yetmagan.

Nodar Dumbadze o‘zining *“Ko‘rnamak”* hikoyasida *“U xiyol titrab ketdi”* frazeologizmi – vujudida qonni ayovsiz simirayotgan dahshatli bir horg‘inlik ifodasi ta’rifida bergan¹¹².

¹¹² Думбадзе Н. Кўрнамак (хикоя); Грузия, 1928-1984. – Б.137.

Agata Kristining 1939-yilda nashr etilgan “O‘nta negr bolasi” (And After There Were None) romani o‘z vaqtida kuchli aks-sado berdi. Unda jazosiz qolgan aybdorlardan (jinoyatchilar) 10 tasini to‘plab, birma-bir o‘ldirgan va qatil shu yo‘l bilan adolatni tiklashga qaror qilgan.

Agata Kristi insonning biror narsaga bo‘lgan ishtiyoqi hayvonlarnikidan ham battarroq ekanligini ko‘rsatib berdi. Bu g‘oyani asarda qotilik qilishga ishtiyoqi baland bo‘lgan va erishgan Uorgreyv hamda uch kishi (Vera, Lombard va Blor) qolganlardagi hozirgi parchada namoyon bo‘ldi. Asarda yozuvchi bir narsani bot-bot parda ortida ta’kidlaydi: “Qay ko‘rinishda bo‘lmasin, har qanday jinoyat uchun jazo muqarrar. Intiho esa kutilmaganda keladi”.

Har bir tarjima – o‘z davrining mahsuli hisoblanadi. Bundan bir necha yillar muqaddam yaratilgan tarjima asari bilan uning keyingi talqinlari o‘zaro chog‘ishtirilsa, turli davrlarda yashagan tarjimonlarning hayotga munosabati, asar muallifining tushunish darajasi, ularning tarjimonlik mahorati o‘rtasida sezilarli tafovut yuzaga kelganini ko‘rish mumkin¹¹³. Shuningdek, adabiy tilning har xil davrlarda farqli kamolot darajasida bo‘lganligi ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ikki tarjimani solishtirganda, bilvosita tarjimada ko‘p so‘zlar ruschadan o‘girilmay, shundoq berib ketilaverganiga guvoh bo‘lamiz. Bevosita tarjimada esa o‘sha so‘zlarning o‘zbekcha ekvivalentlarini topib berishga harakat qilingan va bu borada muvaffaqiyatga erishilgan ham.

Masalan: *She shivered faintly* – *Вера вздрогнула* – *Vera beixtiyor seskanib tushdi*, bevosita tarjimalarda esa “*U bir oz titrab ketdi, U xiyol titrab ketdi*” kabi ma’nodosh so‘zlar bilan ham izohlab o‘tsa bo‘ladi.

Badiiy asar shakl va mazmuni dialektik birligining tarjimada qayta yaratilishi adekvatlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

¹¹³ Сыроваткин С.Н. Теория перевода в аспекте функциональной лингвосомиотики. – Калининград: Калининградский гос. университет, 1978. – С.37

Mazmunni birinchi o‘ringa qo‘yib, shaklga e‘tiborsizlik qilish yoki o‘zbek madaniyati tarixi haqida ilmiy izlanish olib borgan amerikalik olim Eduard Alvors o‘zining “Hozirgi o‘zbeklar” deb nomlangan asarida O‘zbekistonda tarjima ishlari haqida so‘z yuritarkan, 1979-yilga kelib, 50 % o‘zbeklar rus tilida erkin so‘zlasha olganligi bois 80-yillarda o‘zbek tiliga tarjima avj olganligi bois, bu esa ko‘pchilik o‘zbeklar har turdagi adabiyotlarni o‘z ona tillarida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lganidan darak berishini yozadi. Har bir davrda olib borilgan siyosat, undagi adabiy muhit, inson va uning so‘z erkinligi darajasi tarjima qilish manbalarini tanlash, tarjima tamoyillariga ta’sir qilgan. Hozirgi kun taraqqiyoti va talablari esa XXI asrda bu sohada faqat bevosita tarjimalar amalga oshirilishini taqozo etadi. Yillar o‘tgan sari tarjimalarda ham yangilanishlar bo‘lib boradi. Yangi davrga moslashgan holda yangi atamalar paydo bo‘ladi. Bu degani, har bir tarjima qilinayotgan asarda yangi kolorit paydo bo‘ladi, “milliylikka yondashgan holda ba’zi bir atamalar o‘zgaradi”¹¹⁴.

Umuman olganda, muayyan davr koloriti tasvirlangan asarlar tarjimasining murakkabliklaridan biri undagi arxaik so‘z va iboralar ishtirokida qurilgan qahramonlar nutqini, uning ritmini, ohangini nechog‘lik qayta tiklash bilan bog‘liq. Zotan adabiyotshunos olim S.M. Vloxov, S. Florinlarning fikricha, tarjimon quyidagi hollarda arxaik so‘z va iboralarga duch keladi.

1. Ingliz adiblari asarlarining tarjimasi.

2. Zamonaviy yozuvchilarning o‘tmishga murojaat etib yozgan asarlari tarjimasida¹¹⁵.

Roman va hikoyalar tarjimasida adib XVIII asr voqeligini tasvirlashda, qahramonlar xarakteristikalarini yaratishda, ta’bir joiz bo‘lsa, shunday “oraliq” usulni tanlaganki, natijada asar butunlay

¹¹⁴ Саломов Ф. Таржима ташвишлари. –Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 172.

¹¹⁵ Влахов С.М., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва, “Международные отношения”, 1980. – С.133.

arxaik soʻzlarga koʻmib ham tashlanmagan yoki boshdan oyoq zamonaviylashtirilmagan¹¹⁶.

U tasvirni asliyatning harfma-harf tarjimasidan emas, balki asar ruhiyatining oʻzi keltirgan versiyasi tasviridan izlaydi. Biroq oʻzi uchun yaxshi koʻringan holat tarjimasini tanlagan mutarjim matnning milliy ruhini ham unutmasligi, uning tarjimasi asar saviyasi uchun naqadar muhim ekanini bilishi shart¹¹⁷.

Tarjimalarda frazeologizmlar orqali har bir millatning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda uning madaniy kodlardan tarkib topgan komponent soʻzlari asos vazifasini oʻtaydi. Aynan mana shu madaniy kodlar muayyan xalqning oʻziga xos milliy madaniyatini namoyon etadi. Binobarin, milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarni hosil qilishda (milliylikka oid soʻzlar) madaniy kod boʻlib xizmat qiladi.

Til boʻlaklari orasida aynan frazeologizmlarda madaniyat va urf-odatlar oʻzining toʻlaqonli ifodasini topgan boʻladi. Shuning uchun ham tilning frazeologik tizimi lingvomadaniyatshunoslik oʻrganadigan obyektlaridan biri sanaladi¹¹⁸.

Milliy-madaniy konnotatsiya lisoniy maʼnolarni u yoki bu madaniy fon bilan muvofiqlashtiradi va nafaqat frazeologizmlar yoki soʻzlar, balki matn mazmuniga ham madaniy qiymat beradi.

V.A.Maslovaning qayd etishicha, “frazeologizmlar” semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy, tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va maʼnaviy-madaniy meʼyorlar, diniy tasavvurlar, milliy anʼana va urf-odatlar, madaniy stereotip va arxetiplar oʻz aksini topgan boʻlib, ular avlodan-avlodga uzatiladi¹¹⁹

¹¹⁶ Алексеева И.С. Текст и перевод. Вопросы теории. – М.: Международные отношения, 2008. – С.184.

¹¹⁷ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – С.253.

¹¹⁸ Сайдакбарова С. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида гастронимик фразеологизмлар. Монография, 2022. –Б.25.

¹¹⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 80.

Masalan, *“Dinner was drawing to a close. The food had been good, the wine perfect. Rogers waited well. Every one was in better spirits. They had begun to talk to each other with more freedom and intimacy”*[WN,53] parchasi ruschaga xalqning urf-odatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha o‘girilgan: «Обед близился к концу. Еда была отменная, вина великолепные. Роджерс прислуживал безукоризненно. Настроение у гостей поднялось, языки развязались» [DN, 24].

Milliylikni tarjimada aks ettirish nihoyatda nozik va mushkul bo‘lib, bunda faqat so‘z va tushunchalarni emas, balki ular anglatgan ma’nolarni berish va tarjima o‘quvchisida tasavvur hosil qilish muhim hisoblanadi. H.Teshaboyev tomonidan rus tilidan (bilvosita) qilingan tarjimada frazeologizmlar quyidagicha berilgan: *“Tushlik oxirlab borardi. Taomlar mazali, vino ajoyib edi. Rojers bekam-u ko‘st xizmat qildi. Mehmonlar kayfiyati ko‘tarilib, tili yechildi”* [O‘N, 34]¹²⁰.

O‘zbek tili izohli lug‘atida *“tili yechildi”* birikmasi ko‘pdan beri o‘zaro munosabat qurmagan odamlarning bir dasturxon atrofida yig‘ilib, ko‘ngilga yaqin odamlari bilan gaplashib qolishi va suhbatiga aytiladi¹²¹. Biroq bu bevosita tarjimada, tarjimon tomonidan quyidagicha berilishi mumkin edi: *“Kechki ovqat tugash arafasida edi. Ovqatlar biram mazali, sharob esa ko‘p yillar oldin oliy navli uzumdan tayyorlangan nafis ta‘mli edi. Rojers mehmonlarga yaxshi xizmat qildi. Hammaning kayfiyati a‘lo edi. Mehmonlar bir-birlari bilan bermalol va dildan suhbatlashib o‘tirishgandi”*.

Masalan: *“Emily Brent looked at Vera Claythorne.*

Vera Claythorne looked at Miss Brent. The two women rose. In the drawing-room the French windows were open on to the terrace and the sound of the sea murmuring against the rocks came up to them.

Emily Brent said, ‘Pleasant sound’

¹²⁰ Кристи А. Ўнта негр боласи: роман / Агата Кристи. Рус тилидан Х.Тешабоев таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 224.

¹²¹ Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T., To‘xliyev N., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. – Б.67.

Vera said sharply, 'I hate it.'

Miss Brent's eyes looked at her in surprise. Vera flushed. She said, more composedly: 'I don't think this place would be very agreeable in a storm.' Emily Brent agreed" [WN,54].

Rus tilidagi tarjimasi: “Эмили Брент и Вера Клейторн переглянулись и поднялись с мест. В распахнутые настежь стеклянные двери столовой доносился шум бившегося о скалы прибоя.

– Люблю шум моря, – сказала Эмили Брент.

– А я его ненавижу, – вырвалось у Веры.

Мисс Брент удивленно посмотрела на нее. Вера покраснела и, овладев собой, добавила:

– Мне кажется, в шторм здесь довольно неуютно. Эмили Брент согласилась” [DN, 24-25].

O‘zbek tilidagi bilvosita tarjimasida ushbu parcha quyidagicha berilgan: *Emili Brent bilan Vera Kleytorn bir-biriga qarab olgach, o‘rnidan turishdi. Shiddat bilan qoyaga urilayotgan dengiz to‘lqinlarining shovqini oshxonaning lang ochiq oynavand eshiklaridan yaqqol eshitilib turardi.*

– *Dengiz shovqinini yaxshi ko‘raman, – dedi Emili Brent.*

– *Men bo‘lsa toqat qilolmayman, – beixtiyor aytib yubordi Vera. Miss Brent unga ajablangancha qarab qo‘ydi. Vera qizarib ketdi va o‘zini qo‘lga olib qo‘shib qo‘ydi:*

Menimcha, dovul paytida bu yer ancha notinch bo‘ladi, Emili Brent ma’qulladi [O‘N, 35].

Parcha mazmunida milliylik tabiat tasviri va interyer uyg‘unligida o‘z ifodasini topgan. Agata Kristi sof britaniyalik bo‘lib, uning asarlarida Yevropaga xos bo‘lgan urf-odatlar, taom va ichimlik nomlari, hatto o‘zini tutish odobi ham boshqanikidan farq qiladi. Ingliz tilidagi milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarning muqobil varianti guruhga ajratildi va quyidagi frazeologizmlarni keltirish mumkin (2.2-jadvalga qarang).

**Ingliz tilidagi milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarning
o‘zbek tilidagi muqobil variantlari**

Frazeologizm	O‘zbekcha ma’nosi	O‘zbekcha muqobili
Emily Brent looked at Vera Claythorne	Emili Brent bilan Vera Kleytomn bir-biriga qarab olgach, o‘rnidan turishdi.	Emile Brent Vera Klaytonga qaradi
Vera Claythorne looked at Miss Brent		Vera Klayton Emile Brentga qaradi
Emily Brent said, ‘Pleasant sound’.	Dengiz shovqinini yaxshi ko‘raman, – dedi Emili Brent.	Yoqimli ovoz (dengiz shovqini nazarda tutilyapti).
Vera said sharply, ‘I hate it’.	Men bo‘lsa toqat qilolmayman, – beixtiyor aytib yubordi Vera.	Vera keskin ohangda “Men dengiz shovqinini yomon ko‘raman”, dedi.
I don’t think this place would be very agreeable in a storm.	Menimcha, dovul paytida bu yer ancha notinch bo‘ladi.	Menimcha, dovul paytida bu yer ancha notinch (vahimali) bo‘ladi.
He just keeps moving the goalposts.	U vaziyatga qarab o‘zgartirardi.	U o‘z foydasi uchun ishlardi doimo.
She has completely knocked me for six	U doimo meni hayratda qoldirardi.	Uning xatti-harakatlaridan biz taajjubda qolardik.
People here like to play hardball.	Odamlar adolatsiz ishlardi.	Adolatsizlik ufurib turardi.
Her new company is a whole new ball game.	U kompaniya juda qiyin vaziyatda qolgandi.	Kompaniya bankrotlik e‘lon qildi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda ingliz tilida ikki, uch, to‘rt va undan ortiq komponentli frazeologizmlarning tarjimalari berilgan. Ma’lumki, so‘z ma’nosi kontekst ichida ochiladi. Ko‘rsatilgan frazeologizmlaridan barchasi o‘z muqobiliga ega. Detal (frazeologizm) tanlashda muallifning hayotni chuqur tushunishi, odamlar psixologiyasini o‘rganganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ko‘pincha subyektiv, ya’ni tarjimon nuqtayi nazaridan kelib chiqib tanlanadi. Demak, tarjimaga hikoyaning eng asosiy qismi bo‘lishi bilan birga shu qismda muallif pozitsiyasining eng yorqin namoyon bo‘lish o‘rni ham deb qaramoq kerak¹²². Bundan tashqari, frazeologizmlar o‘quvchini muallif tomonidan oxirigacha yetkazilmagan manzarani to‘ldirib, u bilan hammualliflik qilishga undaydi. Tarjimon millat madaniyati va milliy urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tarjimani asliyat mazmuniga xos tarzda yaratgan, ya’ni “bir-biriga qarab qo‘ydi” iborasi bilan soddagina qilib bera qolgan. Shu o‘rinda X. Hamidovning¹²³ quyidagi tahlillariga to‘xtalib o‘tsak: “Badiiy tarjimada muallif yaratgan obrazlar va asar syujetidan tashqari, yozuvchining ijodiy shaxsiyati, uslubi, adabiy manerasining qayta yaratilishi ham talab etiladi. Tarjimonning iste’dodi muallifning manerasini o‘zida ijodiy mujassamlantira olganligida namoyon bo‘ladi”. Tarjimon xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so‘zlarning ma’no va shakllaridan ko‘ra ko‘proq ularning muayyan matnlarda bajaradigan vazifalarini qayta yaratish muammolarini hal etishi lozim. Bizningcha, milliy-madaniy so‘zlarni o‘rganishda muayyan kontekstlarda uchraydigan realialarning informativ va uslubiy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni tarjima tili me’yorlari hamda madaniyatiga mos birliklarga muvaffaqiyatli almashtira olish nihoyatda muhim hisoblanadi.

Masalan: *“The voice had stopped. There was a moment’s petrified silence and then a resounding crash! Rogers had dropped the coffee tray!”*

¹²² Адабий турлар ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1991.–Б.67.

¹²³ Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография, – Т.: 2022. – Б.142.

At the same moment, from somewhere outside the room there came a scream and the sound of a thud. Lombard was the first to move. He leapt to the door and flung it open. Outside, lying in a huddled mass, was Mrs Rogers.

Lombard said to Rogers:

'Get some brandy.' Rogers, his face white, his hands shaking".

Ruscha tarjimasi: «Голос прекратился. На мгновение воцарилась тишина, а затем оглушительный треск!

Роджерс уронил поднос с кофе!

В тот же момент откуда-то из-за пределов комнаты раздался крик и звук удара. Ломбард двинулся первым. Он подскочил к двери и распахнул ее. Снаружи, сгорбившись, лежала миссис Роджерс.

Ломбард сказал Роджерсу:

– Принеси бренди, – Роджерс с бледным лицом и трясущимися руками».

O'zbekcha bilvosita tarjimasi: Shovqin to 'xtadi.

Bir lahzalik toshbo 'ronli sukunat, keyin esa jarangdor zarba!

Rojers kofe patnisini tushirib yuborgan edi!

Xuddi shu payt xonaning tashqarisida qayerdandir qichqiriq va duduq ovozi eshitildi. Lombard birinchi bo 'lib harakat qildi.

U eshik oldiga otildi va uni ochdi. Tashqarida Rojers xonim to 'planib yotardi.

Konyak olib keling, Rojers, – buyruq berdi Lombard. Rojers bo 'zdek oqarib ketgan, qo 'li tinimsiz qaltirardi [O'N,38].

Bilvosita tarjimada Lombard said to Rogers: "Get some brandy."

Rojersning so'zma-so'z tarjimada, konyak olib keling deganini H.Teshaboyev buyruq ohangi bilan "Konyak olib keling, Rojers", – buyruq berdi Lombard tarzida berdi, sababi rus tilidagi tarjimasida «Принесите коньяк, – приказал Роджерсу Ломбард» buyruq gap berilgan edi. Bu tarjima ishlarini ishonchli chiqqan deya olmaymiz. Unda tarjimon muallif uslubining nozik qirralarini so'z vositasida ochib bera olmagan, parcha deyarli so'zma-so'z o'girilgan bo'lsa-da, muallif fikri

tarjimada ishonchli aks etmagan. Badiiy asarni tarjimada shirasiz va befoyaz qilib qo'yish uchun ko'plab qo'pol lug'aviy nuqsonlarga yo'l qo'yish shart emas, balki bir nechta nozik lavhani chiqara olmaslik, nishonga uradigan bir-ikkita xarakterli frazeologizmni tashlab ketish bilan uni izdan chiqarish, asarning badiiy ta'sir quvvatini susaytirib qo'yish mumkin¹²⁴.

Noqardosh xalqlarning roman va hikoyalar to'plamini o'zbek tiliga tarjimalarida millat madaniyati va urf-odatlariga mansub ba'zi so'zlar tarjimon va to'plovchilar nazaridan chetda qolib ketganligi, milliy tabiatini o'zida namoyon etuvchi ba'zi etnografik detallar tafsiloti yetishmasligi, asliyatdagi ayrim milliy leksik va frazeologik birliklarning tarjima tilida mos kelmaydigan boshqa birliklar bilan o'girilish holatlari, O'zbekiston hududi va muhitida yashovchi xalqlar va elatlar hayotini to'liq idrok eta olmaslik tufayli hikoyalardagi milliy tushunmovchiliklar yuzaga kelganligi aytiladi. Bu esa hikoyalardagi milliy ruhni ilg'ashga xalal beradi.

Hikoyalar tarjimasi milliy o'ziga xosligi nafaqat uning mazmunida, balki shu hikoya va qissalarda aks etgan maishiy hayotning betakror badiiy talqini, obrazlarning realligi va tilida ko'rinadi. Biroq o'zbek tili frazeologik birliklarga, tasviriy ifodalar va maqollarga boyligi bu jihatdan tarjimonlarni mushkul ahvolga solib qo'yganligi kuzatiladi.

Asliyatda: *"He took a letter from his pocket and tossed it on to the table.*

'This purports to be from an old friend of mine, Lady Constance Culmington. I have not seen her for some years. She went to the East'"[WN, 73-74].

Ruscha tarjimasida: *«Он вынул из кармана письмо, бросил его на стол. – Письмо написано якобы от имени моей старинной приятельницы – леди Констанции Калмингтон. Я давно не видел ее. Несколько лет тому назад она уехала на Восток»* [DN, 34].

O'zbekcha bilvosita tarjimasida: *"–Cho'ntagidan xatni olib, stol ustiga tashladi. – Go'yoki menga eski tanish ayol ledi Konstansiya*

¹²⁴Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. –Б.60.

Kalmington nomidan yozilgan. Ko‘rmaganimga ancha bo‘lgan. Ko‘p yillar avval Sharqqa jo‘nab ketgandi. Xatga shubha qilmadim. Chunki u ham shunday chalkash va beo‘xshov xat yozgan bo‘lardi” [O‘N, 49].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada esa: *U cho‘ntagidagi xatni olib, stolga qo‘ydi. “Bu mening eski do‘stim Konstans Kalmington xonimdan bo‘lsa kerak. Men uni bir necha yillardan beri ko‘rmadim. U Sharqqa ketgandi. Faqat u aynan shunday noaniq, tushunarsiz maktub yozar edi, chunki u ham shunday chalkash va beo‘xshov xat yozgan bo‘lardi*”.

Bilvosita tarjimada ledi-xonim, pala-partish – tartibsiz shaklda, *“ayolmi- erkakmi, bizni taniydi*” frazeologizmlari asl matnda umuman berilmagan.

Tarjimon buni ma‘noni yaxlitlash uchun, voqeaga kengroq ta‘rif berish uchun qo‘llagan. Aslida, tarjima nazariyasidagi aksar konsepsiyalarda ta‘kidlanishicha, tarjima hamma vaqt shakl va mazmunni uyg‘un holda tiklashdek ijodiy jarayon bo‘lib, u tarjimondan asliyatning mazmuniy va g‘oyaviy birligini qayta yaratish bilan bir qatorda uning muvofiq shaklini tiklashni ham talab qiladi. Zero, “...badiiy asar tarjimasi kasbiy-mexanik emas, ijodiy amalni, ya‘ni so‘z musavvirining ishtirokini talab qiluvchi masaladir”¹²⁵, deb ta‘kidlaydi

A. Fyodorov.

G‘.Salomovning fikriga ko‘ra, tarjimada til o‘zgarishi barobarida ba‘zan uslubiy siljish hodisasi ro‘y beradi. Ko‘p hollarda tarjimon bundan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanadi va bunda uslubiy moslashtirish hodisasi yuzaga chiqadi. Tarjimachilikda esa bu borada doimo ikki qarash to‘qnash kelgan: 1. Tarjimon o‘z uslubi bilan tarjima qilishi, ya‘ni bunda uning o‘zligi ham sezilib turishi kerak. 2. Tarjimon muallif qiyofasiga o‘zini unutib yuboradigan darajada kirishib ketishi kerak.

“Puaro tergov qiladi (Hercule Poirot)”¹²⁶ hikoyalar to‘plamining ingliz tili orqali bevosita tarjimasida o‘zbek tili boyligidan oqilona foydalanilgan. Uslubiy moslashtirish maqsadida o‘zbek frazeologizmlari,

¹²⁵ Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1983. – С. 295.

¹²⁶ Christie A. The Mysterious Affair at Styles. (Hercule Poirot), Copyright, By John Lane Company.: 1920. – P.83.

maqollari, so‘zlashuv uslubi unsurlari me‘yorida va o‘rinli ishlatilgan. O‘zbek xalqi uchun begona bo‘lgan ayrim tushunchalar qolipiga solib berilgan. Natijada tarjima ishonchli chiqqan.

Agata Kristi: *“I will therefore briefly set down the circumstances which led to my being connected with the affair”* [MA, 9].

Ruscha tarjimasi: *«Поэтому я кратко изложу обстоятельства, которые привели к тому, что я был связан с этим делом»* [EP, 4].

Rus tilidan qilingan tarjima: *“Bog‘lanishimga sabab bo‘lgan holatlarni qisqacha aytib beraman”* [EP, T, 4]. Agar asliyat jumlasini inglizchadan bevosita o‘girilsa, quyidagicha ko‘rinish oladi: *“Shuning uchun men bu ish bilan bog‘lanishimga sabab bo‘lgan holatlarni qisqacha aytib beraman”*.

Asliyatdagi *“briefly”* so‘zi o‘z qatlamiga xos bo‘lib, *“qisqacha”* ma‘nosini beradi. Tarjimada unga muvofiq ekvivalent topmoq darkor edi. O‘zbek tilida boshqa ma‘nodoshlari mavjud emas ekan, I. Ahmedov buning o‘rniga xalq tilidagi *“qisqa qilib”*, ya‘ni *“ozroq”* iborasini o‘rinli qo‘llagan va shu tariqa personajning oddiy tabaqaga mansubligiga ishora etgan.

Har bir badiiy asarning mazmuni uning asosini tashkil etadigan alohida birikma va jumladan hosil bo‘lgani kabi asar shakli ham uning tarkibidagi alohida unsurlarga bog‘liq holda yuzaga keladi. Tarjimada ularning mazmun bilan uyg‘unlikda qayta yaratilishi asar badiiyatini ta‘min etadi. Bu jarayonni ingliz tadqiqotchisi M. Xellidey¹²⁷ yaratgan tarjima konsepsiyasi bilan bog‘lash mumkin. Uning fikricha, tarjima ikki til birliklarining o‘zaro qiyoslanishiga asoslanadi va bunday qiyos kontekstual ekvivalentlik mavjud yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Kontekstual ekvivalentlik mavjud ekanligi isbotlangandagina formal ekvivalentlik, ya‘ni birliklarning til tarkibidagi o‘rnidan kelib chiqqan holatda muqobillik masalasi qo‘yilishi mumkin.

¹²⁷ Halliday M. A. K. *Explorations in the functions of language*. Edward Arnold (Publishers) Ltd., 25 Hill Street, London W1X 8LL, England (1.00 pound paper). 1973. – C.72

Rus adabiyotida “Hamlet” tragediyasining ellikdan ortiq tarjima talqinlari bor, bular orasida B.Pasternak va M.Lozińskiylarning zamonaviy ajoyib tarjimalari asliyat bilan barobar nashr qilinib keladi. Shunga qaramay, rus tarjimashunos mutaxassislaridan birortasi hozirgacha “Nihoyat, ideal, klassik rus “Hamlet”iga erishdik”, degan fikrni baralla aytgan emas. Aksincha, tragediyaning yangi ruscha tarjimasiga zarurat borligi allaqachon e’lon qilingan. Rus adabiyotida bu asar o’zining mohir, zabardast yangi tarjimonini kutmoqda¹²⁸.

Ma’no va uslubiy vazifalari uyg’un badiiy ifoda vositalarining har qaysisi o’ziga xos shakllarga egaki, tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi bilan almashtirish asliyat va tarjima o’rtasidagi adekvatlikni yuzaga keltiradi. Bu esa ifodaning funksional jarangdorligini ta’min etish bilan birga shakl va mazmun butunligini o’z o’rnida saqlay oladi. Quyidagi misolni tahlilga tortamiz:

“It must be a difficult situation for you all”.

“Difficult! It's damnable!” [MA, 13].

Ruscha tarjiması: «*Это должно быть трудная ситуация для всех вас*».

«Трудно! Это чертовски!»

O’zbekcha bilvosita tarjima: “*Hammangiz uchun o’ta qiyin vaziyat bo’lsa kerak*”. “*Jin ursin*”.

Ingliz tilidan bevosita tarjima: “*Hammangiz uchun qiyin vaziyat bo’lsa kerak*”. “*Qiyin! Eh la’nati!*” [EP, T, 14].

O’zbeklarda la’nati, juvon o’lgur, basharang qursin, so’xtasi sovuq so’zlari–qarg’ish ma’nosida ifodalanadi va bu eskirmagan ibora hisoblanadi. Shunday ekan, jo’n qarg’ish so’z o’rniga, tayyor qolipdan foydalanish ayni muddao. Bu usul qo’llansa, hech qanday stilistik xatoga yo’l qo’yilmaydi ham¹²⁹.

¹²⁸ Хасхачих Ф.И. О познаваемости мира. Госполитиздат., 1950. – С.50.

¹²⁹ Qarg’ish janri nihoyatda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Mahmud Qoshariy XI asrda yashagan turkiy xalqlar lahjasidagi “qarg’aq” so’zini “qarg’ish” so’ziga sinonim tarzda ishlatganligi haqida ma’lumot beradi. “Qarg’ish” so’zining ma’nosi “yomon so’z aytish” degan tarixiy ma’noga ham ega. Umuman olganda, qarg’ish so’zlar qadimdan mavjud bo’lib, barcha xalqlar tilida keng foydalanilib kelingan folklor janri hisoblanadi. Qarg’ish so’zlar folklor janri bo’lishiga qaramay, ular biror doston, qo’shiq, ertak kabi janrlarda bo’lgani singari

Siddiq Mo‘minning “So‘zlashish san’ati” kitobida “Qarg‘ish so‘zlar lingvokulturologiya sohasining ham o‘rganilishi zarur manbalaridan hisoblanadi. Chunki har bir xalq madaniyatida qarg‘ishlar o‘z o‘rni va mavqeiga egadir. Istalgan xalqning foydalanayotgan qarg‘ishiga qarab u xalq haqida ilk tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Qarg‘ish so‘zlarni gender tilshunosligi jihatidan tadqiq etadigan bo‘lsak, ushbu so‘zlar ayollar nutqida keng qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz. Ayollar foydalanadigan qarg‘ish so‘zlar ijobiy va salbiy jihatiga ko‘ra ham farqlanadi. Ayollar nutqida qo‘llanayotgan qarg‘ishlarning salbiy jihati ularning katta qismida o‘lim tilash ma‘nosi anglashilishidadir” deb keltirib o‘tgan.¹³⁰

Agata Kristi: *“A lady in a stout tweed skirt, who was bending over a flower bed, straightened herself at our approach”* [MA, 15].

Rus tilidagi tarjima: *«Дама в толстой твидовой юбке, склонившаяся над клумбой, выпрямилась при нашем приближении».*

Rus tilidan tarjima: *“Qalin tvid yubka kiygan, gulzorga suyanib turgan xonim biz yaqinlashganimizda qaddini rosladi”* [EP, T.12].

Inglizchadan tarjima: *“Tvid yubka kiygan, gulzor ustida engashib o‘tirgan xonim biz bilan yaqinlashgandan so‘ng qaddini rosladi”.*

Birinchidan, R. Jabborovning *“qalin yubka kiygan”* shakli *«qalin tvid yubka kiygan»* dan yaxshiroq chiqqan, lekin aslida bu inglizchadagi *“A lady in a stout tweed skirt”* qattiq yubka iborasiga yaqinroq ham. Ikkinchidan, o‘zbeklarda ayollar kiyimiga nisbatan jimjimadorlik ottenkasini ifodalash maqsadida qalin matodan tikilgan ma‘nolarini *«yubkaga nisbatan qalin»* takrori bilan muvaffaqiyatli bersa bo‘ladi.

Umuman hikoyaning bilvosita tarjimasida ruscha tarjimaga tayanib qolib, vositachi til muhitida o‘ralashib, tarjima tili leksik boyligini esdan chiqarish holatlari ko‘p uchraydi.

alohida tayyorgarlik bilan maxsus obraz tomonidan ijro etilmasligi bilan ham ajralib turadi. Ba’zi qarg‘ishlarda zamonga yoki biror tarixiy voqeaga xos so‘zlar qo‘llanilib qarg‘ishlarning etimologik jihatini yangilab boradi. Misol uchun “Jin ursin seni”, “Telefoning singur”, “Televizoringga o‘t tushsin” kabi qarg‘ishlar fikrimizga yorqin dalildir.

¹³⁰ Сиддиқ Мўмин. Сўзлашиш санъати. – Фарғона, 1997. – С.23

K.Chukovskiy aytganidek, «yomon tarjimonlar o‘ziga xos miya kamqonligidan aziyat chekadilar, bu ularning matnini ham shirasiz qilib qo‘yadi»¹³¹. Bu bilan biz bilvosita tarjima egasini ana shunday tarjimonlar qatoriga kiritib qo‘ymoqchi emasmiz, chunki uning boshqa ijod namunalaridagi yutuqlar yetarlicha e’tirof etilgan. Biroq gap aynan “Erkyul Puaro tergov qiladi” detektiv hikoyasi tarjimasi ustida ketar ekan, shirasiz jumlar ko‘plab ko‘zga tashlanadi.

Masalan: 1. *"He's always looked that way"* [MA, 27]. Ruscha tarjimasi: «Он всегда был такой» Rus tilidan tarjimasi: “*U doim shunaqa*”. Ingliz tilidan tarjima: “*Bu bolaning zuvalasi shunaqa*”. O‘zbek tilida gavdaning tuzilishiga ishora qilinganda, “*zuvalasi unaqa, bunaqa*” deya tasvirlanadi. “*Zuvala*” so‘zi rus, inglizlarga tushunarli bo‘lmasa ham, o‘zbeklarga qadrdon.

2. *"I looked with some curiosity at Alfred darling"*. [MA,17]. Rus tilidagi tarjima: «Посмотрел с некоторым любопытством на любимого Альфреда». Rus tilidan tarjima: “*Suyukli Alfredga qandaydir qiziqish bilan qaradi*” [EP, T, 19]. Ingliz tilidan tarjima: “*Alfred sevgilisiga qandaydir qiziqish bilan qaragan*”ini ifodalaydi. O‘zbek tilida “*sevgilim, suyukligim*” bilan bog‘liq birikmalar ko‘proq biror kishiga ko‘ngil berishi, mehr berishi orqali mo‘min-qobil qilib qo‘yishni anglatadi. Shunday ekan, “*Suyukli Alfred*”dan ko‘ra ikkinchi tarjimadagi berilgan frazeologik ibora Alfred kayfiyatini to‘laqonliroq aks ettirib bera olgan, deya hisoblaymiz. “Tarjima jarayoni muallifning asarda nimani aks ettirganini tasavvur qilishdan boshlanadi. Tarjimonning tafakkurida namoyon bo‘luvchi bu tasavvurda faqatgina asliyatda nima deyilgani, ya’ni mazmuni emas, shakli ham dialektik uyg‘unlikda yaxlitlik kasb etadi. Bularning barchasi bir organik butunlikda mavjud bo‘lib, mana shunday butunlikda tarjimon tafakkurida ham aks etadi. Bu degani, tarjimon asliyatdagi badiiy voqelikni tasavvur qilib olgach, uni muallifda

¹³¹ Чуковский К. Высокое искусство. – М.: СП, 1968. – С. 103.

ham ba'zan yo'q bo'lishi mumkin bo'lgan leksik ekvivalentlar bilan qayta tiklash huquqini qo'lga kiritadi"¹³².

"So we've been wrong – wrong all along! Built up a nightmare of superstition and fantasy all because of the coincidence of two deaths!" [WN, 151]. Ruscha tarjimasi: «Итак, мы ошиблись, ошиблись буквально во всем, – сказал Ломбард. – Выдумали какой-то кошмар–плод суеверий и расходившегося воображения, и все из-за двух случайных смертей» [DN, 70]. Ruscha tarjima: “– Demak, biz adashdik. Deyarli hammasida adashdik, – dedi Lombard. – Ikkita tasodifiy o'lim tufayli sarosimaga tushib, allaqanday dahshatni to'qib chiqardik” [O'N, 103].

Ingliz tilidan bevosita tarjima: “–Demak, biz hammasida adashdik, – dedi Lombard. – Ikkita tasodifiy o'lim tufayli har xil xayolga borib, tunda bo'ladigan allaqanday dahshatli xurofotlarni to'qib chiqardik». O'ta qattiq qo'rqib ketish holatini “sarosimaga tushib qolish, allaqanday dahshatli hurofotlar” frazeologik birikmasi bilan berilgani muqobillikni vujudga keltirgan. Quyidagi misolning bevosita tarjimasida ingliz tilidagi o'ziga xos so'z o'yini asliyatdasisiga muvofiq tiklangan. *“Blore looked slightly embarrassed. His red-brick face grew a little deeper in hue. He said, almost blurting out the words:*

‘Look here, doctor, you did give her some dope, you know’ [WN, 152].

Ingliz tilidan bevosita tarjima: *“Blor biroz xijolat tortganday bo'ldi. Uning qizargan yuzi yanada qizarib to'qlashdi.*

– Doktor, axir siz unga qandaydir dori (doping¹³³) berdingiz-ku! – dedi g'uldirab kutilmaganda”. Muallif yuqoridagi suhbatda doktorning ushbu holatdagi ko'rinishini tasvirlagan. Shu o'rinda F.I. Xasxachixning

¹³² Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.: СП, 1972. –С. 126.

¹³³ Doping [ing. doping, dope – narkotiklar bermoq] – organizmning ruhiy va jismoniy faoliyatini qisqa muddat kuchaytiradigan moddalar. Sport o'yinlari natijalarini yaxshilash maqsadida qo'llanilgan. Sportchilar orasida dopingdan zaharlanish va o'lim holatlari kuzatilganligi uchun 1967-yildan Xalqaro olimpiada qo'mitasi sport o'yinlari chog'ida doping qabul qilishni man etgan va qat'iy nazorat o'rnatgan. Uni ishlatgan sportchilar o'yindan chetlashtiriladi.

quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: "Asl nusxa (original)ning matnigina hamma davrlar uchun yagona, o'zgarmas bo'lib qolishi mumkin. Lekin avlodlar yangi, yanada "zamonaviy", mukammal tarjimalarga ehtiyoj seza boshlaydi"¹³⁴.

Yuqoridagi misollar tahlilidan so'ng I. Leviy nazariyasi yana bir bor o'z isbotini topdi. Ya'ni "tarjima uchun lug'at boyligining qashshoqlashuvi uch xil stilistik ko'rinishga ega:

- 1) aniq ifoda o'rniga umumiy tushunchadan foydalanish;
- 2) emotsional bo'yoqdorlikka ega so'z o'rniga uslubiy neytral birlikdan foydalanish;
- 3) sinonimikani yetarlicha qo'llay bilmaslik"¹³⁵.

Shakl va mazmunning dialektik birligi har bir asarda mujassam bo'ladi. U asarni tashkil etadigan parcha va jumlalarda, hatto ibora va so'zlarda ham aks etadi. Funksional-semantik xususiyat har bir tilda, har bir yozuvchi ijodida o'ziga xos uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Turli stilistik usullar hamda tasviriy vositalarning tarjimada qayta tiklanishi shakl va mazmunni yaxlit holda talqin etishga ko'mak beradi.

R.Jabborovning bevosita tarjimalari qatorida taniqli amerikalik yozuvchi, dramaturg Irving Stounning "Hayotga tashnalik" romani ham bor¹³⁶. Ushbu roman birinchi marta o'zbekchaga Munira Norova tomonidan rus tili orqali o'girilgan va "Jahon adabiyoti" jurnalining 2012-yil 12-sonida bosilib chiqqan.

Tarjima asarning milliy xususiyatini buzmaganda asl milliy xususiyatlarini bera olishi kerak. Frazologizmlarda tahlil qilingan barcha tarjima ishlari asliyati bilan unchalik mos kelmaydi.

Umuman, tarjima qilinayotgan asarning o'ziga xosligi, bo'yoqdorligini saqlab qolish, o'quvchiga yetkazish vazifasi tarjimon oldiga asarning g'oyaviy mazmuni va badiiy kuchini to'la ochib berishdan tashqari, asarning milliy ruhi, obrazlar xarakteridagi milliy o'ziga xoslikni saqlash va o'quvchiga yetkazish vazifasini ham qo'yadi.

¹³⁴ Хасхачих Ф.И. О познаваемости мира. Госполитиздат., 1950. – С.52.

¹³⁵ Левый И. Искусство перевода. – Москва: Прогресс, 1974. – С. 155.

¹³⁶ Стоун И. Ҳаётга ташналик. Роман. (Рус тилидан Р. Жабборов таржимаси). 1999.– Б.47.

Zero, tarjimalarning milliy o'ziga xosligi, dastavval, uning mazmunida, shu asarda aks etgan maishiy hayotning betakror talqini, obrazlarning realligi va tilida ko'rinadi. Har qanday asarning tilida ifodalangan milliy ruhni berish g'oyatda mushkul¹³⁷. Chunki har qaysi xalqning tili shu xalqning hayoti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, uning fikr tarzini aks ettiruvchi frazeologik birliklar, tasviriy ifodalar va maqollarga boyligi bilan o'ziga xos joziba kasb etadi. Tarjimonning ijodiy mahorati mana shu badiiy ifodalarning milliy rangini yo'qotmagan holda tasvirlab, uni o'zga tilda qayta yaratishda namoyon bo'ladi.

Tili, madaniyati, tarixi, dini bir-biriga yaqin bo'lmagan ingliz va o'zbek xalqlari tilida keng qo'llanib kelayotgan bunday birliklarning semantikasi, grammatik shakllanish qonuniyatlari, sintaktik tuzilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rganish tilshunoslik bilan bir qatorda tarjimashunoslik fanining ham muhim obyekti sanaladi va uni alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Frazeologik birliklarning to'laqonli tarjimasini aslyat tili hamda tarjima tilining shakl va ma'no jihatdan mutanosibligiga bog'liq bo'ladi.

Frazeologizmlarni tarjima qilishda tarjimonlarning quyidagicha qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi, ya'ni a) tarjimada muayyan ibora yoki so'zning tarjimasini lug'atdan topa olmaslik yoki to'g'ri keladigan tarjima variantini tanlay bilmaslik; b) matnda iboralarni aniqlay olmaslik; d) obrazlilik xususiyatiga ega bo'lmagan frazeologizmlarni farqlay bilmaslik; e) to'liq va qisman mos keladigan ekvivalentga ega frazeologizmlarni tarjima qila olmaslik.

Frazeologik birliklar, xususan, maqol, matal va iboralar xalqning tarixi, urf-odati, hayot tarzi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Ingliz va o'zbek tillarida tashqi tomondan tushunarli, so'zma-so'z tarjima qilinishi mumkinday ko'ringan birikmalarni o'girish ayrim hollarda jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

¹³⁷ Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С.79.

III BOB. INGLIZCHADAN TARJIMADA FRAZEOLOGIZMLAR MA'NOSINI BERISH MUAMMOLARI

3.1-§. Agata Kristi asarlaridagi frazeologizmlar tarjimasining o'ziga xosliklari

G'arb mamlakatlari adabiyotining ajralmas qismi bo'lgan Angliya adabiyoti va inglizxabon ijodkorlar sanalgan amerika adabiyoti vakillari asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketganda, qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o'zbek kitobxonlari e'tiborini darhol o'ziga tortdi va tez orada ularning ko'pchiligi xalqimizning sevimli asarlariga aylandi.

Voqelikni qayta yaratish metodikasini ishlab chiqish tarjima estetikasining ilk shartlaridan biridir. Gap tarjimonning personajlar, ular o'rtasidagi konflikt sabablari, voqea sodir bo'ladigan muhit haqida umuman aniq tasavvurga ega bo'lishi xususidagina emas, balki tarjimonning ancha keng xabardorligi masalasida boryapti: tasvirlanayotgan voqealar ortida nima turibdi, chinakam xarakterlar, haqiqiy turtki nimadan iborat?

Xullas, vaqt-soati kelguncha kitobxondan pinhon saqlangan va uni asta-sekin voqif qilinishi ko'zda tutilgan narsalar haqida gap boradi. Masala shundaki, konfliktning borishi va yechimidan xabardor bo'lgani, xarakterlarni ravshan tasavvur qilgani holda, tarjimon muallifning bular barchasini kitobxonga darhol aytib qo'ya qolmasligini, vaqti kelgunga qadar muallifning personajga yoki personajlar o'rtasidagi aloqalarga o'z munosabatini pinhon tutganini unutib qo'ygani holda, adibning umumiy niyatini anglab yetmay, bularning barchasini kitobxonga barvaqt aytib qo'yishi mumkin.

Masalan: Asliyatda *"Mrs Rogers' breath came in quick gasps"* [WN, 67].

O'zbekcha bilvosita tarjimada ushbu frazeologizm qisqa va lo'nda qilib "Uning yuragi tez ura boshladi" tarzida berilgan.

Bevosita tarjimada: *“mister Rojersning nafas olishi tezlashib ketdi (bu suv ostida biroz suzgandan keyin hovuz yuzasiga chiqqanda foydalanadigan nafas turi)”*.

Tarjimon o‘zining voqealardan voqif ekanligidan foydalanib, hali yozuvchi aytmay turgan narsani oshkor etib, og‘zidan gullaydi-qo‘yadi. Yana shunday ham bo‘ladiki, tarjimon uslubiy vositalarning o‘zi bilanoq asarning semantik (ma‘noviy) aloqalarini keragidan ancha oldin ochib qo‘yadi.

Asliyatda: *“Her face turned green again, her eyelids fluttered”*[WN, 57].

Bilvosita tarjimada: *“Uning yuzi yashil rangga kirib bo‘lib, qovoqlari qaltirardi”*. Yevropa davlatlarida yuzning yashil rangda tuslanishi, qovoqlarning qaltirib ketishi – qattiq qo‘rquvdan keyingi holatni ifodalaydi. O‘quvchiga asarni bilvosita tarjimada havola qilsak, biroz tushunarsiz tuyulishi aniq. Shunday ekan, ushbu jumlaning qo‘rquvdan uning yuzi oqarib, qovog‘i uchib qoldi tarzida bersak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Faqatgina sharq xalqlarida *qovog‘i uchsa* iborasi muayyan ma‘noni ifodalaydi. Chingiz Aytmatovning “Birinchi muallim” qissasida yuqoridagidek holatni: rangi bo‘zday oqarib ketdi; rangi o‘chib, qovoqlari solinib qoldi; yuzida qoni yo‘q, oppoq oqarib ketgan; entikib, gandiraklab qoldi¹³⁸ kabi iboralar bilan bergan.

Tarjimon voqelikni asarda ko‘rsatilgani darajasida bilsagina, badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish yoki o‘zgartirish orqali tarjima tili mansub xalq yashayotgan zaminga ko‘chirish orqali haqqoniy tarjima yarata oladi.

Tarjimon qaysi tarixiy davrga xos asarni tarjima qilayotgan bo‘lsa, o‘sha davr tarixi, madaniyati, mavjud ijtimoiy sharoit, voqea-hodisalarning aniq nomini yaxshi bilishi, buning uchun esa yuksak ilmiy saviyaga ham ega bo‘lishi lozim. Bunda so‘zning ma‘nosi, gap mazmunini teran anglash, muallif uslubiga xos nozik jihatlar, obrazlilikni

¹³⁸ Айтматов Ч. Танланган асарлар: Қиссалар. Биринчи муаллим. – Т.: Sharq, 2016. – Б. 195-236.

tarjimada bera olish qobiliyati ijodkor uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Asliyatda: *“Before God, I didn't know what it was, sir”*.

Ruscha tarjimasida: – *Христом Богом клянусь, я ничего не знал, сэр*. Bilvosita tarjimasida: *“Xudo haqqi qasam ichamanki, men hech narsani bilmagandim»* va yana bir jumlada *“I swear to God it's the truth”* frazeologizmi ham ruscha tarjimasi: *«Христом Богом клянусь, это чистая правда»* o‘z ma’nosida berilgan bo‘lsa-da, o‘zbekcha tarjimasida: *“non ursin bu haqiqat”* tarzida ochib berilgan, o‘zbeklarda ko‘pchilik o‘zaro suhbatda, gapiga boshqalarni ishontirish maqsadida *“non ursin”*, *“til tortmay o‘lay”*, *“ko‘zim chiqsin”* singari iboralarni keltiradi.

Rus tadqiqotchisi M.Yu.Ilyushkina tarjima muammolari A. Shlegel, I.Gyote, Ya. Grimm, V.Gumboldt singari germaniyalik atoqli madaniyat arboblarining ham e’tiborini tortganligini ta’kidlab, bu borada, xususan, V. Gumboldtning A. Shlegelga yozgan maktubida tarjima haqida bayon qilgan fikri tarjimashunoslarga yaxshi ma’lum ekanligi hamda yana olim o‘z maktubida tarjimaning muvaffaqiyatli bo‘lishi imkonsizligini, bunga sal shubha borligini ta’kidlagan, uning fikricha, tarjimon *“o‘z xalqining didi va tili, yoki o‘z asliyatini hisobiga, o‘z xalqining xususiyatlari hisobiga asliyatga to‘la sodiq qolib, “suv ostidagi ikki tosh”dan biriga qattiq urilib parchalanishga mahkum”* ekanligini qayd etadi¹³⁹.

Tarjima jarayonida ijodkor birdaniga ikki madaniyat, ikki tilning so‘z va obrazlari ustida ish olib borar ekan, har safar begona so‘zlardan qaysi birini o‘girib, tarjima matniga o‘tkazish mumkinligi, agar mumkin bo‘lsa, so‘z yoki obraz begona negizda o‘z o‘rnini topa olishi haqida o‘ylab ko‘rishi kerak.

Asliyatda: *“This fellow Owen whoever he is-Emily Brent interrupted”*.

¹³⁹Илюшкина, М. Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы: М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. –Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. – С.12.

Ruscha tarjimasida: *«Пусть этот Оним, кто б он ни был – Вот именно, – прервала его Эмили Брент».*

Bilvosita tarjimada: *“bu Onim deganlari kim ekan dedi, – Emili Brent”.*

Bevosita tarjimada *“Bu o‘rtoq Oven (anonim), kim bo‘lishidan qat’i nazar – Emili Brent shartta gapini”.* Bevosta va bilvosita tarjima o‘rtasidagi farqlar shundaki, frazeologizmlar milliylikka asoslangani uchun ularni tarjima qilish hamisha qiyinchilik tug‘dirib, ko‘pincha muayyan muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Odatda, boshqa tilga ularning shakli emas, mazmuni ko‘chadi. Lekin ana shu mazmunni to‘g‘ri ifodalash, u yoki bu frazeologizmning boshqa tildagi muvofiq muqobilini topish uchun ba’zida bir necha avlod tarjimonlar izlanishlar olib borganlar.

Quyidagi misolda tarjima jarayonida o‘zaro aloqalar kuchaygan va ba’zi frazeologizmlar boshqasiga o‘zlashib ketaveradi.

Asliyatda: *“I’ve given her a sedative to take”*[WN 5].

Ruscha tarjimasida: *«Я дал ей снотворное».*

Bilvosita tarjimasida: *“Men unga suv berdim tinchlanib olish uchun”*[O‘N, 8]. Bevosta tarjimada ko‘rish mumkinki, men unga tinchlantiruvchi dori berdim. Ruschadan qilingan bilvosita tarjimada *“tinchlantiruvchi dori”* so‘zi tushib qoldirilgan va kitobxonlarga tushunarli bo‘lish uchun *“suv berdim”* shaklida berilgan.

Inglizchadan tarjimada so‘z tanlash jarayonidagi madaniy faktorlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarjimaning madaniy-etnografik konsepsiyasiga ko‘ra tillar emas, madaniyatlar tarjima qilinadi. O‘zga madaniyat sohibi asl matndagi voqea-hodisani o‘z dunyoqarashiga moslashtirishi uchun assotsiativ tarjimada tarjimon tomonidan matn mazmuniga qo‘shimchalar, aniqliklar kiritiladi.

Inglizchadan tarjimada so‘z tanlash muammolari va uning yutuqlari ham tarjimon mahoratiga bog‘liq bo‘lib, tarjimaning barcha qiyinchiliklari, xususan, bir vaqtning o‘zida tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan so‘z muammosini keltirib chiqaradi hamda tarjima yo‘llarini yangi vositalar bilan boyitadi. Mazkur jarayonlarning barchasi

bilish va tushunishning o‘zaro bog‘liqligida inson ongida sodir bo‘ladigan til, tafakkur va madaniyat uchligini o‘z ichiga olgan lingvomadaniy kategoriyalarni yuzaga keltiradi.

Har bir tilning o‘z qonuniyatlari bo‘ladi. Bir tilda tabiiy jaranglagan so‘z, ibora, boshqa tilga so‘zma-so‘z o‘girilganda, jarangsizlashishi, jumla esa og‘irlashib qolishi mumkin. Demak, nimanidir tashlab yuborish, qaytadan yasash, soddalashtirish yoki fikrning kitobxonga asliyat kabi tushunarli bo‘lishi uchun nimanidir qo‘shish kerak bo‘ladi. Ammo bu tarjimonning “o‘zidan qo‘shishi” degani emas. Bunday vaziyatda tarjimon muallif matniga tuzatish kiritmaydi, uni bezamaydi. Zero, muallif o‘z muddaosini tekis sintaktik va quruq lug‘at vositalari bilan emas, ona tilining badiiy so‘z, obraz va murakkab sintaktik qurilmalari vositasini ifodalaydi.

Badiiy asarda muallif o‘z muddaosini ro‘yobga chiqarish uchun bir qator tasvir va ifoda vositalaridan foydalanadi. Yozuvchi har bir hodisani o‘zicha qabul qiladi, voqelikka o‘z nazari bilan qaraydi. U asar g‘oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o‘sha tanlangan detal orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Badiiy tajima bilan bog‘liq har qanday muammo, shu jumladan, tabiat tasviri ham uslub bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Masalan, osmonda yulduzlarning porlashi badiiy asarda ijodkor tomonidan turlicha talqin qilinadi.

Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”¹⁴⁰ nomli darsligida frazeologizmlarni o‘rganuvchi sohani frazemika deb nomlaydi. Bu ishda ta’kidlanishicha, “frazeologizm til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap shakliga teng bo‘lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihatida bilangina emas, mazmun jihatida bilan ham farq qiladi”.

¹⁴⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фразеологизмларнинг боғлашуви. –Тошкент: Университет, 1992. – Б.125.

Taniqli shoir, tarjimon va olim K.Chukovskiy aytganidek, “Tarjimada so‘zni so‘z bilan emas, tabassumni tabassum, ohangni ohang, tuyg‘uni esa tuyg‘u vositasida o‘g‘irish zarur”¹⁴¹.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalar bajarilmas ekan, tarjimon muallifga “niqob kiydirib”, bu “niqobni uning asl yuzi” deb ko‘rsatishi mumkin, deya ta’kidlaydi u. Zero, “tarjima asar sifatida – badiiy qayta yaratilgan nusxa, jarayon sifatida – ijrochilik va original ijod o‘rtasidagi oraliq kategoriya”¹⁴².

A.Quronbekov so‘z ma’nosi xususida shunday yozadi: “...so‘zlar ko‘p ma’noli bo‘lib, ularning eng avvalgi vujudga kelgan “tom ma’nosi”, “asl ma’no”, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no”si deb ataladi. Ulardan keyingi biron-bir ma’no qirrasini bilan o‘xshashlik, yondoshlik jihati bilan paydo bo‘lgan ma’nolar “hosila ma’no deyiladi. Bu shunday ekan, so‘z har bir gap kesimida yo tom ma’nosi bilan, amalda esa ko‘pincha “hosila” ma’nosi bilan qatnashadi. Badiiy asarda esa shoir yoki yozuvchi so‘zning hech bir lug‘atda qayd etilmagan yashirin ma’nolarini kashf qiladi”¹⁴³.

So‘z badiiy asarda obrazga aylanar ekan, badiiy asarning tilini ham obrazlardan alohida ajratib bo‘lmaydi. Chunki til yozuvchining u yoki bu obrazni yaratishi uchun lisoniy, ohang va nutq vositalarini qay maqsadda tanlagani, poetik sintaksisdan qanchalik samarali foydalanganini ko‘rsatib turadi. Shu ma’noda obraz asar g‘oyaviy mazmuniga shakl bo‘lgani kabi, til obrazning shakli hisoblanadi. Bu esa yozuvchining badiiy uslubini namoyon qiladi. Natijada bir yozuvchining o‘ziga xos tili, yozish manerasi ikkinchisidan farq qiladi. Obraz bilan uslubning o‘zaro bog‘liqligi, biri ikkinchisini taqozo etishi yozuvchining voqelikni badiiy aks ettirishga asoslanadi.¹⁴⁴

Bevosita va bilvosita tarjima asari qiyoslanishida tarjima davrlari o‘rtasidagi farq hisobga olinishi maqsadga muvofiq, albatta, lekin rus

¹⁴¹ Чуковский К. Высокое искусство. – М.: «Советский писатель», 1968. – С.3.

¹⁴² Иржи Л. Искусство перевода. – М., 1974. – С.90.

¹⁴³ Куронбеков А. Форс тилида тил бирликларининг полисемантик хусусияти ва уни таржимада ифодалаш усуллари // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. –Т: 2013.–Б.7.

¹⁴⁴ Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография: – Т: 2022. –Б.143.

tilidan qilingan dastlabki tarjimada shunday qusurlar ko‘zga tashlanadiki, bundan agar mutarjim asliyat tiliga murojaat qilib, bevosita unga yondashib ish tutganda, bu xatoliklarga yo‘l qo‘yilmasligi borasida mulohaza tug‘iladi. Zero, rus tili orqali qilingan tarjimada g‘aliz jumlar uchrab qoladi. Tarjima uchun umumiy bo‘lgan holat, ularning bevosita muloqotlari va birining ikkinchisiga “oqib o‘tish” hududidir. Bu ikki sohilni birlashtiruvchi ko‘prik emas, bu ularni bir vaqtning o‘zida birlashtiruvchi va ajratib yuboruvchi daryoning o‘zidir”, deydi P. Nerler. Bu fikrning tasdig‘ini quyida ko‘rish mumkin: *“On the north-west side, towards the coast, the cliffs fell sheer to the sea below, their surface unbroken”* [WN, 135].

Ruscha tarjimasi: *«Обыскать его не составляло особого труда. На северо-западе ровный утес отвесно спускался к морю»* [DN, 1].

Rus tilidan bilvosita tarjima: *“Uni tintuv qilish unchalik qiyin bo‘lmadi. Shimoli-g‘arbda silliq qoya dengizga tik tushgan”* [O‘N, 73].

Inglizcha jumlaning quyidagicha bevosita tarjima qilish mumkin: *“Shimoli-g‘arbiy tomonda, qirg‘oqqa qarab, qoyalar pastdagi dengizga to‘g‘ri tushkanki, qoyalarning yuzasi buzilmagan”*. Bilvosita o‘girilgan asarda ma‘no ham o‘zgarib ketgan.

Muayyan matn tahlil etilar ekan, tabiiy ravishda quyidagi savollarga javob topishimizga to‘g‘ri keladi. Tarjimon asarga ma‘nodosh frazeologizmlarni kiritib, qanday masalani hal qilmoqchi bo‘ladi? Asar qahramonlari va ularning munosabatlari qanday tavsiflanadi?

Agata Kristining deyarli barcha kichik hikoyalari tabiat manzarasini chizishdan boshlanadi, bunda bir ma‘noli frazeologizmlarning tutgan o‘rni beqiyos, tarjimonlar ham o‘z navbatida ularni mohirona o‘giranlar. Asliyatda *shimoli-g‘arbiy tomonda, qirg‘oqqa qarab, qoyalar pastdagi dengizga tik tushganligini, qoyalarning yuzasi dengiz suvi urilishidan buzilmaganligi, bilvosita tarjimada esa shimoli-g‘arbiy tomonda qoyalarning tikkaligi, qoya toshlarga dengiz suvi urilganini, lekin qoyalarning dengiz suvidan yemirilmagani* nazarda tutilgan.

Tillar orasida har doim muayyan aloqa mavjud, kelib chiqish jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lmagan tillar orasida bunday munosabatlar

yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi, tarjimonning asliyat va tarjima tilini mukammal bilmasligi ish jarayonida jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Detektiv roman va hikoyalarni tarjima qilishda, lingvomadaniy xatolarning quyidagi turlari ajratildi: 1) turdosh ot atoqli otga aylanadi; 2) tarjimon o‘ziga notanish so‘zni tarjima qilmaydi, balki transliteratsiya qilinadi; 3) tabiiy muhitda va muayyan davrda qo‘llaniladigan so‘zlar o‘rtasidagi farq aniqlanadi; 4) ba’zi bir realiyalarning ma’nolari hisobga olinmaydi, ular asliyat tilida qo‘llanilgan til birliklarining tashqi belgilari o‘xshashligiga ko‘ra tavsiflanadi, 5) asliyat tilining morfem, leksik, grammatik va sintaktik belgilarining so‘zma-so‘z tarjimasiga yo‘l qo‘yiladi.

Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillari orasida tarjimalarda milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlarining berilishi, frazeologik birliklar tarjimasining sof amaliy ahamiyatga molik masala deya, yuzaga keladigan muammolarni tarjimonning o‘zi ish jarayonida hal qilishi kerakligi haqidagi nuqtayi nazarni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi va bunday yondashuvlar tarjimashunoslik taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir misol: *“Then Dr Armstrong jumped up and went over to him, kneeling beside him. When he raised his head his eyes were bewildered.*

‘My God! he’s dead.’

They didn’t take it in. Not at once.

Dead? Dead ? That young Norse God in the prime of his health and strength. Struck down all in a moment”. [WN, 85].

Ruscha bilvosita tarjimasi: *«Первым опомнился Армстронг. Он кинулся к Марстону. Когда минуту спустя он поднял глаза, в них читалось удивление.*

– Боже мой, он мертв! – пробормотал Армстронг хриплым от ужаса голосом.

Умер? Умер вот так, в мгновение ока? Этот пышущий здоровьем юный Бог, словно вышедший из северной саги?» [DN, 40].

Rus tilidan tarjima: *“Dastlab Armstrong hushini yig‘ib oldi. Shu zahoti Marston tomon otildi. Bir daqiqa o‘tar-o‘tmas uning ko‘zlarida qo‘rquv aralash hayrat aks etardi.*

Yo parvardigor, u o‘ldi! – dedi Armstrong dahshatli bo‘g‘iq ovozda.

O‘ldi? Ko‘z ochib yumguncha o‘ldimi? Vujudidan yoshlik kuchi yog‘ilib turgan shimol afsonalaridagi yosh ma‘bud-a ? [O‘N, 58].

Inglizchadan bevosita tarjimasida: *“doktor Armstrong sakrab turdi va tiz cho‘kib, uning yoniga bordi. Boshini ko‘targanida ko‘zlari dovdirab qoldi.*

U qo‘rquv bilan pichirlab dedi: “Ey Xudoyim! U o‘lgan”.

Ular buni birdaniga qabul qilishmadi.

–O‘lganmi? O‘lganmi?

Bu yosh Skandinaviya Xudosi kabi kuch-qudratga to‘la va sog‘lom edi. Bir zumda hammasidan yiqildi”.

Inglizchadagi *“jumped up and went over to him, kneeling beside”* iborasi aynan *“tiz cho‘kmoq”* iborasi bilan ekvivalentiga eng mos bo‘lgani uchun, bevosita tarjimada to‘g‘ri variantni tanlashga erishilgan. Tarjimon syujet talabi bo‘yicha tarjimada ham asar boshidayoq muallif istagan qiyofada tasvirlanishi kerak: mana shu *“tiz cho‘kib borish”*da ham qahramonning muhim bir xususiyati namoyon bo‘ladi. Bilvosita tarjimadagi *“tiz cho‘kib, tizzalab bordi”* qahramonning hayratga tushib qolishi, yerda o‘lib yotgan odamning oldiga tizzalab borishi izohlangan, u xuddi qahramonni o‘rgangan singari qarshisidagi odamlarni zimdan o‘rganishi va shu vaqt ichida Armstrong nigohidagi tahlikani ilg‘ab olgan bo‘lishi kerak. Bu frazeologizm holatga qarab quyidagicha izohlangan:

Said Ahmadning *“Oftob oyim”* hikoyasida ham vatanparvar yapon ayol shu psixofiziologik (tashqi) holatda tasvirlangan: *“U faqat ariqqa tizzalab o‘tirib, g‘ildirak chetini qirg‘oqqa ilintirib dam oladi”*¹⁴⁵, o‘tirib dam olish ma‘nosida;

¹⁴⁵ Саид Аҳмад. Офтоб ойим (хикоя), 2000. – Б.11

Matto Isoning “Muqaddas kitob”ida – “Munajjimlar uyga kirib, chaqaloqni va uning onasi Maryamni ko‘rdilar. Tiz cho‘kib, chaqaloqqa ta’zim qildilar”¹⁴⁶, hurmat ma’nosida;

Erkin Vohidovning “Saylanma”sida – “O‘shanda musofir tiz cho‘kib boshini yerga urmadi, og‘iz ko‘pirtirib maddohlik qilmadi, xonga yoqadigan bashoratlardan lof urmadi”¹⁴⁷, hayotda qiynalib yashagani oshkora qilmadi.

Tarjimalarda “Skandinaviya Xudo”¹⁴⁸siga o‘xshatish o‘quvchiga biroz tushunarsiz tuyulsa-da, tarjimon Skandinaviya Xudosiga o‘xshatish ma’nosida farishtani ta’riflagan.

“*My God – Ey parvardigor*” deb emas, “Ey Xudoyim” tarzida berilsa, tarjima jarayonida bunday birliklarni bir-birlari bilan almashtirish asliyat tili milliy xususiyatini tarjima tili milliy xususiyati bilan almashtirib qo‘yishga olib kelsa, ularni so‘zma-so‘z hijjalab tarjima qilish zaruriy kommunikativ samaradorlikning barbod bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham “*Struck down all in a moment*” va “*kneeling beside him*” frazeologik birliklarini milliy bo‘yoqdorlik jihatidan betaraf “*o‘sha zahotiyoc*”, “*tizzalab bordi*” birliklari yordamida o‘girish maqsadga muvofiq.

Tarjimon har bir so‘zning qaysi uslub qatlamiga oid ekanini aniqlab, ulardan asliyatga eng yaqinini tanlab olishi kerak. Irji Leviy aytganidek, “tarjimonning ishi – doimiy variant tanlashdan iborat”¹⁴⁹.

Mirzo Kenjabek o‘zining “Yoshlarga dil so‘zlarim” kitobida quyidagi fikrlarni keltirgan: “Har bir qalam sohibining o‘z ovozi – o‘zi, so‘zlardan foydalanish uslubi, muxtasar aytganda ijodiy tili belgilaydi. Deylik, biror shoir yoki nosirning asaridan parcha o‘qiganimizda asar sohibini bilmasak ham, uning bizga tanish ovozi, qalami allaqachon ochgan yo‘lini taniymiz va muallifning kimligini bilib olamiz. Bunday muvaffaqiyatga erishgan ijodkorning o‘zi ham, so‘zi ham o‘ziga xos va

¹⁴⁶ Матто Исо. Муқаддас Китоб / Ўзбек тилидаги 11- боб.

¹⁴⁷ Воҳидов Э. Сайланма. Муҳаббат, 1976.– Б.33. Муҳаббатнома, Садоқатнома, 1986. – Б.42

¹⁴⁸ <https://www.realmofhistory.com/2018/01/29/12-norse-gods-goddesses-facts/>

¹⁴⁹ Левый И. Искусство перевода. Монография.– М.: Прогресс, 1974. – С. 395.

o‘lmas bo‘ladi. Zero, o‘zbek tilidagi hamma ishlatgan so‘zlarni ishlatganda ham asl ijodkor o‘z ovozi yaratadi”¹⁵⁰. Realizmlar tarjimai, xususan, nomlar bilan bog‘liq tushunchalar xalqning milliy til manzarasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Asliyatda: *“There was a case in America. Old gentleman and his wife – both killed with an axe. Middle of the morning. Nobody in the house but the daughter and the maid. Maid, it was proved, couldn’t have done it”* [WN, 200].

Rus tilidagi tarjima: *«В Америке был такой случай. Убили двух стариков — мужа и жену, зарубили топором. Среди бела дня. В доме не было никого, кроме их дочери и служанки. Служанка, как доказали, не могла это сделать. Дочь —почтенная старая дева. Немыслимо, чтобы она была способна совершить такое страшное преступление»* [DN, 93].

Rus tilidan tarjimada: *“Amerikada shunday voqea bo‘lgan. Cholkampirni bolta bilan chopib tashlashgan. Kuppa-kunduzi. Uyda qizi va oqsochdan boshqa hech kim bo‘lmagan. Qizi obro‘li ayol bo‘lgan. Shunday mudhish jinoyatga qo‘l urishi hech ham aqlga sig‘masdi”*, deb berilgan. Tarjima tilida tegishli adekvat vositalarning yo‘qligi bunday birliklarni tasviriy usulda talqin etish zaruratini keltirib chiqaradi. Ammo ba‘zan tarjima tilida asliyat birliklarining ekvivalent yoki muqobil variantlari mavjud bo‘lgan taqdirda ham tarjimonlar mazkur usulga murojaat qiladilar, natijada asliyatning zaruriy kommunikativ ta’sirchanligi hamda obrazlilik xiralashadi, goho esa asliyat mazmuni soxtalashadi¹⁵¹.

Masalan, asardagi *“Xonaga o‘lik sukunat cho‘kdi”*, *“– Ont ichaman, shprisni o‘g‘irlashdi!”* [O‘N, 149] frazeologizmlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi tufayli, ayni vositalar vazifaviy o‘zaro mos kelganlari holda, tarjimada ular bir- birlarini almashtira oladilar. Odamlar orasida keng tarqalgan qasam ichish mazmunidagi *“Xudo*

¹⁵⁰ Мирзо Кенжабек. Ёшларга дил сўзларим. –Тошкент: “Adabiyot”, 2021.– Б.29.

¹⁵¹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.–Б.247.

ursin”, “Qasam ichaman”, “Ont ichaman” degan frazeologizmlar mavjud.

Qasam shakllarini tarjima qilishda ham qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bayon etilgan muayyan fikrning rostligiga, tutilgan yoʻlning toʻgʻriligiga suhbatdoshni ishontirish, biror narsa yoki harakatning toʻgʻri yoki notoʻgʻri, yaxshi yoki yomonligini alohida qayd qilish kabi holatlarda xalqlar qator birliklar yordamida qasam ichadilarki, bunday qasam shakllarining obyektlari odatda kishilar nazarida eng aziz, moʻtabar, muqaddas narsalar, tushunchalar nomlaridan iborat boʻladi. Qasam ichganda, jumladan, oʻzbeklar koʻpincha hayotlarini (oʻlay agar), nonni, vijdonlarini, Xudoni, muysafidroq kishilar esa oppoq soqollarini oʻrtaga qoʻyadilarki, ayni vositalar (qasamlar) odatda maʼlum darajada hayajon bilan talaffuz etiladi. Turli tillarda ichiladigan qasamlar obyektlari aksariyat hollarda moddiy jihatdan bir-birlariga oʻxshash boʻladilar¹⁵².

Bilvosita rus tili orqali tarjimada neytral uslubda bayonchilikni davom ettirayotgan tarjimoning birdan “*oʻlik sukunat*” soʻzini qoʻllab yuborishi uslubiy chalkashlikni keltirib chiqargan, ekvivalenti bilan berib, maʼlum darajada muvaffaqiyatga erishgan.

“*Oʻlik sukunat*” soʻzi “*jimjitlik*”dan tashqari yana “*sokinlik*” kabi maʼnolarini ham anglatadiki, bu hol tarjimondan har dafʼa uning matniy holatini nazarda tutishni talab qiladi. Ingliz tilidagi “*There was silence in the room*” [WN, 216], asarning ruscha tarjimasida «*В комнате воцарилась тишина*» [DN, 101] soʻzi vositasida adekvatlikni yuzaga keltirgan boʻlsa, oʻzbekcha tarjimada “*Xonada oʻlik sukunat hukmron edi*” mazkur soʻzning moddiy-aniq talqini harfxoʻrlikka olib kelgan. Agar asliyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli birlik frazeologik chatishmalarga taalluqli boʻlsa, uning tasviriyoʻl bilan oʻgirilishi sezilarli yoʻqotishga olib kelmaydi. Xususan, tarjima tilida tanlangan vosita oʻz tarkibida tasviriyoʻl vositaga ega boʻlsa, zaruriyoʻl kommunikativ taʼsirchanlik jabr koʻrmaydi.

¹⁵² Oʻsha manba. –B. 257.

N.Qambarovning ta’kidicha, buning sababi – chet tillaridan o‘zbek tiliga tarjimaning nazariy muammolari to‘liq yoritilmaganida, darslik va qo‘llanmalar yozilmaganidadir. Olimning gapida jon bor. Shu paytgacha respublikamizda xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima amaliyotidan saboq beruvchi bironta darslik chop etilmadi¹⁵³.

Bundan bir necha yil muqaddam, davra suhbatlarining birida adabiyotshunos Suvon Meli shunday degandi: Mana, yangi XXI asrning dastlabki yetti yilini bosib o‘tdik. Yangi asrda o‘tgan asrda egallagan cho‘qqilarni egallay olamizmi? Vaholanki, egallangan cho‘qqilarni qayta egallash u qadar zavq bermaydi. Vazifa – shu yuksaklikka tayangan holda yangi cho‘qqilarni zabt etish lozim. Darhaqiqat, bu ijodiy muvaffaqiyatlarga erishuvda tarjimaning roli naqadar beqiyosligi o‘z-o‘zidan ma’lum. Qolaversa, bugungi kunda tarjima tillararo va madaniyatlararo muloqotning asosiy omillaridan biri hisoblanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, – tarjima millatni jahonga tanitadi, xalqaro globallashuv jarayonida bevosita ishtirok etishimizga keng yo‘l ochib beradi. Buni aslo unutmasligimiz lozim¹⁵⁴.

Modomiki frazeologik birliklar muayyan ma’no va uslubiy vazifani o‘zlarining doimiy leksik tarkiblari vositasida ifoda etar ekanlar, ya’ni muayyan ma’no va uslubiy vazifa ifodasi uchun qo‘llanilgan komponentlar bir-birlarining mavjudligini taqozo etarkanlar, tarjimada ayni tarkibning bir butun holda iste’foda etilishi maqsadga muvofiqdir. Tarjima tilidagi birlikning hatto bitta komponentini uning sinonimi yoki boshqa biror so‘z bilan almashtirib qo‘yilishi, ya’ni beasos ibora tarkibini buzish zaruriy mazmun va uslubiy vazifaning yaratilmay qolishiga olib kelishi mumkin¹⁵⁵.

¹⁵³ Muminov O., Sunnatov O. Translation history. Tashkent, 2004. – P.134.

¹⁵⁴ “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2004, 30-март.

¹⁵⁵ Берков В. О словарных переводах // Мастерство перевода, 1971.– С. 340-361.

3.2-§. Inglizchadan tarjimada soʻz tanlash muammosi

Bu badiiy mahorat asarda yoritilgan vaqelikni ilgʻay olish va keng mushohada etish, uni obrazlar vositasida aks ettirish, adabiyotning gʻoyaviy-badiiy vositalari, ularni ilmiy asosda tahlil qila olishi, lugʻat tarkibidagi turli qatlamlar va adiblik sanʼatining qudratli quroli boʻlmish soʻzning barcha nozik maʼno jilvalarini seza olish qobiliyatida namoyon boʻladi.

Tarjimonning vazifasi asarni tilning barcha tasvir, ifoda vositalari, butun imkoniyatlarini ishga solgan holda qayta yaratish, “tarjima qilinadigan”, “tarjima qilinmaydigan” barcha soʻz va jummalarni asliyat mazmuni, ruhi, matn ohangini sanʼatkorona his etgan holda uygʻunlashtirishdir. Albatta, badiiy asarlarda shunday soʻzlar, iboralar, jumlar boʻladiki, ularni tarjima qilish imkoni topilmay qoladi. Bunday holatda tarjimon nimanidir boy berishi va boy berilgan narsaning oʻrnini boshqa bir narsa evaziga toʻldirishi kerak boʻladi. Boy berilgan va ega boʻlingan “evaz”lar hajmi imkon qadar kam boʻlmogʻi kerak.

Gʻ.Salomovga koʻra, “Badiiy tarjimachilik ishida allaqancha vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan bir qancha jiddiy milliy kamchiliklar bor. Eng asosiy nuqson, illat – bu biron milliy adabiyotning durdonasi boʻlgan ajoyib asar tarjimaga koʻchganda qandaydir oʻrtacha kitobga aylanib qolayotganidadir. Har bir tarjima asl nusxa fazilatlarining maʼlum bir “turkumi”ni aks ettiradi, ammo oʻsha asarni boshqa tilda uzil-kesil takrorlay olmaydi. Kimki, boshqa til stixiyasi ichida tugʻilgan badiiy ijod namunasini aynan oʻziday, hech bir oʻzgarishsiz koʻrishni istasa—uni oʻsha tilda, asl nusxasida oʻqisin”¹⁵⁶. Olimning bu fikrini qabul qilish, asarni oʻz tiliga oʻgirgan ijodkor tarjimani oʻqiydigan kitobxonni asliyatga murojaat qilishga majbur qilmasligi, asliyatning toʻlaqonli qayta yaratilishi, unga monand tarjimaga erishish uchun tinimsiz ishlashi lozimligini taʼkidlash joiz.

¹⁵⁶ Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish(X.Hamidov qayta nashri). – Toshkent: TDSHI, 2016. – B.116-117.

Asliyatda qo‘llanilgan til birligining semantik ma’nosi tarjima matnida lug‘aviy ekvivalent yordamida o‘girilishi har doim ham o‘zga til madaniyatiga mos tushavermaydi. Bunday holatlarda ifodalangan qiyoslanayotgan tillarda qo‘llanilgan lisoniy birliklarning o‘zaro muvofiq kelishi matn xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Tarjimon – barcha huquq va majburiyatlarga ega yozuvchidir. Faqat uning majburiyatlari muallifnikidan ikki barobar ortiq, chunki u ikki millat, ikki xalq oldida javobgar¹⁵⁷. Darhaqiqat, asl nusxani o‘qiyotgan kitobxon oldida javobgar kishi muallif bo‘lsa, tarjimoni o‘qiydigan kitobxon oldida turgan javobgar shaxs tarjimon hisoblanadi. Bu tarjimaning majburiyatidir. Ammo hech kim uni bunday mas’uliyatni zimmasiga olishga majbur qilmagan, o‘zi istab, o‘sha muallif uslubini tanlagan. Shu bois tarjimon muallifga hamisha sodiq qoladi, bu uning ijodkor sifatida qabul qilgan qaroridir. Ammo tajribada ushbu ijodiy jarayonga boshqa xil turtkilar natijasida yondashgan tarjimonlar ham bo‘lishi sir emas.

Bunday holatlarning yuz berishiga zamon talablari ham sabab bo‘ladi. Ba’zan shoshma-shosharlik bilan, ba’zan esa yuqoridan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun amalga oshirilgan “ijodiy ish”lar samarasiz bo‘lib chiqqan holatlar ham tarjimachilik tarixida uchrab turadi. Xuddi shunday tarjimalar tufayli buyuk-buyuk asarlar zerikarli hikoyalarga, daho san’atkorlar esa adabiyotdan uncha xabari yo‘q “havaskor”ga aylanib qolishgan. Yomon qilingan tarjima asliyat tilini bilmaslikdan tashqari, asliyat tiliga bepisandlik, muallif iste’dodi, mehnatiga hurmatsizlikdir.

So‘z alohida holda to‘laonli ma’no kasb eta olmaydi. Uning ma’nosi kontekst ichida ochiladi: *“Marston had several drinks that night. Between the time he had his last one and the time he finished the one before it, there was quite a gap”* [WN, 134]. Ingliz tilining badiiy ifoda imkoniyatlari to‘la namoyon bo‘lgan ushbu jumlada muallif o‘xshatish

¹⁵⁷ Берков В. О словарных переводах // Мастерство перевода. – М., 1971. – С. 323-324; 488.

(ichdi) va turg'un birikmalar (bir necha marotaba ichmoq, kechasi bilan ichmoq)dan samarali foydalangan.

Asliyat jumlasining o'zbekcha tarjimasi: *"Marston o'sha kuni bir necha marta ichdi. Oxirgi va undan oldingi qadah o'rtasida ancha tanaffus bo'ldi"*. [O'N, 92]. Asliyat mazmuni tarjimada ishonchli aks etgan bo'lsa-da, unda nimadir yetishmaydi. Buni inglizcha tarjimani qayta o'zbekchaga o'girib, tekshirish mumkin: *"Marston o'sha kuni ko'p spirtli ichimliklar ichdi. Oxirgi va undan oldingi qadah o'rtasida ancha tanaffus bo'ldi"*. Asliyatda boshiga kulfat tushib, ko'ngli vayron bo'lib, ko'p spirtli ichimliklar ichgani "ichdi" deb berilgan. Inglizlarda "Drink – drinking man" frazeologizmlari bilvosita tarjimada "ichgan va mast odam"ni ifodalaydi, tarjimonning matnga erkin yondashgani uchun tarjimada aks etmay qolgan.

Lingvokulturologik yondashuv tarjima usullari yig'indisining tor doiradagi an'anaviy sharhidan keng tarixiy sharhga o'tishga imkon beradi va tillararo munosabat kontekstida to'g'ri yechim topadi. Tarjimaning lingvokulturologik jihatida matn tarjimasining nafaqat lisoniy, balki madaniy omillarini ham hisobga olgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlari yorqin va keng qamrovda aks etuvchi detektiv asarlar tarjimasi tahlili asosida tarjimaning so'z tanlash jarayonida lingvokulturologik muammolarini hal etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Lingvokulturologik yondashuvni tarjima muqobillari mavjud bo'lmagan holda yoki lisoniy va konseptual tafovutlar yaqqol ko'ringan sohalarda qo'llash lozim.

Tarjimada so'z tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimon muallifning so'zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjima jarayonida asliyatdagi har bir so'zning qadriga yetadi va uni bekorga qurbon qilmaydi. Bu borada G'.Salomov shunday yozadi: "... qilish uchun so'zning muayyan lug'aviy ma'nolarini (человек – odam, дерево – daraxt, вода – suv kabi) bilishning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun so'zning ayni shu kontekst ichidagi sifati, eskirgan, yangilik, majoziylik, hurmatlash, e'zozlash, pardalash, piching, g'azab, haqorat va hokazo ma'nolarni bilmoq, so'ngra o'zbek tilidan o'sha

ko'rsatkichga muvofiq keladiganini topa olmoq kerak. Buning uchun tilni faqat "bilish" emas, tuyish, his qila olish ham lozim. Biroq bu masala so'z muammosidir"¹⁵⁸.

Tarjima, bir qarashda, oddiy ish jarayoniga o'xshasa-da, asar boshqa tilda qayta yaratilar ekan, tarjimon ijodiy vazifa bilan band bo'lib, muallif singari har bir so'z, birikma, jumlaning ishonchli bo'lishi uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Demak, tarjimon asliyatni yozuvchi yoki shoir sifatida o'qib, idrok eta olsagina, uni muvaffaqiyat kutadi. Agar u so'z zamiridagi muallif ko'rgan narsani ko'rmas, u his qilgan narsani tuymas ekan, tarjimada so'z qanchalik maqbul tanlangan bo'lmasin, ma'no anglashilmay qolaveradi. Chunki tarjimadagi so'z har jihatdan asliyat so'ziga monand bo'lish bilan birga voqelikka zid bo'lmasligi kerak.

Tarjima jarayonida asliyat so'zlarini tarjima tili muqobillari bilan almashtirish, sintaksis qoidalaridan chetga chiqmaslik yoki shaklbozlikdan qochib, muallif uslubi, asarning badiiy konsepsiyasiga kam e'tibor berib, erkin tarjima yo'liga o'tish ko'pincha jumalarning to'la qayta ifodalanmay qolishiga olib keladi. "Tarjimada ayrim olingan har bir holatda qanday so'z yoki jumla joizligini "lug'aviy ekvivalentlik" emas, tabiiy muvofiqlik, ya'ni tasvirlanayotgan xarakterning "mijozi"ga ma'no, uslub, ohang tomondan kontekstual moslik hal qiladi"¹⁵⁹.

Masalan: "*Usually. I've been in some tight places, you know*" [WN, 135]. So'zlovchining ilinji ifoda etilgan jumla o'zbekchaga "*Tarki odat amri mahol. Ko'p bora qaltis vaziyatda qolib ketganman*" [O'N, 92] deb o'girilgan. Asliyat jumlasidan anglashilgan fikr tarjimada berilgan, lekin jumlaning ba'zi ma'no nozikliklarini tarjimon sezmagan. Masalan, inglizchada "*habit*", "*tight places*" iboralari orqali ifodalangan ma'no nozikliklari o'zbek tilida "*tarki odat*", "*qaltis vaziyat*" va "*amri mahol*" deb berilgan, asliyatga ancha yaqin borilgan va to'g'ri ish tutilgan.

¹⁵⁸ Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish (X.Hamidov qayta nashri). – Toshkent: TDSHI, 2016. – B.73.

¹⁵⁹ Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.4.

Shu o‘rinda tarjima jarayonida lug‘atning o‘rni muhim ekanligi, biroq matnni to‘laqonli qayta yaratishda eng mukammal lug‘at ham istalgan talabga javob bera olmaydi. Shunga qaramay, tarjima jarayonida lug‘atsiz ish olib borish imkonsizligini ham tan olish lozim. Chunki hech bir ijodiy faoliyat tarjimon mehnatichalik lug‘atlar bilan uzviy bog‘liq emas. Tarjimon so‘z muqobillarini yoki til uchida turgan, lekin chiqishga “qiynalayotgan” so‘z yoki iboralarni topish uchun lug‘atlarga murojaat qiladi.

S. Florin ta’kidlashicha, “Lug‘at – tarjimonning qurolidir. Jangchi jangga aslahasiz kirganidek, tarjimon ham ijodiy mehnatga o‘z “aslahasi” bilan kirishi kerak. Tarjima jarayonida umumlisoniy va umummadaniy bilimlar doirasidan chiqib ketadigan so‘zlar va iboralar uchraydiki, tarjimon maxsus lug‘atlarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi”¹⁶⁰.

Akademik L.V.Sherba “Bir tilga mansub so‘zlar ko‘p hollarda boshqa tildagi so‘zlarga shunchaki mos kelmay, ular bilan o‘ta murakkab va ko‘p qirrali munosabatda bo‘ladi...” va “...har qanday tildagi juda ko‘p so‘z-tushunchalar boshqa til so‘z-tushunchalariga mos kelmaydi, ular boshqa-boshqa tushunchalar bo‘lishi mumkin”,¹⁶¹ deb yozgan edi. S. Florin esa “Lug‘atsiz tarjima qiluvchi” badiiy asar tarjimoni, menimcha, tarjimon emas...”¹⁶² deya asosli e’tirof etgan. K. Chukovskiy: “Hech qaysi lug‘at jonli inson tilidagi nozik ma’no belgilariga yeta olmaydi. Shu boisdan, tarjimonning vazifasi, agar u haqiqatan ham chin san’atkor bo‘lsa, iloji boricha ko‘proq xorijiy va ruscha so‘zlarning hech bir lug‘atda mavjud bo‘lmagan muqobillarini izlab topishdan iborat,¹⁶³ deb yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarga qisqa yakun yasaydi. O‘zbek tarjimashunosi G‘. Salomov “...agar tarjimon ruscha-o‘zbekcha lug‘atni keltirib “arifmetik” isbotlashga kirishsa, o‘zini haq deb da’vo qilishi

¹⁶⁰ Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: «Международное отношение», 1971. –Б.327.

¹⁶¹ Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л.: 1958. –С.86.

¹⁶² Мастерство перевода. – М.: Советский писатель, 1971. –С. 328.

¹⁶³ Чуковский К.И. Высокое искусство. – М.: 1964. – С. 88.

mumkin, haqiqatan soʻzma-soʻz olganda u haq...”¹⁶⁴. Tarjimashunoslarning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqilsa, tarjimoni lugʻatsiz amalga oshirish mumkin emas, biroq faqat lugʻatgagina tayanib qilingan tarjima badiiylikdan yiroq boʻlishi mumkin.

Xulosa qilinadigan boʻlsa, tarjimon nafaqat lugʻatga suyanib ish yuritar ekan, xatoliklarga yoʻl qoʻygan, balki asliyatni tushunish, uni chuqurroq idrok etishda ham qiynaladi.

Mohir tarjimon asliyat soʻzlarining sinonimlarini tanlab, asliyat uslubiga mos holda ishlatadi. Sinonimlardan foydalanish badiiy asarni yaratishda qanchalik muhim boʻlsa, badiiy tarjimada ham xuddi shunday ahamiyatga ega. Soʻz sinonimlari turli uslubiy maqsadlarda turlicha maʼno anglatishi yoki maʼno jihatidan bir-biriga oʻxshash tushunchani ifodalashi, ammo maʼno belgilari yoki uslubiy boʻyogʻi yoxud ikkala tomondan ham farqlanuvchi bir soʻz turkumiga mansub soʻzlar ekanligi maʼlum. Bundan tashqari, tarjimon qoʻllaydigan sinonimlar ikki tilli lugʻatlarda berilmagan boʻlishi ham mumkin. Chunki eng mukammal lugʻatda ham soʻzning barcha sinonimlari berilishi amri mahol.

Umuman, hech bir tilning hatto eng boy lugʻati ham u tilning keng imkoniyatlari, agar u asliyat muallifi uslubiga boʻysundirilmas ekan, toʻlaqonli tarjima yaratilishiga kafolat boʻla olmaydi. Mohir tarjimon ana shu muvozanatni saqlay olish bilan birga, soʻzning lugʻatlarda qayd etilgan sinonimlaridan eng mosini topa olishi soʻzning lugʻatda aks etmagan maʼnolarini ham kashf qila olishi kerak.

Jurnalist Risolat Madiyevaning “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi 2020-yil 28-avgust sonida Agata Kristining “Oʻnta negr bolasi” romanining nomi “Ular oʻn nafar edi” deb oʻzgartirilgani haqida maqolasi chop etildi¹⁶⁵.

2020-yilda haqorat sifatida qabul qilinishi mumkin boʻlgan soʻzlardan foydalanish mumkin emas va kelajakda asar nomi butun dunyo boʻylab oʻzgartiriladi.

¹⁶⁴Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. –Тошкент: 1979. –Б. 49.

¹⁶⁵<https://yuz.uz/news/agata-kristining-onta-negr-bolasi-romanining-nomi-ular-on-nafar-edi-deb-ozgartirildi>

Eng mashhur romanlardan birining qayta nashri endi “O‘nta negr bolasi” nomi bilan Fransiyada chiqarilmaydi. RTL radiosining xabar berishicha, bu qarorni taniqli yozuvchining evarasi Jeyms Prichard qabul qilgan, u Agatha Christie Limited tashkilotiga rahbarlik qiladi.

Uning ta’kidlashicha, agar buvisi hayot bo‘lganida asar nomi o‘zgarishini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lardi, chunki u kimdir azob chekishini xohlamasdi. 2020- yilning oktyabr oyida roman Fransiyada “Ular o‘n nafar edi” nomi bilan chiqadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir tarjima o‘z davrining mahsuli hisoblanadi. Zero, H. Teshaboyev¹⁶⁶ bilan I. Ahmedov tarjimalari o‘rtasida yigirma yilga yaqinroq masofa bo‘lsa-da, vaqt chegarasi ta’sir qilmagan. Tarjimalarni baholaganimizda bu – chegarani hisobga olmog‘imiz zarur. Vaqt o‘tgan sari Agata Kristidan yangi tarjimalar bunyodga keladi. Agataning o‘zi ham o‘zbek kitobxoni va tomoshabiniga yanada yaqinroq, yanada qadrdonroq bo‘la boradi. Agataning – bepoyonligi ham shundadir. R. Jabborov tarjimalarining ushbu nashri ham shu yo‘ldagi yana bir qutlug‘ qadam bo‘lib qoladi¹⁶⁷.

“Tarjimonning individual qiyofasi bilan birgalikda tarjimada asliyatning xarakterli chizgilari ham berilishi shart. Natijada, biz zamonaviy tushunchadagi realistik tarjimaga ega bo‘lamiz”¹⁶⁸. Agata Kristi voqeani ko‘pincha birinchi shaxs nomidan hikoya qilar ekan, obrazining sirliligiga qarab, ustakorlik bilan uning qiyofasiga kirib oladi. Uning aksariyat qahramonlari “sirli va maxfiy” qahramonlar bo‘lib, ularning o‘ziga xos gapirish usuli, shevasining barcha unsurlari yaxlitligini saqlagan holda o‘g‘irish talab etiladi. “Puarro tergov qiladi”da hikoya qiluvchi Erkul Puaro qanday kasb egasi ekanligi asliyatda uning so‘zlash uslubidan bilinib turibdi. Muallif uni badiiy til qolipida so‘zlatish bilan birga, uning nutqiga mahalliy izquvarning shevasiga xos

¹⁶⁶ Кристи А. Ўнта негр боласи (Рус тилидан Х.Тешабаев Таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 1995. – Б.284

¹⁶⁷ Кристи А. Ўнта негр боласи: роман (Рус тилидан Р.Жабборов таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.264

¹⁶⁸ Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.: СП, 1972. – С.92.

so‘z va jummalarni kiritish orqali tabiiylikka erishgan. Rus tarjimoni buni ilg‘ab, hikoya aslidagi iboralarni ko‘pincha o‘zgartirmay bergan, ammo o‘zbek tarjimoni muallif uslubini payqamagan ko‘rinadi.

Erkul Puaro: *“The only fly in the ointment of my peaceful days was Mrs. Cavendish's extraordinary, and, for my part, unaccountable preference for the society of Dr. Bauerstein. What she saw in the man I cannot imagine, but she was always asking him up to the house, and often went off for long expeditions with him. I must confess that I was quite unable to see his attraction”* [MAS, 16].

Rus tilidagi tarjima: *«Единственной ложкой дегтя в мои мирные дни было исключительное и, с моей стороны, необъяснимое предпочтение миссис Кавендиш обществу доктора Бауэрстайна. Что она увидела в этом человеке, я не могу себе представить, но она была всегда приглашал его в дом и часто уезжал в длительные экспедиции с ним. Должен признаться, что я был совершенно не в состоянии увидеть его привлекательность»* [EP, 13].

Rus tilidan tarjima: *“Osoyishta kunlarimning xotiralari yagona Missis Xonim bilan bog‘liq edi. Kavendishning Dr. Bauyersteynda o‘z navbatida, u odamda g‘ayrioddiy nimani ko‘rganini men tasavvur qila olmayman, lekin u shunday edi, har doim uni uyga olib borishini so‘rar va tez-tez uzoq safarlarga jo‘nab ketardi u bilan. Tan olishim kerakki, men uning jozibasini ko‘ra olmadim”* [PT, 55].

Agar o‘zbekcha talqinda *“jozibasini ko‘ra olmadim”* — *“undagi chiroyli husnni ko‘rmadim”* tarzida almashtirilganda edi, bu bilan oddiy izquvarning o‘ziga xos ta’rifi va jo‘ngina qiyofasi o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada yaqqolroq gavdalangan bo‘lar edi.

Detektiv asarlari tarjimalarida doimo *“ko‘zga ko‘rinmas”* – yashirin kadrlar bo‘ladi. Va bu kadrlar qanchalik sezilmas darajada matnga *“payvandlab”* qo‘yilgan bo‘lsa, bizga shunchalik kuchli ta’sir etadi. Tarjimada ko‘pincha aynan mana shu *“yashirin kadrlar”* tushib qolib, oqibatda asliyatga juda o‘xshash bo‘lgan tarjima undan ancha uzoq bo‘lib

chiqadi”¹⁶⁹, deydi yerevanlik tadqiqotchi L. Mkrtchyan. Asar tarjimasida personaj xarakterini to‘la ochib berish ko‘p omillarga bog‘liq. Buning uchun tarjimon qahramon xarakterini, uning g‘oyaviy-estetik funksiyasini hamda yozuvchining obraz yaratish prinsiplarini yaxshi o‘zlashtirib olishi lozim. Tarjimon personajning tashqi qiyofasi, xatti-harakati va nutqidagi o‘ziga xos biror belgi yoki xususiyatni bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Tarjimon, ayniqsa, an‘anaviy tarzda tarjima qilingan chet tilidagi hammaga ma‘lum nomlarning yangicha shakliga duch kelganda, ehtiyot bo‘lishi kerak. Bunday holatda, tarjimon oldida asliyatdagi nomni transkripsiyasini tanlash kerakmi yoki barchaga tanish bo‘lgan nomning eski versiyasini qoldirish kerakmi, degan masala ko‘ndalang turadi. Bunday vaziyatda tarjimon o‘quvchining fikrini chalg‘itmaslik tarafdori bo‘lmog‘i kerak, chunki kitobxon fon bilimlarida mavjud nomning tarjima matnida o‘zgarishi uni asar g‘oyasini tushunishdan chalg‘itishi mumkin. Ayniqsa, har bir tilda toponimlarning shakllanishi murakkab lingvistik-tarixiy jarayon bo‘lib, uni bir yoki hatto bir nechta so‘z yasash modellariga aylantirish mumkin emas.

Lisoniy hodisalar tizimini idrok qilish so‘zlovchining madaniy kompetensiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, chunki tilda xalqning dunyoqarashi aks etadi, dunyoqarash esa madaniy aloqalar kontekstida anglashiladi. Zero, tarjimasiz na dialog, na interpretatsiya mavjud bo‘la olmaydi, aynan tarjima nutqning dialog imkoniyatini yaratib bera olishi bilan ahamiyatli, chunki bitta umumiy tilni rivojlantirmasdan, faqat intuitiv tushunchalar orqali boshqa tilni tushunish mumkin emas. Shuning uchun ham mahorat va tarjima birgalikda tahlil nuqtai nazardan konseptual tushunchani tashkil etadi. Asliyat tili matnida qo‘llanilgan leksikaning tarjimada muqobil tiklanishi ekvivalentlikni ta‘minlashda eng muhim omildir.

Bilvosita tarjimada so‘z tanlash jarayonida milliylik bilan bog‘liq jihatlar, unga lingvokulturologik yondashuv, uning madaniyatlararo

¹⁶⁹ Мкртчян Л.М. Если бы в Вавилоне были переводчики.[Сборник статей о проблемах перевода]. Ереван: Советакан грох, 1976. –С.504.

kommunikatsiya sharoitida namoyon bo‘ladigan mantiqiy-hissiy xislatlarini o‘rganish hamda tarjima ilmida yangidan yuzaga kelayotgan paradigmatic burilish miqyosida to‘planayotgan ma’lumotlarni umumlashtirib, uni kognitiv jihatdan tahlil qilish zamonaviy tarjimashunoslikning asosiy talabidir.

Tarjimada muallif uslubining qayta yaratilishi, yozuvchining iste’dodi qirralarini tarjima tilida namoyon bo‘lishi, badiiy asar kabi, barkamol tarjimaning ham yagona tili – umumxalq tili bo‘lib, tarjima keng kitobxon ommasi uchun mo‘ljallangani bois tarjimon asliyat muallifi so‘zni qanchalik yuksak mahorat bilan tanlagan bo‘lsa, shu taxlitda o‘girishi lozim. Tarixiy va badiiy matnlardagi frazeologizmlarni tarjima qilish metodikasi asosida badiiy matnlarni tarjima qilishning quyidagi metodik tavsiyasi taklif etiladi:

Matn ustida ishlash, uning stilistik va badiiy xususiyatlarni aniqlash, shuningdek, mumkin bo‘lgan tarjima muammolarini qayd etish; asardagi asosiy badiiy obrazlarni tahlil qilish orqali asliyat muallifining dunyoqarash konsepsiyasi mohiyatini o‘rganish; tarjima qilingan matnning shakli va mazmunini tushunishga yordam beradigan frazeologizmlarning tarixiy kontekstlari, madaniy konsepsiyasi bilan tanishish.

Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” detektiv romani va “Puaro tergov qiladi” asarlari o‘zbek xalqi ma’naviy hayotiga shunchalik singib ketdiki, undagi ko‘pchilik so‘zlar xalq orasida mashhur, ko‘pchiligi aforizmlarga aylangan. Umuman olganda, badiiy tarjimada so‘zning muvaffaqiyatli tanlanishi asliyatning ko‘ngildagidek qayta yaratilishini ta’minlaydi. Tarjimon asliyatga monand tarjimaga erishish uchun tinimsiz ishlashi, so‘z sinonimlaridan unumli foydalanishni bilishi, lug‘at zaxirasini tinimsiz boyitib borishi lozim.

Agata Kristining “O‘nta negr bolasi” detektiv romani va “Puaro tergov qiladi” asarlari rus, o‘zbek va boshqa tillarga qilingan tarjimalari ustida tarjimashunos olimlar chuqur, ko‘p qirrali tadqiqotlar olib borishlari, nashr etilgan tarjimalarga obyektiv, xolis va albatta, professional baho berishlari, kerak bo‘lsa, asarlarning qayta tarjima

qilinishi xususida malakali ko‘rsatma va yo‘l-yo‘riqlar berishlari lozim. Romandagi matnni tushunish bevosita badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liqki, bu tarjimada badiiylikni aks ettirishda asliyatni me‘yoriga yetkazish muammolarining mavjudligi tarjimon uslubining tarjima tili madaniyatiga ta‘sirining kam o‘rganilganligini va bu borada hali qator ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

ILOVA

	Asliyat	Tarjimasi	Muqobili
1	Josephine was very much all there.	Tez fikrlaydigan (kinoyali gap)	Aqli me'yoridan ko'p, oshib ketgan
2	lady was... over him	Xonimda iliq tuyg'ular bor edi	Sevib qolgan
3	The next day passed uneventfully to all appearances	Hech nima bo'lmaganday hamma narsani unutib yuborish	Keyingi kun go'yo hech nima bo'lmaganday, hamma narsani unutib yuborish
4	Haydock as the genuine article	Haydok mehrli insonga o'xshaydi	Haydok – juda shubhali odam.
5	I'm offering you the real article- out of the bottom genuine drawe	Hamma noqonuniy ishni silliq bajaradigan shaxs	Har qanday ishga tayyor odam
6	...stood there rigidly at attention.	Qattiq e'tibor bilan turardi	Diqqatni jamlash
7	one's pet aversion...	Umuman yoqtirmaslik (uy hayvonlaridan nafratlanish)	Hammaning o'z yo'li bor
8	All I ask is, if you're hunting down a homicidal murderer, let me be in at the death	Har qanday holatda yoningda turaman, agar sen qotil bo'lsang, ruxsat ber, sen bilan qotillik qilay	Do'sting uchun zahar yut
9	off the beaten path (или track)	Yo'l-yo'lakay hamma narsa bo'lishi mumkin edi	Har bir ishning, bir hikmati bor; Hammasi yaxshilikka

9	a bit of goods (Nasty bit of goods)	Yomon xulq (bir oz yaxshi)	-----
10	eat smb.'s bread	Kimningdir hisobiga yashash, nonini yeb yurish	Boqimanda, tekinxo'r
11	had there upon made it her business to find out exactly	Majburiyatlarini ado etish	Sinalmagan otning sirtidan o'tma
12	And I have had he on the carpet for it!	Kelishuv	Qizil yo'lakka chaqirish (duel)
13	She upset the apple cart in more homes than one	Hayotini alg'ov-dalg'ov qilib tashladi	-----
14	the cat among the pigeons	Kabutarlar orasidagi mushuk	Qo'zichoqni bo'riga ishonib
15	watching which way the cat will jump	Poylab turish	Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r
16	I don't believe we've a dog's chance of finding the thing	Soyaga qarab to'n bichma, tikanda yo'q xirmonda hozir	Tekinxo'rga teng kelma, qopadi, o'z aybini tekin pulga yopadi
17	Didn't get any extra change out of her...	Boshqa imkoniyat qolmadi	Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas
18	..to say things without giving chapter and verse?	Shubhasiz to'g'ri	Otangga aql bo'lma

19	..was left in charge of the children...	Enagalik qilib turish	Bir bolaga yetti mahalla ota- ona
20	..a dull dog...	Zerikarli odam	-----
21	You're a sly dog.	Rosa tullak	Ayyor odam
22	That date was written with a fountain pen or I'll eat my boots!	Aniq aytamanki, bu qaydlar zarhal ruchka bilan yozilgan	Toshga o'yib yozilgan
23	Gone right over the edge...	Munosabatlarning sovuqlashishi	Haddini bilmaslik
24	...the end of the chapter	Safarimiz qaridi	Jo'jani kuzda sanaymiz
25	It is an inference that leaps to the eye.	Ko'zga tashlanadigan xulosa	Oxiri baxayr bo'lsin
26	I feel rather strongly about this	Judayam hayratdaman (shokda)	Tirik murdaga aylanmoq
27	'I throw in my hand	Taslim bo'ldim	Ikki qo'limni ko'tardim
28	hang by a hair, hang on by one's unu the eyelids	Joni qil ustida, ignaning ustida o'tiribdi	Hayot-mamot masalasi
29	he was on his head or his heels.	Ko'z ilg'amaydigan darajada chaqqon	Uddaburon
30	Many hands make light work.	Ko'p qo'llar yengil ishlarni bajaradi	Birgalashib ko'targan yuk yengil bo'ladi
31	Young saint, old devil	Yosh aziz, keksa shayton	Qarib quyilmagan, chol
32	A word in season.	Mavsumdagi so'z	Do'stning ishi – vaqtda ogohlantirmoq
33	Goose, cookown	G'oz, oshpaz	O'z oyog'ingga o'zing bolta urma!

34	To make two bites of a cherry	Gilosni ikki marta tishlash	Bir mayizni qirqqa bo‘lib baham ko‘rish
35	You cannot sell the cow and drink the milk	Sigirni sotish va sutini ichish mumkin emas	Qaysi butaga o‘t tushsa, o‘sha buta kuyar
36	A penny soul never came to twopence.	Bir tiyin jon hech qachon 2 penga tushmagan	Arzonning sho‘rvasi tatimas
37	Dressed up like a dog’s dinner	Itning ovqatiga o‘xshab kiyingan	Abgor (kir) ahvolda kiyingan odam
38	Done up to the nines	Judayam zamonaviy kiyingan	Olifta
39	Dressed to kill	Odamlar diqqatini jalb qiladigan kiyim	Yaltiroq ko‘ylak
40	Your glad rags on	Eng zo‘r ko‘ylaging	----
41	She looks like mutton dressed as lamb.	Yoshiga yarashmagan kiyimni kiygan	----
42	Up in arms	Achchig‘i keldi	Qahri keldi, g‘azablandi
43	Go To Your Head	Qirq o‘lchab bir kesmoq	Yetti o‘lchab, bir kes
44	Let it be tamed	Qorasi o‘chgur	Qaytib ko‘rmay ma’nosida (Qarg‘ish so‘z)
45	Call a spade a spade	Gapni tinglab turish	Gapni tinglash uchun quloq solib turish
46	Under the weather	Havoda qoldim	Yomg‘irda ivib qolish
47	The ball is in your court	Masala hal	Muammoning yechimi
48	Spilled the beans	Loviyalari to‘kildi	Sirlar ochildi

49	Pull someone's leg..	Hazil o'yinlar qilmoq	Kinoya
50	It's the best thing since sliced bread	Juda zo'r	—
51	Break the ice	Suhbatni davom ettirish	Suhbat avjida
52	Hit the sack	Uxlab dam olish	—
53	Your guess is as good as mine	Men bilmayman	Xabarim yo'q
